

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

Botir BOYMETOV

QALAMTASVIR

*Pedagogika yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari uchun
o'quv qo'llanma*

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy-metodik birlashmalari faoliyatini muvoqiqlashtiruvchi Kengash tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

O'quv qo'llanma pedagogika yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda qalamtasvir bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar yoritilgan. Unda tasviriy san'at haqida dastlabki ma'lumotlar, qalamtasvir – tasviriy san'atning asosi sifatida, uning qonun-qoidalari: tasviriy san'atda perspektiva, kompozitsiya asoslari, chiziqli konstruktiv qurilish, yorug'-soya qonuniyatlari, buyumlarning uslubiy jihatdan bosqichma-bosqich tasvirlash usullari, odam plastik anatomiyasi haqida umumiy ma'lumot, odamning portreti va gavdasini tasvirlash usullari, qalamtasvirda xomaki rasmlar ishlash usullari kabi ko'plab mavzular yoritilgan.

Taqribchilar: **M. NABIYEV** – O'zbekiston xalq rassomi, professor;
N. TOLIPOV – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

KIRISH

Keyingi vaqtida, barcha sohalarda bo‘lgani kabi o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida ham ko‘pgina ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yangi turdagи tasviriy san’at yo‘nalishidagi pedagogika kasb-hunar kollejlarida olib boriladigan mutaxassislik fanlar va yosh pedagog-rassomlar tayyorlash bo‘yicha Davlat Ta’lim standartlari, yangi o‘quv rejalar, dasturlari tuzilib, o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar va uslubiy tavsiyalar yaratilyapti.

Respublikaning tayanch oliy o‘quv yurtlari va ilmiy tekshirish institutlarida yoshlarga milliy san’at namunalarini o‘qitishning ilmiy asoslangan yangi shakli, usullari ishlab chiqilmoqda hamda yoshlarni badiiy va estetik jihatdan tarbiyalab, voyaga yetkazish borasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilayotir.

Yoshlarni jahon andozalariga javob beradigan barkamol etib tarbiyalashda tasviriy san’at, xususan, qalamtasvir fani alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o‘z navbatida, oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar o‘quv yurtlarida o‘qitilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo‘lishini taqozo etib, pedagoglar, olimlar va rassomlar zimmasiga yuksak mas’uliyat yuklaydi.

Yoshlarga yuqori darajada ta’lim-tarbiya berish — bo‘lajak rassom-pedagogdan tasviriy san’at sohasida amaliy malakalarini yuqori darajada egallagan bo‘lishdan tashqari, psixologiya sohasida ham yetarli ma’lumotga ega bo‘lishni taqozo etadi. Albatta, o‘quvchi ta’lim-tarbiya berish borasidagi asosiy bilimlar — pedagogika va psixologiyani chuqur o‘zlashtirishi lozim. Lekin umumta’lim makktablari, kasb-hunar kollejlarida o‘tkazilgan tajriba, kuzatish va xulosalar shuni ko‘rsatadiki, yosh o‘qituvchi o‘zining pedagogik faoliyatida, nafaqat, psixologiyaning umumiyligi tomonlariga e’tibor berishi (yoshlar psixologiyasini o‘rganib, to‘g‘ri ta’lim-tarbiya berishi, ularning individual xususiyatlarini o‘rganishi, o‘quvchiga

muvofig keladigan tarbiya usullarini izlab topishi), balki, turli amaliy mashg'ulotlar jarayonida, xususan, tasviriy faoliyat va yoshlar tarbiyasida uni amalda qo'llashi joizdir. O'quvchilarga — bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga mutaxassislik fanlarini keng ko'lamma o'qitish, xususan, o'quv-amaliy va nazariy mashg'ulotlari orqali ularning ijodiy tasavvurlarini o'stirish va shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa, barcha mutaxassislik fanlaridan yaratilgan o'quv adabiyotlarining chuqur va mazmunli bo'lishini taqozo etadi.

Yuqorida bayon etilgan muammolarni ijobiy hal etish — bo'lajak o'quvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Yoshlarning ijodiy tasavvurlarini o'stirish — dastlabki bos-qichlardan amalga oshirilishi lozim. Ma'lumki, boshlang'ich bos-qichlarda o'quvchilar qalamtasvir mashg'ulotlarida har xil geometrik shakllarni o'ziga qarab bajarishadi. So'ngra turli shakl, hajm va tusga ega bo'lgan buyumlardan tashkil etilgan natyurmortlarni tasvirlashni mashq qiladilar. Ushbu vazifalarni bajarish orqali o'quvchilar kompozitsiya asoslari, chiziqli konstruktiv qurish, buyumlarni fazoviy holatini perspektiv jihatdan aniqlash, buyumning hajmi va uni qalam vositasida yorug'-soyalarni to'g'ri tuslash kabi malakalarini rivojlantirishadi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlari o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv dargohlaridagi barcha o'quv fanlari, ayniqsa, psixologiya bilan keng aloqadadir. Buyumlarni o'ziga qarab tasvirlash, mavzuli kompozitsiya ishlash yoki tasviriy faoliyatning boshqa yo'nalishlarida o'quvchilarning ijodiy tasavvurini shakllantirish psixologik jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda bo'ladi.

Ayrim yoshlarda tasviriy san'at fanlari bo'yicha amaliy vazifalar bajarish jarayonida naturaga qo'yilgan buyumlarni to'la-to'kis idrok eta olmaslik holiari ham uchrab turadi. Bu vaqtida o'qituvchi tasvirlash uchun naturaga qo'yilgan buyumlarning sodda yoki murakkab shakllardan tuzilgan bo'lishidan qat'iy nazar, ularga yetarli darajada tushuntirib, qo'yilgan maqsadni belgilab olishi lozim. Buning uchun o'quvchilarga naturani turli nuqtalardan kuzatish va shu asosda 5—10 daqiqalik qalamchizgilar bajarishni tavsiya etish kerak. Qo'yilgan naturani turli nuqtalardan kuzatish va qalamchizgilar bajarish o'quvchida tasvirlanadigan buyumlarni sezib idrok etish, uning xarakterli xususiyatlarini aniqlab, buyumlarning hajm materiallik xususiyatlari, birining ikkinchisiga nisbati, ularning buyum te-

kisligida joylashuvi kabilarni tasavvur etishga o'rgatadi. Bu borada o'rta asrning buyuk tabobatchi olimi Abu Ali ibn Sino jumladan shunday degan edi: «Ustoz yuksak qalbli, mard, pok, ta'lim-tarbiyaning barcha usulini mukammal biladigan va e'tiqodli bo'lishi shart. U o'quvchining qalbiga yo'l topa oladigan va ta'lim berishda dona-dona so'zlab, hayotiy misollar bilan shogirdini o'ziga jalb eta olishi kerak. Faqat shundagina, u o'z tarbiyalanuvchisini ma'lum fanga o'rgatadi va kasbga yo'naltirishda yordam bera oladi»¹.

O'quv-mashq vazifasining muvaffaqiyatli bajarilishi ko'p jihatdan uning qaysi nuqtadan va qanday masofadan turib tasvirlashga bog'liq. Yuqorida ta'kidlanganidek, vazifaning haqqoniy va to'g'ri bajarilishi ko'p jihatdan uning qaysi nuqtadan chizilayotganligiga qarab belgilanadi. Ma'lumki, buyumlarni tasvirlash, eng avvalo, qog'oz sirtida kompozitsion to'g'ri joylashtirishdan boshlanadi. Buning uchun chizuvchi naturadagi buyumlarning o'zaro nisbatlarini ko'z bilan chamalab, so'ngra ularni qog'oz yuzasida to'g'ri tasvirlashi kerak. Buyumlarning tekislikdagi holati, nisbatlari, xarakterli xususiyatlarini jonli tasvirlash, o'quvchining ko'z bilan chamalash xususiyatlarining takomillashganiga ko'p jihatdan bog'liq.

Tasvirlashda o'zaro munosabatlar borasida mashhur pedagog-rassom N.N. Ge shunday degan edi: «Ushbu qonunni doimo yodda tuting: tasvirlamoq, bu — nisbatlarni ko'rmoq, shuning uchun hech qachon bo'laklarni alohida ko'rmang va tasvirlamang. Siz bir ko'z, bir quloq yoki bir qoshni emas, balki bu bo'laklar yuz qismida qanday joylashganini va ularning o'zaro mutanosibligini o'rganib tasvirlashingiz lozim. Mazkur bo'laklarni tasvirlashda har doim ularni umumiyligini ko'ring: simmetrik bo'laklarni doimo birga va bir vaqtida tasvirlang, ikkala quloqni, ikkala ko'zni, ikkala yonoqni...»².

O'tkazilgan ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'quv mashqlari davomida, ayniqsa, boshlang'ich kurslarda naturani to'g'ri idrok eta olmaslik va uni tasvirlashda yaxlit ko'ra bilmalik jiddiy kamchiliklarga olib keladi. Masalan, 1-bosqich dasturidan olgan turli shakl va materiallardan tuzilgan natyurmortning qalamtasvirini bajarishda o'quvchilar naturaga qo'yilgan buyumlarni butun bir yaxlitlikda emas, har birini alohida-alohida tasavvur

¹ Abu Ali ibn Sino. Tanlangan asarlar. 1-jild. Dushanbe, «Irfon», 1980, 211-bet.

² Школа изобразительного искусства. Вып. II. М., 1965, стр. 164.

etib, tasvirlaydilar. Oqibatda, buyumlarning o‘zaro nisbatlari, ularning joylashgan yeri (tayanch nuqtasi) va kompozitsion tuzilishi tarqoq holda bo‘lib qoladi. Bunday salbiy oqibatning oldini olish uchun tasvirlash uchun qo‘yilgan buyumlarni butun bir yaxlitlikda ko‘rib, uni qog‘oz sirtida xayolan tasavvur etish, shundan so‘nggina uni amaliy bajarishga kirishish tavsiya etiladi. E’tiborlisi shuki, bu usulda boshlangan tasvir haqqoniy bajarilibgina qolmay, o‘quvchining ijodiy tasavvurini shakllantiradi.

O‘quvchilarning ijodiy tasavvurlarini o‘stirishning kuchli mohiyatlaridan biri, o‘ziga qarab tasvirlanadigan buyumlarni (naturmort, gips geometrik shakllar, portret inson qomati va boshq.) xayolan chizishdir. O‘quvchilarda tasavvurni shakllantirishda bu usul muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, xayolan u yoki bu vazifani tasvirlash orqali o‘quvchilar, uni o‘ziga qarab chizish davrida olgan bilim va malakalarini xayolan tiklab, undagi xarakterli xususiyatlarini, nisbatlarini, yorug‘ va soyalarning umumiy qonunlarini psixologik kechinmalarini tasvirlashga harakat qilishadi. Bunday mashqlar o‘quvchilarda fikr yuritib tasvirlash, rasmdagi obrazlarni chuqur o‘rganish va tahlil etish mahoratlarini rivojlantirib, bo‘lajak pedagogik faoliyatga puxta tayyorlaydi.

Qalamtasvir predmeti pedagogika yo‘nalishidagi o‘rta maxsus kasb-hunar kollejlarida o‘qitiladigan barcha maxsus fanlarning asosi hisoblanadi va ular o‘rtasida bevosita bog‘liqlikni ta’minlaydi. Qalamtasvir borasida yetarli bilim va malakalarni egallamay turib, o‘quvchi kompozitsiya, rangtasvir, haykaltaroshlik, xalq amaliy san’ati va boshqa mutaxassislik fanlarni yuqori darajada o‘zlashtira olmaydi.

Hozirgi vaqtida o‘rta maxsus, kasb-hunar o‘quv yurtlarida «Qalamtasvir» fanini o‘qitishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslangan yangi yo‘li, shakli, mazmuni hamda usullarini takomillashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Davlat standartlari asosida o‘qitishning istiqbolli yo‘llarini ishlab chiqish.

2. Tasviriy san’at ixtisosligi bo‘yicha barcha ta’lim muassasalarida pedagog kadrlarni tayyorlovchi muassasalar ish faoliyatini ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil etish.

3. Mahalliy manbalardan foydalanishni keng yo‘lga qo‘yish orqali o‘quvchilarni yuqori malakali, Vatanga sadoqatli, milliy

hamda jahon xalqlari san'atini mukammal biladigan, o'tmish madaniyatimizni sevadigan pedagoglar bo'lib yetishishlarini ta'minlash.

4. Pedagogik kasb-hunar kollejlari uchun «Qalamtasvir» fanining nazariy va amaliy jihatdan yuksak darajada biladigan, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan qurollangan pedagog kadrlarni tayyorlash.

Mazkur o'quv qo'llanma pedagogika yo'nalishidagi o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarining badiiy grafika fakultetida o'tkazilgan ko'p yillik tajriba-sinov mashg'ulotlari asosida yaratilgan. Unda qalamtasvirning maqsad va vazifalari, tasviriy san'at, xususan, qalamtasvirning asosiy qonun-qoidalari, o'quv qalamtasvirini metodik izchillikda bajarish usullari kabi masalalar o'rinni olgan. Pedagogika yo'nalishidagi o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari o'quv-chilariga mo'ljallab yozilgan ushbu o'quv qo'llanmadan tasviriy san'at sohasi mutaxassislari, metodistlar ham foydalanishlari mumkin.

I-bob. QALAMTASVIR — TASVIRIY SAN'ATNING ASOSI SIFATIDA

1.1. Tasviriy san'at haqida dastlabki ma'lumotlar

Tasviriy san'at — o'quvchilarda borliqni haqqoniy obrazlarda tasvirlashni mukammal o'zlashtirish, yosh rassomlarni tayyorlashdagi dastlabki qadam hisoblanadi. Qog'oz yuzasida jism-larning asl shaklini yuksak mahorat bilan to'g'ri tasvirlash uchun tasviriy malakani mukammal egallash va uni amaliyotda qo'llash — naturaga, shuningdek, xotira va tasavvurga asoslanib, rasm chizishni o'rganish zarur. Albatta, bunday ijodiy topshiriqlarni bajarish uchun inson rassomchilik qobiliyatiga ega bo'lishi va o'z ustida uzlucksiz, betinim ishlay olishi muhimdir.

Tasviriy san'atning asosiy vazifasi — yoshlarda tasvirlash mahorat qirralarini o'rganish natijasida yuzaga kelgan bilim va malakalarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. U o'quvchidan tasvirlash qonun-qoidalarini bilishni va ulardan to'g'ri foydalana olishni ko'zda tutadi.

Rasm chizishga o'rgatish, bu — bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi vazifalarni hal etishni taqozo etadi:

- narsani o'ziga qarab anglash, kuzatish, jismlarni o'zaro solishtirish;
- jismlarni shakli, rangi, materiallik xususiyati bo'yicha farqlay bilish;
- rasm chizish mashg'ulotlarida e'tiborli bo'lish, fikrlab, jism-larning shaklini aniq tahlil qilishga o'rgatish.

Realistik rasm chizish asoslari, uslublari va mahoratini o'zlashtirish, tasvirlashda ketma-ketlikni bilishga va turli materiallardan foydalana olishga o'rgatadi. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda bo'lajak pedagog bilim olishi va malakasini oshirishi, turli xil qalamlar bilan ishslashni o'rganishi va o'z qobiliyatini shakllantirishi, amaliyotda undan samarali foydalana olishi muhim hisoblanadi.

Tabiatdagi barcha shakllar va hattoki, inson tanasi ham o‘zida turli geometrik shakllarga o‘xshash birikmalaridan tarkib topgan murakkab plastik shakldir (kub, shar, silindr, prizma va boshq.). Shuning uchun qalamtasvir bo‘yicha dastlabki mashg‘ulotlar tasviriy san’atning asosiy qonun va qoidalarini o‘zlashtirish hamda ushbu qonunlar asosida oddiy geometrik shakllarni turli holat va rakursda chizishga qaratiladi.

O‘quvchilarning tasviriy san’at sohasida mahoratlarini oshirishga alohida urg‘u bergen holda ushbu sohaning mashhur namoyandalari bildirgan fikrlarni har bir yosh mutaxassis yodda tutishi va ish jarayonida ularni o‘ziga shior qilib olishi maqsadga muvofiqdir. Tasviriy san’atning asosiy vazifasi — bo‘lajak pedagogda borliqni his etish va uni o‘z ish jarayonida jonli tasvirlay olish qobiliyatini rivojlantirish hamda yosh avlodga o‘zbek va jahon san’ati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘laqonli yetkazishdan iborat.

Tasviriy san’at sohasida amaliy jihatdan mahoratni shakllantirish jarayoni naturani hayotiy tasvirlash mashqlari orqali amalga oshiriladi. Bu haqda ko‘plab ilmiy maqolalar, o‘quv adabiyotlari va risolalar yozilgan bo‘lib, qadimgi Uyg‘onish davridayoq rassom-ijodkorlar o‘zlarining dunyoga mashhur san’at asarlari va metodik izlanishlari orqali o‘z fikrlarini bayon etishgan.

Shaklni to‘g‘ri tasvirlash uchun o‘quvchi, avvalambor, uning o‘ziga xos tomonlarini aniq tasavvur etish va ko‘rishni o‘rganishi kerak. Yosh va boshlovchi rassom uchun bu oson ish emas va doimiy ravishda nazariy hamda amaliy mashg‘ulotlarni talab qiladi. Mashhur ijodkorlarning fikriga ko‘ra, agarda, rassom bir kun rasm chizishdan to‘xtasa, u ikki kun orqaga ketadi. Shuning uchun yosh rassom naturaga qarab, jismlarning haqqoniy rasmini chizishni bir kun ham to‘xtatmasligi kerak. Bu esa, uning shakl va hajmni qanday qabul qilishiga, anglab yetishiga bog‘liq. Tabiatan barcha narsalar, buyumlar va ularning shaklini insonlar turlicha tasavvur etishadi. Bu esa, o‘z navbatida, har bir insonning tasavvuri, xarakteri va ko‘rish qibiliyatiga bog‘liq.

1.2. Qalamtasvir asoslari va uning maqsad-vazifalari

Qalamtasvir — barcha tasviriy san’at turlarining asosi hisoblanadi. Rassom tasviriy san’at turining qaysi birida ijod qilishidan qat’iy nazar, qalamtasvirga asoslanadi. U o‘zining kuzatishlari, katta

asar kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi. San'at asarlarini yaratishda esa, ushbu bajarilgan chizgilar rassomga yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Rassom u yoki bu kartina yaratishni qalamdan boshlaydi. Shundan keyingina, ushbu san'at asari ranglar jilosi orqali tomoshabinga estetik huzur baxsh etadi. Boshqacha qilib aytganda, qalamtasvirsiz hech bir rassom o'z asarini yetuk holga keltira olmaydi.

Qalamtasvir boshqa san'at turlari orasida mustaqil ravishda tugallangan dastgohli san'at asari ham bo'lishi mumkin. Tush, sangina, pastel, sous, qalam bilan bajarilgan ko'plab kartinalar jahonning turli san'at muzeyi va ko'rgazmalaridan joy olgan. Qalamtasvir mashg'ulotlari ko'rib-kuzatib to'g'ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo'l, ong va sezgi organlarini shakllantirishda, nafaqat, bo'lajak rassomga, balki turli kasb sohasidagi kishilarga zarurdir.

Uyg'onish davrining buyuk rassomi va olimi Leonardo da Vinchingining «Rangtasvir qonunlari» nomli asarida shunday degan edi: «Yoshlar o'zlarini ilm-fan, tasviriy san'atda sinamoqchi bo'lsalar, avvalo, rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozimdir».

Qalamtasvir mashg'ulotlari boshqa mutaxassislik fanlari qatorida bo'lajak o'qituvchi-rassomlarni tayyorlashda asosiy fan hisoblanadi. Qalamtasvir darslari talabalarga bosqichlarda nazariy va amaliy mashg'ulotlar orqali olib boriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, amaliy mashg'ulotlar qatorida nazariy bilimlar bo'lajak pedagoglarga ularning bilim olishni tugatgandan so'nggi ilmiy va ijodiy faoliyatlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Borliqdagi narsa va shakllarni realistik tasvirlash o'quvchilarga, nafaqat, amaliy bilim va ko'nikmalarni beribgina qolmay, balki ularning umumiy dunyoqarashlarini o'stirishda katta ahamiyatga ega. Realistik tasvirlash san'ati, bo'lajak pedagoglarga yosh rassomlarni borliqni haqqoniy obrazlarda ifoda etish mahoratlarini rivojlantirishda ham beqiyosdir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, rasm chizishni o'rganish o'quvchilarga atrofdagi jismlarni realistik tasvirlash bilan birga, ularning estetik didlarini ham o'stirishda katta ahamiyatga ega. Rasm chizish asoslarini o'rganish, narsaning o'ziga qarab, metodik izchillikda tasvirlash prinsipiiga asoslanadi. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining yetuk malakaga ega bo'lishda, nafaqat, amaliy

bilimlarni chuqur o'zlashtirgan bo'lishi, balki tasvirlash san'ati sohasida nazariy tayyorgarligining puxtaligiga ham bog'liq.

Bo'lajak pedagog-rassomlarni buyuk rassom va tasviriy san'at sohasida ko'plab nazariy, amaliy bilimlarni meros qilib qoldirgan shaxslar hayoti va ijodiy faoliyatları bilan tanishtirish, ularning asarlarini chuqur o'rgatish hamda ulardan nuxxalar olishga jalb etish katta ahamiyatga ega.

Qalamtasvir mashg'ulotlari mutaxassislik o'quv fanlarining asosi sifatida bo'la-jak tasviriy san'at o'qituvchilariga qu-yidagi eng asosiy qonunlarni o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi:

A. Tasviriy san'-atda kompozitsiya asoslari.

B. Shakllarning chiziqli konstruktiv tuzilishi.

D. Buyumlar-ning o'zaro nisbatlari.

E. Tasviriy san'-atda perspektiva qonunlari.

F. Shakllarda yorug' va soya qonuniyatları.

G. Tasvirni metodik ketma-ketlikda «analiz» va «sintez» qilib to'g'ri bajarish.

Bunga misol tariqasida oddiy geometrik shakllardan tashkil etilgan *kub* va *sharning* tasvirini keltirish mumkin (1-rasm).

Bu ko'nikma va malakalar o'quvchining bilim olish vaqtida o'quv-amaliy va nazariy mashqlarini bajarish orqali rivojlanib, takomillashib boradi. Shuningdek, ushbu bilimlar bo'lajak o'qituvchi-rassomning o'quv dargohni tugatgandan so'ng, pedagogik va ijodiy ish jarayonida ham muhimdir.




1-rasm.

1.3. Borliqni idrok etish

Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini rasm chizishga o‘rgatishdagi asosiy vazifalardan biri, bu — rassomda jism shaklini masofadan ko‘rish va tasvirlash qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Jism shaklini fazoda ko‘rish va tasvirlash — jismni «hajmdor» tarzda, uch o‘lchamli shaklda (balandligi, eni va qalinligini) ko‘rish demakdir.

O‘quv mashg‘ulotlarining asosiy vazifasi — natura o‘lchamlarini to‘g‘ri ifodalagan holda, realistik ko‘rsatib bera olishdan iborat.



2-rasm.

Bunga ko‘z bilan o‘lchash (masofa va jism o‘lchamlarini ko‘zda chamalash) qibiliyatini rivojlantirish va ko‘zni to‘g‘ri qaratish orqali erishiladi. Bunday holarda jism o‘lchami va masofani aniqlash uchun ko‘z bilan chamalash qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi (2-rasm).

Chamalash qibiliyatini shakllantirish uchun ish jarayonida doimiy ravishda ko‘z bilan nisbatni aniqlash qo‘l keladi. Tasvirning realistik tarzda chiqishi uchun bo‘lajak o‘quvchilar o‘z ishlariga nisbatan e’tiborli, mas’uliyatli bo‘lishlari kerak. Shuning uchun ular tabiatga nisbatan sinchkovlik bilan qarash, tahlil qilish ko‘nikmalarini hosil qilishlari va bir vaqtning o‘zida ko‘rgan shaklni eslab qolish qibiliyatlarini ham rivojlantirishlari kerak bo‘ladi.

Ko‘rish orqali eslab qolish yosh rassomning eng qimmatli va e’tiborli xislatidir. U tasvirdagi jism shakli, nisbati va tuzilishi haqidagi aniq va umumiylashtirish xotirada saqlaydi. Bu esa, shaklni «xotiradan», «tasavvur va anglash» asosida chizish imkonini berib, yoshlarning kelgusidagi pedagogik hamda mustaqil asar yaratish borasidagi malakalarini shakllantiradi.


Naturadan rasm chizish bo‘yicha olib borilgan doimiy mashqlar natijasida ko‘rib, eslab qolish qobiliyatini rivojlanadi. Bunday mashqlar, ayniqsa, rassomchilikka endi qadam qo‘yayotgan yoshlarni

uchun nihoyatda muhimdir. Mashg‘ulotlar jismlarning shakl jihatdan tuzilishi, nisbatlari va insonlarni tasvirlashda esa, plastik anatomiya to‘g‘risidagi bilim va malakalarini xotirada yanada mustahkamlanishida asosiy o‘rin tutadi. Ushbu maqsadni amalgaloshirishda akademik rasmlar chizish bilan bir qatorda, qisqa muddatli chizgilar va qoralamalar ishlash ko‘zda tutiladi. Ko‘rish xotirasini mustahkamlovchi bunday mashg‘ulotlarda, avvalo, eng asosiy qism yodda qoladi, shakllarning ikkinchi darajali qismlari esa, shakl jihatidan o‘rganiladi. Bunda asosiy maqsad — umumiy shaklni eslab qolish. Shuningdek, mashg‘ulotlar davomida eslab qolish darajasi kengayadi va chuqurlashadi: ikkinchi darajali qismlar va bo‘laklar ham xotirada qoladi. Chizgilar va qisqa muddatli rasmlar o‘quvchida naturani haqqoniy ko‘ra olish — to‘liq ko‘rish xislatini rivojlantiradi va tarbiyalaydi.


Ko‘p yillik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, aksariyat yoshlar tasvir bajarishda metodiik izchilikka rioya qilishmaydi va buyumning umumiy shaklidan ko‘ra, uning qismlariga ko‘proq e’tibor qaratadilar hamda har bir elementning mohiyatini tushunib yetishmaydi. Agarda, yosh rassom-o‘quvchi tasvirni to‘liq ko‘ra olsa va realistik tasvirlashning asosiy qonunlaridan bo‘lgan hamda metodik izchillikda «umumiyan — bo‘laklarga va bo‘laklardan — yana umumiya» tamoyilidan foydalangan holda «analiz va sintez» tamoyiliga asoslanib, tasvir bajarsagina ko‘zlangan maqsadga erishishi va vazifani samarali bajarishi mumkin. Doimiy ravishda qismlarni umumiy jism bilan birgalikda tasvirlab ish yuritish bir vaqtning o‘zida rasmning har bir qismi ustidan nazorat o‘rnatish imkonini beradi. Bunga misol tariqasida geometrik shaklga ega o‘zbek milliy naqsh rozetkasining metodik bosqichlardagi tasvirini ko‘rsatish mumkin (3-rasm, a, b, d).

Shaklning nisbatlari va chiziqli-konstruktiv tuzilish, hajmini esa, shtrixlash orqali amalgaloshirish rassomdan bir vaqtning o‘zida butun rasm ustida ishslash jarayonida mohirlik hamda amaliy ko‘nikmalarni talab etadi. Oddiy natyurmortdan tortib, to murakkab shaklga ega bo‘lgan inson qomatini tasvirlash mashg‘ulotlarida ushbu tamoyilga katta e’tibor qaratiladi.


Tasvirlash malakasini o‘zlashtirish orqali ma’lum bir miqdorda to‘liq ko‘rish qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Bajarilayotgan ishning muvaffaqiyati o‘quvchining molbert oldida qanday



a



b



d


3-rasm.

o‘tirishi va qalamni qay holatda ushlashiga bog‘liq. Molbertga qo‘-yilgan planshet tekisligiga nisbatan o‘quvchining nigohi 90° burchak ostida bo‘lishi kerak. Shundaqina, u qog‘oz yuzasidagi barcha shakl va qismalarni to‘laqonli ko‘ra oladi va tasvirni bexato bajaradi (4-rasm).

O‘quvchi qalamni ochilgan uchiga nisbatan qarama-qarshi tarafdan ushlashi va jimgiloqni qog‘ozga ohista qo‘yan holda chiziq hamda shtrixlarni bajarishi kerak. Bunday ish yuritilganda, qalam qog‘oz yuzasida istalgan burchak bo‘yicha harakatlana oladi. Kerakli tus chiqarish uchun shtrixlarni teng oraliqlarda bir-biriga parallel ravishda chizish orqali erishiladi



4-rasm.



5-rasm.

(5-rasm, a, b, d, e). Ba'zi vaqtarda o'quvchi-yoshlar buyum shakliga nisbatan shtrixlarni berishda xatolikka yo'l qo'yadilar va bajarilayotgan shakl hajmi soxta chiqadi. Sferik yuzalarda to'q rangdan och rangga o'tish uchun shtrixlar orasidagi oraliqlarni kamaytirish yoki ko'paytirish hamda qalam uchini, qattiqroq yoki yengilroq bosish orqali amalga oshiriladi (6, 7-rasm).

Ma'lumki, jismning to'liq hajmini bir tomondan ko'rish mumkin emas. Faqatgina jismning har bir qismini atrofdan ko'rib chiqib, jismning haqiqiy shaklini bilish mumkin. Jismlarning kenglikdagi ko'rinishini tasavvur eta olish va anglash mahoratining natijasi qo'yilgan jismning haqqoniy tarzda tasvirlanishi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun jismlarning bizga ko'rinib turgan chegaralari va konturlari yordamida jismga yorug'lik tushishi va hosil bo'ladigan soyani hisobga olib, jismning sirtqi tarafi to'g'risida tasavvurga ega bo'lamiz. Ko'rib anglashning ushbu xususiyat-

lari realistik tasviriy san'atning qonun-qoidalarini belgilab beradi. O'z navbatida, realistik tasvirda shunday xususiyatlar bo'lishi lozimki, ular jismning shakliga, tusiga qarab tasvirni to'g'ri tasavvur etish yoki tu-shunish imkonini berishi kerak.


Yoshlarni tasviriy san'atga o'rgatish jismlarni kenglikda ku-zata bilishni o'rgatishdan boshlanadi. Buning asosiy sababi, jismlarni to'g'ri tasvirlay olish-



6-rasm.

dir. Realistik tasviriy san'atda insonni o'rab turuvchi shakl va jismlar tabiatda qanday mayjud bo'lsa, inson ularni qanday ko'rib qabul qilsa, shunday tasvirlaydi. Buning uchun o'quvchi ko'rib, idrok etishning ba'zi xususiyatlarini egallashi, shaklni qog'oz yuzasida to'la hajmli etib, uch o'lchamli tarzda (bo'yi, eni, balandligi) tasvirlash qoidalari va usullarini bilishi talab etiladi. Tasviriy san'atning barcha turlari va janrlarida bo'lgani kabi, qalam-tasvirga o'rgatish jarayoni ham mashg'ulotlarning oddiyidan —

murakkabga tartibida amalga oshirilishini ko'zda tutadi. Bunda agar oldingi mashg'ulot o'quvchi tomonidan yetarli o'zlashtirilmagan bo'lsa, keyingi, yanada murakkabroq vazifalarni tushunish imkonini qiyin kechadi. Buning uchun yosh rassom tasviriy san'atdagi mayjud qonun-qoidalarga to'la rioya qilishi talab etiladi. Eng muhim, ushbu qoidalarni yoshlarni tasviriy san'at sohasida tarbiyalashda ahamiyati katta.



7-rasm.

1.4. Tasviriy san'atning asosiy qonun-qoidalari

Perspektiva qonuni. Yosh rassomlarni narsani o'ziga qarab, xotira va tasavvurdan rasm chizishga o'rgatishda realistik tasviriy san'at qonun-qoidalari nazariy asoslarini bilishlari katta ahamiyatga ega.

Buyum tekisligida jismni haqqoniy tasvirlash uchun, uning bizga ko'rinish turgan qismi, undagi xos bo'lgan quyidagi barcha xarakterli jihatlari va xususiyatlarini tasavvur etish lozim:

1. Konstruksiya jihatdan tuzlishi.
2. Nisbati.
3. Hajmi.
4. Qanday materialga ega ekanligi.
5. Fazoda joylashuvi.

Bizni o'rab turgan atrofimizdagi barcha buyumlar tasviriy san'atning asosiy qonunlaridan biri bo'lgan perspektiv qisqarishga

ega. Tasvirlanayotgan buyumlar, ushbu buyumning qaysi tomonidan tasvirlanishidan qatiy nazar (uzoqdan, yaqindan, yuqoridan, pastdan, to'g'ridan yoki chekkadan), chizuvchiga perspektiv o'zgarib ko'rinishi. Masalan, kubni u yoki bu tomonga burib, uning tomonlarini chizuvchiga perspektiv o'zgarib ko'rinishini kuzatamiz. 8-rasmda temiryo'llar, simyog'ochlar va kenglikdagi boshqa shakllarning bizdan uzoqlashgan sari kichrayib, bir nuqtada tutashishini ko'rishimiz mumkin. Hayotda, garchi, bu o'zaro parallel bo'lган relslar hech qachon uchrashmasa-da, perspektiva qonuniga binoan, ular bizdan uzoqlashgan sari, bu holatni ko'ramiz. Bu perspektiva qonuniga asosan sodir bo'ladi.



8-rasm.


Ko'chaning o'rtasidan keta turib, derazalar, yo'l chetidagi daraxtlarga qarasak, ular xuddi qisqarib borayotgandek. Aslida esa, ularning o'lchami o'zgarmaydi. Uzoq masofalarda juda katta hajmdagi jismlar ham kichrayib, noaniq belgilar, chiziqlar va bo'laklar shaklida ko'rinishi. Jismlarning bunday o'zgarishi ma'lum qonunlarga bo'ysunadi. Ushbu qonunlar insonning ko'rish qobiliyatiga, jismlarning masofa o'zgarishi, qisqarishi natijasida vujudga keladi. Bularni tasviriy san'atda *perspektiva qonuni*, deb ataladi.

Bizning jism haqidagi tasavvurlarimiz, o'sha jismni kuzatayotgan paytimizdagi shart-sharoitlar (masofa, hajm, havo o'zgarishi, yil fasli va boshq.) asosida o'zgaradi. Jismlar shaklining ko'z o'ngimizda o'zgarishi — perspektiva qonunlariga bo'ysunadi. Olisdag'i jismlar shaklining perspektiv qisqarishi qadimdan ma'lum bo'lib, Uyg'o-nish davridayoq, buyuk tasviriy san'at namoyandalaridan Leonardo da Vinchi o'zining «Surat haqida uch kitob» asarida chiziqli hamda fazoviy perspektiva qonunlari to'g'risida fikr bildirib o'tgan edi. Ushbu qonunning nazariy jihatdan rivojlanishi nemis rassomi va nazariyotchisi Albrext Dyurer nomi bilan ham bog'liq.

Quyida jismlarning perspektiv qisqarishi uchun o'ta muhim bo'lgan qonun-qoidalarni ko'rib chiqamiz. Buning uchun, eng avvalo, ko'rish organimiz haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz lozim. Ma'lumki, yorug'lik nurlari ko'z qorachig'i orqali ichkariga kiradi, gavhardan ikki taraflama qavariq linza orqali o'tib, ko'zning to'rsimon muguz pardasiga tushadi. Ushbu pardaneng eng mayda kolbalari asablarning ta'sirlanishini yuzaga keltiradi va uni bosh miyaga uzatadi, buning natijasida biz yorug'likni his etamiz. Yorug'lik nurlari ko'zga konus shaklidagi nur holatida kiradi.

Masofa, jism masshtabining o'zgarishi, jismning ko'zdan uzoqlashishi bilan faqatgina uning kengligi va balandligi emas, balki chuqurligi ham o'zgaradi. Shuningdek, jism balandligi va hajmi ham kenglikning o'zgarishi natijasida kichrayadi. Shuning uchun olisdagi jism hajmi yaqindagi jism hajmiga nisbatan noaniq bo'lib ko'rindi. Ko'zdan juda ham olislashib ketganida jismlar umuman kichrayib ufq chizig'ida bir chiziq holda tekis bo'lib ko'rindi. Jismlar kichrayishi bilan ular o'rtasidagi masofa ham kamayadi. Uzoqdagi narsalar xuddi yaqinlashib qolgandek va ularni ajratib turgan bo'shliq — masofa g'oyib bo'lgandek tuyuladi. Jismlar va ko'z o'rtasidagi masofa yanada ortganida, jismlar bir-birlari bilan bir nuqtaga birlashib ketadi. 9-rasmida mashtab haqida ma'lumot berilgan. Bunda inson qomatining mashtab o'zgarishi bilan perspektivadagi tasviri qanday qisqarishi ko'rsatilgan.

Jismlar shaklining qisqarishini aniq va ravshan ko'rsatib berish uchun, o'zimizdan biroz uzoqroqqa to'g'ri burchakli oyna bo'lagini joylashtiramiz va u orqali jism yoki jismlar guruhini kuzatamiz. Jismdan kelayotgan nur ko'zimiz to'r pardasiga tushishdan oldin, tomoshabin va jism o'rtasida joylashgan oyna yuzasidan ma'lum




9-rasm.

nuqtalarda o'tishi lozim. Boshimiz holatini o'zgartirmasdan, ko'rinyotgan jism konturi bo'yicha oynaga tush yoki siyoh bilan chizamiz. Oynada to'g'ri perspektiv tasvir hosil bo'ladi. Ushbu holatda oyna *rasm chizish yuzasi* bo'lib xizmat qiladi. Tasviriy san'atdagi bu jarayonni o'tmishda buyuk rassom olimlar amaliy jihatdan isbotlashgan.

Albrext Dyurer (suratda) perspektiv rasm chizish moslamasidan foydalanib, tasvir bajarmoqda. Bunda tasvir yuzasi bo'lib oyna xizmat qilgan (1525-yil).



Jismning joylashgan o'rniga (ko'zdan balandda yoki pastda, bizdan olisda yoki yaqinda) va burilish darajasiga ko'ra, jismning ko'zga ko'rindigan qismi o'zgaradi. Jismni ko'zdan yiroqlashtirilishi, uning hajmining kichrayib borishiga olib keladi. Gorizontal chiziqlar (yo'lak chetlari, temiryo'llar va h.k.) ko'zdan uzoqlashib, insonning ko'zi oldida joylashgan shartli tekislik tomon



10-rasm.


harakatlanadi: ko‘zdan balandda bo‘lgan jismlar balanddan pastga tomon, ko‘zdan pastda bo‘lganlari esa, pastdan yuqoriga tomon kichrayadi. Parallel gorizontal chiziqlar olishlashganida nafaqat bir-birlariga yaqinlashadilar, balki bir nuqtada birlashadilar. 10-rasmda xona ichining perspektiv ko‘rinishi tasvirlangan. Bunda xona ichidagi jihozlar, xona devorlari va boshqalarning perspektiva qonuniga asosan, qisqarib ko‘rinish chizmasi berilgan.

Ufq chizig‘i deb, ko‘zimiz balandligida o‘tadigan nurga aytildi. Buni aniqlash uchun qog‘ozni olib, uni gorizontal holatda ko‘zimiz darajasigacha ko‘tarib ufq chizig‘ini aniqlashimiz mumkin. Buyum chizuvchiga uch holatda ko‘rinishi mumkin:

- ufq chizig‘idan yuqorida;
- ufq chizig‘idan pastda;
- ko‘zimiz nuri balandligida (ufq chizig‘i balandligi darajasida).

Tabiatdagi barcha shakllarning rasmini chizishda, ularni ufq chizig‘iga nisbatan joylashuvini aniqlash muhimdir. Ufq chizig‘i kuzatuvchi ko‘zi darajasida joylashadi, shuning uchun rassomning holati o‘zgargach, ufq chizig‘ining joylashuvi ham o‘zgaradi (tik turib, o‘tirib va h.k.). Jism ufq chizig‘i hisobga olingan holda tasvirlanganda, jismning ko‘rinadigan qismi o‘zgarib turadi: ufq

chizig‘idan yuqorida joylashgan jismlar kuzatilganda, ularning pastki qismi, gorizontdan pastda joylashganlarining esa, yuqori qismi ko‘rinadi. 11-rasm, *a*, *b*, *d* larda uyning ufq chizig‘iga nisbatan turli holatlariga asosan ko‘rinishi ko‘rsatilgan: *a*—ufq chizig‘i balandligida; *b*—ufq chizig‘idan yuqorida; *d*—ufq chizig‘idan pastdag‘i ko‘rinishlar.




11-rasm.

Hajmdor jismlarni qog'ozda to'g'ri tasvirlash uchun, avvalam-bor, geometrik shakllarning perspektiv tuzilishini o'rganib chiqish lozim. Bunda asosiy geometrik shakllar — kub, silindr, shar, prizma va boshqa shakllar asos bo'lib xizmat qilgan holda eng oddiy shakllar hisoblanadi. Eng murakkab jismlarning konstruksiyasi ham oddiy jismlarning tuzilishidan vujudga keladi. Sodda shakllar misolida jismlarning perspetkiv tuzilishi qonunini osonlikcha o'zlashtirish mumkin. Oddiy geometrik shakllarni perspektiv qoida asosida chizishni to'liq o'zlashtirish, tabiatdagi har qanday jismni hech qanday qiyinchiliklarsiz chizish imkonini beradi. Ufq chizig'i har doim ko'zimiz nuri balandligidan o'tadi. Agar biz yuqoriga chiqsak, u biz bilan ko'tariladi, pastga tushsak, ufq chizig'i ham pastda kuzatiladi. 11-rasm, e da oddiy geometrik shakllardan biri bo'lган kvadrat va kubning usq chizig'idan pastda joylashgan holati va undagi perspektiv o'zgarishlarini ko'rishimiz mumkin.

Uch o'lchamli jismni qog'ozda tasvirlash tamoyillarini egallash uchun, turli jismlarni bir necha bor usq chizig'iga nisbatan turli joylashtirib, shuningdek, rassomga nisbatan rasmlarni turli burchaklarda burib chizish muhim.

Aylananing perspektiv ko'rinishi. Silindrni turli holatlarda to'g'ri ifodalash uchun, avvalambor, aylanani perspektiva qoidalari asosida tasvirlashni o'rganish kerak. Modelning old qismi holatini saqlagan holda, doirani gorizontal diametri bo'ylab aylantiramiz. Ushbu holatda doiraning ko'rinish turuvchi qismlari ketma-ket o'zgaradi: *asl holati*, *o'rta ellips* va *to'g'ri chiziq* ko'rinishida bo'ladi.

Gorizontal holatlardagi aylanalar tasvirlovchining usq tekis-ligining holatiga qarab ellips shaklida ko'rindi. Ufq chizig'iga yaqinlashgani sari, ellipsning kichik o'qi qisqaradi (shakl bir yuza bo'lib ko'rindi) va usq chizig'i bilan mos keluvchi doira yuzi (kvadrat kabi) to'g'ri gorizontal chiziq ko'rinishida tasvirlanadi. Aylana usq chizig'idan yuqorida yoki pastda joylashishiga qarab, ellips aylana shakliga o'tib boradi. Agar biron-bir aylana usq chizig'idan yuqorida joylashsa, u holda uning pastki qismi, gorizontdan pastda joylashganida esa, uning yuqori qismi ko'rindi. Bunda doimo shuni yodda tutish kerakki, ellips qanchalik ingichka bo'lmasin, u katta o'qning ikki uchida sinmaydi, shuning uchun aylananing perspektiv tasvirini yaratish jarayonida turli radiusli yoylardan foydalanish yaxshi natija bermaydi. Bu amaliyotda



12-rasm.


isbotlangan va ushbu qoidaga rioya etilmasa, aylananing perspektivadagi to‘g‘ri tasviri hosil bo‘lmaydi. 12-rasm, *a*, *b* da aylana va aylana shakliga ega bo‘lgan chelakning ufq chizig‘iga nisbatan joylashishiga qarab, perspektiv qisqarishini ko‘rishimiz mumkin.

Rassom ellipsning kichik o‘qiga e’tibor qaratganida, uning olisdagi radiusi yaqindagi radiusga nisbatan qisqaroq ekanligini payqaymiz. Naturadan rasm chizilganida, doimo ushbu holatni yodda tutish kerak. Bunda kichik o‘qning rassomga yaqin turgan tarafi uzoqdagisi bilan solishtirilishi va rasm tuzilishi e’tiborga olinishi lozim.

Yosh rassom aylana va ellipsni hech bir qiyinchiliklarsiz chiza olishi kerak. Avvalambor, bir-biriga perpendikular bo‘lgan ikki chiziq — simmetriya o‘qlari chiziladi. Ularning uchlardidan egrilik darajasi yuqori bo‘lмаган yoylar chiziladi, keyin esa, yoy natijasida hosil bo‘lgan burchaklarga to‘g‘ri chiziqlar tortiladi. Hosil bo‘lgan burchaklar to‘g‘ri chiziqlar o‘tkazish yo‘li bilan yo‘qotiladi. Nati-jada, doira hosil bo‘ladi. Bu yerda egrilik darajasi butun aylana bo‘yicha bir xil bo‘lishi lozim. Ellipsni chizishda ham xuddi shu usuldan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tasviriy san‘at asoslari to‘g‘risida gap borganda, undagi bir qator qonun-qoidalarga murojaat qilishni taqozo etadi. Ular quyidagilardan iborat:

Surat tekisligi, bu — tasvirlanayotgan natyurmort, manzara, portret va hokazolar bilan rassom orasidagi bo‘sqliqqa aytiladi (13-rasm).




13-rasm.

Fiziologik nuqtayi nazardan qaralganda, yorug'lik chizilayotgan buyumga tushib, rassomga u yoki bu qismining shakli ko'rindi. Shundan keyingina, rassom uni idrok etib tasvirlashga o'tadi. *Surat tekisligi* — rassom bilan natura o'tasidagi vosita bo'lib xizmat qiladi.


Buyum tekisligi deb, tasvirlanayotgan buyumning joylashgan tekisligiga aytildi. Buyum tekisligi vazifasida stol, pol, yer va boshqa chizish uchun bajariladigan moslama bo'lishi mumkin.

Ko'rish maydoni va *ko'rish burchagi*, bu — chizuvchining tasvirlanayotgan buyumni ko'rish vaqtida qamrab olishdir. Rassom tasvirlanayotgan obyektdan qanchalik uzoqlashib borgan sari, uning ko'rish maydoni ham kengayib boradi, bu esa, tasvirlanayotgan obyektning barcha qismlarini aniq ko'rish va tasvirlashga imkon yaratadi (14,15-rasmlar).

Tasvirlanajak buyum (obyekt)dan juda katta masofada turib, undagi hamma bo'lak va qismlarni yaqqol tasvirlash mushkul. Aksincha, tasvirlanayotgan obyektga juda yaqin turib ham, undagi hamma qismlarni ko'z bilan ilg'ab olish qiyin bo'ladi. Shuning uchun har qanday tasvirni bajarayotganda chamlash orqali masofani to'g'ri tanlay olish, ko'rish maydonini to'g'ri belgilash rassomdan mahorat talab etadi. Ko'p hollarda rassomlar tasvirlanayotgan predmet kattaligini uch hissa ko'paytirilganiga teng



14-rasm.



15-rasm.

masofada turib tasvirlashadi. Masalan, inson qomatini to‘laqonli tasvirlash uchun rassom naturadan taxminan 5—5,5 metrlar masofada turishi kerak. Shundagina u tasvirni to‘laqonli tasavvur etib vazifani aniq bajarishi mumkin.

Fazoviy perspektiva deb, buyumlarning fazo (bo‘shliq) ta’sirida o‘zgarib (qisqarib) ko‘rinishiga aytildi. Fazo — tiniq muhit bo‘lib, uning tiniqligi tabiatning turli hodisalari ta’sirida o‘zgarib turishi mumkin. Masalan, havo namligi, atmosfera bosimining o‘zgarishi, havodagi chang-to‘zonning ta’sirida havo bulutligi va boshqalar. Shuning uchun tasvirlanayotgan obyektning fazo bo‘shlig‘ida qay darajada chuqur joylashganiga qarab rang, nisbat, tus va undagi alohida bo‘laklarning (yaqqol yoki xira) ko‘rinishlariga keskin ta’sir etadi.

Fazo perspektivasi obyekt kunning qaysi vaqtida tasvirlana-yotganligiga (ertalab, kunduzi, kechqurun), yil fasllari (qish, bahor, yoz, kuz) hamda atmosfera o‘zgarishiga (quyosh yoki bulut) qarab ham o‘zgaradi.

Fazoviy perspektivaning bir necha asosiy qoidalari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Bajarilayotgan tasvir rassomga yaqin bo‘lgan buyumlar yaqqol, uzoqdagilar esa, umumiylar ko‘rinadi. Tasvirda fazoni sezdirish uchun yaqin masofada joylashgan buyumlarni yaqqol, uzoqdagilarni esa, umumiylar tarzda tasvirlash kerak.

2. Fazo bo‘shlig‘i (kengligi)da joylashgan buyumlar chizuvchidan qanchalik uzoqda joylashgan bo‘lsa, xira tusda ko‘rinadi. Tasvirda fazoviy perspektivani to‘g‘ri ko‘rsatish uchun uzoqda joylashgan buyumlarni ozroq yengil, oldingi qatordagi buyumlarni esa, yaqqol tasvirlash kerak.


3. Yaqin masofada joylashgan buyumlar fazoda yaqqol hajmli bo‘lib ko‘rinadi, uzoqdagilari esa, xiraroq ko‘rinadi. Tasvirlashda ham ushbu tartibga rioya qilmoq zarur.

4. Chizuvchidan uzoqroq joylashgan buyumlar, atmosfera bosimi ta’sirida siyohrang, favorang va och tusda ko‘rinadi. Fazoviy perspektivani yanada kuchliroq ko‘rsatish uchun yaqin masofadagi yaqqol ko‘rinib turgan buyumlarni aniqroq chizgilar bilan, uzoqdagilarni esa, ochroq tusda tasvirlash mumkin.

5. Oldingi qatorda joylashgan buyumlar haqiqiy o‘z tusi (rangi)da, uzoqdagilari bir xil bo‘lib ko‘rinadi. Fazoviy perspektivaning bu qonuni rassomdan oldingi masofada joylashgan buyumlarni yaqqol, uzoqdagilarni esa, umumiylar tarzda xiraroq qilib tasvirlashni talab etadi.


Fazoviy perspektivaning ushbu qonun-qoidalariga rioya qilish o‘quvchi uchun muhimdir. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan qoidalar o‘quvchining qanday vazifa bajarishidan qat’iy nazar (portret, natyurmort, manzara va h.k.) kuzatiladi.

Chiziqli konstruktiv tuzilish. Tasvirlash uchun buyum qanday sodda yoki murakkab bo‘lishidan qat’iy nazar, u konstruktiv tuzilishga ega. *Konstruksiya* so‘zi — tuzilish (qurilish) ma’nosini anglatib, rassom buyumni tasvirlashda, ushbu qonunga amal qiliishi shart. Buyumni haqqoniy qilib tasvirlash uchun uning tuzilishini chiziqli konstruktiv tuzilishiga e’tibor



16-rasm.

berish maqsadga muvofiq. Chiziqli konstruktiv ko‘rish har qanday vazifani tasvirlashda amalga oshiriladi. Uy jihozlarini metodik izchilllikda tasvirlashda, chiziqli konstruktiv usulni amalda qo‘l-lab, naturani qanday yaxlitlikda bajarilishini ko‘rishimiz mumkin (16,17-rasmlar).



17-rasm.


Buyumning konstruktiv tuzilishini uning asosiy qismlaridan hamda yordamchi chiziqlar o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Chiziqli konstruktiv tuzilish orqali buyumni to‘g‘ri tasvirlashda perspektiv qonun-qoidalarga to‘liq amal qilishni taqozo etadi. Yuqorida ko‘rsatilgan rasmdagi shakllarning hajmini to‘g‘ri amalga oshirish jarayonida buyum tekisligida joylashgan asosi, bo‘g‘izi va yuqori qismi aylanalarining buyum tekisligidagi holatiga asosan perspektiv qisqarishini ko‘ramaz. Demak, chiziqli konstruktiv qurish buyumning chekka qirralarini kontur chiziqlar bilan yengil tasvirlab, bizga ko‘rinar-ko‘rinmas tomonlarini ham asosli tarzda ko‘rsatishni taqozo etadi.

Buyumlar o‘z hajmiga ega bo‘lishdan tashqari nisbatlarda ham, balandligi va eniga egadir. Bu esa, *buyumlarning nisbati*, deyiladi. Bir necha buyumlardan tashkil etilgan qo‘yilma o‘z nisbatlaridan tashqari, o‘zaro katta-kichikligiga qarab nisbatlari mavjud. Realistik tasvirlashda buyumlar nisbatini to‘g‘ri aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. Buyum nisbatlarini to‘g‘ri aniqlash va tasvirlash quyidagi usulda amalga oshiriladi. Masalan, gips shakllardan tashkil etilgan

natyurmort qo‘yilmasini olaylik. Qo‘yilma balandligini eniga nisbatan kattaligini aniq-lash uchun qo‘lga qalamni ushlab uzatgan holda uning kichik tomoni — enining o‘l-chamini qalamda bosh barmoq bilan belgilab balandligiga qo‘yib taqqoslaymiz. So‘ngra ushbu topilgan nisbatni qog‘ozda belgilaymiz. Shu usulda bir guruh buyumlardan tashkil etilgan natyurmort yoki boshqalarni o‘zining hamda o‘zaro nisbatlarni to‘g‘ri tasvir-lash mumkin (18-rasm).


Hajmlar. Har bir buyum o‘zining hajmiga ega. Uning hajmi qirralari, balandligi, bo‘yi va enining mavjudligi bilan belgilanadi. Agar buyumning hajmi to‘g‘ri to‘rtburchaklardan iborat bo‘lsa, uning hajmi ham tekis yuzadan iboratdir. Egri chiziqlardan tashkil topgan buyumlar (shar, konus, silindir va boshqalar) tekis yuzalilarga nisbatan ancha hajmdor hisoblanadi. Yuqorida sanab o‘tilgan shakllar kontur¹ chiziqlar vositasida amalga oshiriladi. Kontur chizig‘ining buyum shaklini namoyon etishda ahamiyati benihoyat katta. Buyumning tuzilishi, harakati, nisbatlari, uning qanday materialdan tuzilganligini va boshqalarni tasviriy ifodalashda rassom kontur chiziqlardan foydalanadi.

Buyumning shakllari to‘g‘ri to‘rtburchaklardan iborat bo‘lsa (kub, piramida, prizma va boshq.), uning hajmlarini bajarish to‘g‘ri chiziqlar vositasida amalga oshiriladi. Sferik shakllarning hajmlari va konturlari egri chiziqlardan iborat bo‘lsa, hajmlilik



18-rasm.

¹ Kontur (frans. *kontour*) — buyum shaklini aks ettiruvchi jihoz.



19-rasm.

ellips, aylana hamda yarim doira shakllar orqali amalga oshiriladi (19-rasm).

Buyumni hajmdor tarzda tasvirlash, uning qanday shaklga ega ekanligiga va uni to‘g‘ri tuslash orqali bajariladi. Qirrali buyumlarda, masalan, kub hajmini to‘g‘ri tasvirlashda ko‘pincha o‘quvchilar xatolikka yo‘l qo‘yadilar.

Kubning hajmini yorug‘ soyalar vositasida bajarish jarayonida uni yanada yorqinroq aks ettirish uchun uning qirralarini kontur chiziq bilan alohida bo‘rttirib ko‘rsatiladi. Bu esa, mutlaqo noto‘g‘ri. Tabiatda esa, qirrali buyumlar yuzalarining bir-biridan tus jihatidan och va to‘qligi bilan belgilanadi. Faqat (kub yoki boshqa qirrali buyumlarda) soya qismidagi qirrasi yorug‘ qismidagi yuzaga yaqinroq yerida tus jihatdan kuchliroq ekanligi bilan xarakterlidir.

Dumaloq shaklli buyumlarning hajmlari ellips, aylana chiziqlar orqali bajariladi. Shuni ta’kidlash kerakki, dumaloq hajmga ega buyumlarning ekvator qismi tus jihatdan boshqa yerlariga nisbatan kuchliroqdir (*6, 7-rasmlarga qarang*).

Qirrali buyumlarda bo‘lgani kabi sharsimon buyumlarni tasvirlashda ham uning chetlari quyuq kontur chiziq bilan emas, balki yorug‘ va soyalar bilan amalga oshiriladi. Faqatgina uning turgan holatiga qarab yorug‘ va orqa fondagi soyalar chegarasi bor, xolos.

Yevropa realistik tasviriy san’atdan farqli ravishda sharq tasviriy san’ati o‘zining betakrorligi bilan ma’lum va mashhur. Chunonchi, ustoz Kamoliddin Behzod tomonidan ishlangan ko‘plab miniatURA asarlari, garchi, yorug‘-soya qonuniyatları va perspektiva qoidalariga rioya qilinib yaratilmagan bo‘lsa-da, undagi lokal chiziq va konturlar orqali rassom asar qahramonlarini mohirona tasvirlagan. Bu usuldagagi tasvirlar faqatgina sharq miniatURA san’atigagina xosdir.

1.5. Tasviriy san'at texnologiyalari: materiallar, jihozlar va ularni rasm chizishda qo'llash

Tasvir qog'ozda, kartonda, maxsus qoplama berib ishlov berilgan (gruntovka qilingan) mato va h.k.larda bajarilishi mumkin. Ushbu materiallardan eng qulayi qog'oz. Qog'ozning ko'pgina turlari mavjud. Rasm chizish uchun yaxshi zichlangan, yelimga to'ydirilgan qog'oz turlari — vatman, yarim vatman, qalamchilik qog'oz'i qo'l keladi. Ushbu qog'ozlar qalam chiziqlarini o'chirg'ich yordamida ko'p marotaba o'chirishga mo'ljallangan. Yumshoq va yaxshi yelimlanmagan qog'ozlarning ustki qatlami o'chirg'ich ishlatalganida buziladi va qog'ozning ustki qismi ko'chib ketadi. Rasm qog'oz'i zich bo'lish bilan birgalikda, biroz dag'alroq ham bo'lishi kerak. Shunda qalamni qog'oz ustida yengil yurgizib, yumshoq iz qoldirish mumkin.

Qog'oz sifati uning mustahkamligiga, tashqi tuzilishiga va tusiga (rangiga) qarab belgilanadi. Tuzilishi jihatiga ko'ra, qog'ozlarni tekis, qavariqli va tukli yuzali qog'ozlarga ajratish mumkin. Tekis qog'ozlar turiga karton, bo'rangan qog'ozilar mansub. Qavariq yuzali qog'ozlarga esa, masalan, vatman, yarim vatman, qalamchilik qog'oz'i kiradi; tukli qog'ozlar — kartonning alohida turlariga muqova qog'ozlari kiradi. Shuningdek, qog'ozlarni rangiga ko'ra tanlash ham muhim: qog'oz rangi qanchalik och bo'lsa, unda turli xil ranglarni ifodalash imkoniyati shunchalik yuqori bo'ladi. Odatda, rasm chizish uchun oq rangdagi qog'oz ishlatalidi, ammo ba'zan unga kulrang va boshqa ranglar uyg'unlashtiriladi. Tusli qog'ozni rangdor qilish va unga tus jihatdan mos keladigan tasvirlar bajarish uchun uning yuzasi enli, yumshoq mayin mo'yqalam yordamida suyultirilgan akvarel, sous, achchiq choy yoki qahva bilan bir xil qatlamda qoplanadi. Rasm chizish uchun eng qulay qog'oz bu yarim vatman hisoblanadi. Yarim vatman bo'limgan taqdirda esa, kerakli o'lchamdag'i albom ishlatalish maqsadga muvosiq.

Yoshlarni rasm chizishga o'rgatishda dastlab oddiy qora qalamdan foydalanish lozim. Chunki oddiy qora qalamlar bilan buyum hajmini to'la-to'kis bajarishga o'rgatilgandagina keyingi murakkabroq vazifalarini oson egallashga yordam beradi. Tarkibidagi bo'yoq moddasiga ko'ra, qalamlar grafit, «Ретушь», «Italian», rangli va boshqa turdagilarga bo'linadi.

O'quv mashg'ulotlarida ko'proq grafithli qalamlar ishlataladi.

Yuqori sifatli grafit qalam qog'oz ustida yengil harakatlanadi va o'rta bosimda sinmaydi. Odatda, uning ustida prizma (qirrali) yoki silindr shaklidagi yog'och qoplam bo'ladi. Yosh rassom uchun prizmasimon qalamlar mos keladi.

Grafitli qalamlar qattiqligiga ko'ra, yumshoq (M), o'rta (TM) va qattiq (T) turlariga bo'linadi. Yanada yumshoqroq yoki yanada qattiqroq qalamlar o'sib boruvchi raqamlar bilan belgilanadi: M, 2M, 3M, 4M va hokazolarga yoki T, 2T, 3T «qattiq»larga ajratiladi. Shuningdek, qalamlarning quyidagi xalqaro belgilari ham mavjud: yumshoq — B, HB — o'rta, H — qattiq.

Rassomlar, odatda, yumshoq qalamdan foydalanadilar: qalam qog'oz yuzasida yengil harakatlantirilganida yaxshi chizadi. Shuningdek, yumshoq qalam yosh rassomlarga ko'plab qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Yumshoq qalamlar osonlikcha sinadi va qisqa vaqtida grifeli o'tmaslashadi, yosh rassom uchun uni o'tkirlash, ko'nikma hosil bo'lgunicha, biroz qiyin kechadi. Amaliy ish tajribasiga ega bo'lman yoshlar ushbu qalamlarda shtrix chizganlarida, u juda qalinlashib, qorayib ketadi va u har yerga surkalib qog'ozni xunuklashtirib yuboradi. Bunday hollarda eng yaxshisi TM, M va 2 M qalamlaridan foydalanish kerak.

Grafitli qalamning kamchiliklaridan biri, bu — uning yaltirashi. U butun ish jarayonida bilinib turadi va grafit qattiqroq botirilganda, qog'ozga o'chirg'ichda ketmaydigan iz tushadi. Bundan tashqari, eng yumshoq grafitda ham ton berish xususiyati bo'ladi.

Oddiy grafitli qalamlardan tashqari rassomlar maxsus qalamlardan — «Нерго», «Ретушь», zichlangan va zichlanmagan ko'mir, sangina va sousdan ham foydalanadilar. «Herpo» qalami qog'ozda to'q qora iz qoldiradi, u yumshoq va nisbatan chidamli; ushbu qalam yordamida chizilgan suratlar o'z ta'sir kuchiga ega, ammo «Нерго» qalamining ham kamchiliklari mavjud: u o'chirg'ichda juda yomon o'chiriladi, shuning uchun ham bu qalam turi yosh rassomlarga mos kelmaydi. Rassomlar «Ретушь» yoki «Italian» qalami bilan ishlashni ma'qul ko'rishadi. Ushbu qalam yordamida ko'plab mashhur rassomlar ajoyib san'at asarlarini yaratishgan. U qog'ozga baxmalsimon tus beradi, o'chirg'ich va mato yordamida yaxshi o'chiriladi; uning yordamida bir tusdan ikkinchi tusga juda noziklik va ohistalik bilan o'tish mumkin. Ammo bunday qalamlar bilan ishslash uchun rassomda yuqori bilim va

malaka bo‘lishi kerak. Qalam juda mo‘rt, shuning uchun undan tajribasiz qo‘llar foydalansa, tezda yoyilib, sinib ketadi.

Shuningdek, uzunligi taxminan 10 santimetr bo‘lgan, uzun cho‘p holatiga keltirilgan ko‘mir ham samarali ish quroli hisoblanadi. Ko‘mir — ishslash uchun juda qulay material, shuning uchun rassomlar ba’zan uni eng sifatli qalamdan ham afzal ko‘rishadi. U bilan juda sisfatsiz muqova qog‘oziga ham chizish mumkin. Chunki noto‘g‘ri chizilgan chiziqlarni o‘chirish uchun qog‘ozni toza va quruq mato bilan qoqib yuborish kifoya. Ko‘mir tayoqchasini qo‘lda yengil ushlab, bosmasdan qog‘oz bo‘ylab yurgizilganida u mayin, bilinar-bilinmas iz qoldiradi; to‘q tusni hosil qilish uchun ko‘mirni (qattiq bosmasdan) ko‘p marta ustma-ust yurgizish tavsiya etiladi. Ingichka chiziqlarni chizish uchun ko‘mirni dag‘alroq yuzaga yonboshlatib, ishqalash orqali uchli qilish mumkin. Ko‘mir, odatda, katta rasmlar ishlanganida, karton yoki matoda yaratiladigan asarlarning dastlabki qoralama va chizgilarini (odatda, rassomlar uni kartina uchun bajarilgan karton, deb ataydilar) chizishda hamda rangtasvir asarlarni boshlang‘ich kompozitsiyasini yaratish jarayonida va boshqa hollarda qo‘llanadi.

Ko‘mir yoki «*Italian*» qalami yordamida chizilgan tasvirlarni uzoq saqlash uchun rasm tayyor bo‘lganidan so‘ng, uni maxsus qorishma — fiksativ yordamida mustahkamlash kerak. Buning uchun, rasm ustiga oddiy shirin suv purkaladi. Sangina zichlangan ko‘mir qalamchasiga o‘xshab ketadi, ammo rangi qizg‘ish-jigarrang bo‘ladi. Ushbu ajoyib ish quroli rasmga baxmalga o‘xshash chiroyli, qizg‘ish-jigarrang tus beradi, o‘chirg‘ichda nisbatan oson o‘chiriladi. Sagina bilan ishslash uchun «*Italian*» qalami kabi, ma’lum bilim va mahorat talab etiladi.

Sous — zichlangan qorakuyadan tayyorlangan va maxsus qog‘ozga o‘ralgan qalin, qisqa qalamchalar. Sous bilan ishslash juda mushkul va faqat mahoratlari rassomlargina buning uddasidan chiqa olishadi.

Sous bilan ishslash uchun chidamli va biroz dag‘al yuzali qog‘oz kerak. Qog‘oz qalamning raqami va turiga ko‘ra tanlanadi. Grifel qanchalik yumshoq bo‘lsa, qog‘oz yuzasining fakturasi shunchalik notekis, bo‘rtmali bo‘lishi kerak. «Ретушь» va «Нерпо» qalamlari bilan yarim vatmanda, grafitli qalamlar bilan esa, yarim vatman va qalamchilik qog‘ozlari ishslash qulay. Mashg‘ulotlarda

chiziladigan rasmlar, odatda, grafithi «Кохинор» (V-3V), «Конструктор» (M-3M) hamda «Ретушь» (1, 2 raqamlari) qalamlarida ishlanadi. Xomaki chizgilar nisbatan yumshoq qalamlarda chizilishi mumkin.

Qalam ochilayotganda, avval unga konus shakli beriladi, so‘ngra uni qumqog‘ozda silliqlanadi. Bu qalamning juda o‘tkir uchi bilan qog‘ozga ingichka chiziqlar va shtrixlar chizish, yon tomoni bilan qalin va och tus berish imkonini yaratadi. Shuni ham yodda tutish kerakki, o‘ta qisqa yoki noto‘g‘ri ochilgan qalam bilan ishslash ancha mushkul.

Rasm ustida ishslash jarayonida o‘chirg‘ichdan (odatda, yumshoq o‘chirg‘ichdan) ham foydalaniladi. U rangni kuchsizlanitirish (ochartirish), ortiqcha chiziqlarni olib tashlash (o‘chirish) uchun ishlatiladi. Qattiq o‘chirg‘ichdan alohida holatlarda, masalan, sanginani o‘chirishda foydalaniladi. Oddiy yumshoq o‘chirg‘ich sifatli bo‘lsa, u o‘chirish chog‘ida qog‘oz ustida iz qoldirmasligi kerak. Agar o‘chirg‘ich qoraytirsa yoki juda qattiq bo‘lsa, uni birikki kunga kerosinga solib qo‘yish, so‘ngra esa, 1—2 soat past olovda qaynatish tavsiya etiladi. U xamirga o‘xhash o‘ta yumshoq bo‘ladi. Bu turdagи o‘chirg‘ich ortiqcha ko‘mir va sous qatlamini olib tashlash uchun juda qulaydir.

Tush va bo‘yoqlar bilan ishslash uchun turli raqamli pero va mo‘yqalamlar kerak bo‘ladi. Rasm chizilayotgan qog‘oz yoki boshqa yuza rassom nigohiga (ko‘z nuriga) nisbatan perpendikular joylashgan bo‘lishi lozim. Bunday holatda rasm borligicha, qisqarmasdan ko‘rinadi.

Rasm joylashtirilganida, unga rassomning yoki boshqa jismlarning soyasi tushmasligi kerak. Iloji boricha, chiroqni tepe tarafga, chizuvchining old, chap tomoniga o‘rnatish maqsadga muvofiqdir. Qog‘ozga quyosh nurlari tushganda yoki rassomning ko‘z oldida chiroq yonib turganida rasm chizish mumkin emas. Ko‘z soyada bo‘lishi kerak. Model joylashtirilganida, u rasm chizuvchining chap, yon tarafida bo‘lishi lozim: ushbu holatda ishlayotgan qo‘l modelga qarashga xalal bermaydi (chunki, agar model o‘ng tarafda bo‘lsa, u to‘silib qoladi).

O‘quv mashg‘ulotlari sharoitida qog‘oz maxsus tagliklarga qalpoqli mix bilan mahkamlanadi. Rasm chizuvchi va qog‘oz

o‘rtasidagi oraliq masofa taxminan cho‘zilgan qo‘l uzunligida bo‘lishi kerak. Bu rasmni to‘laligicha ko‘rish, uni tekshirish va asl jism bilan solishtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, rasmni doimiy ravishda 2—3 metr uzoqlikdan tekshirib turish tavsiya etiladi. Agar rasm katta bo‘lsa, masofani kattalashtirish kerak. Odatda, molbertda rasm chizilganda, o‘tirib ishlanadi; uning oyoqlarini surib, har xil burchakda joylashtirish mumkin. Katta rasmlar ustida turib ishlanadi.

Rasm chizish vaqtida, model to‘liq ko‘rinib turishi zarur. Rassom va chizilayotgan jism orasidagi masofa, jismning katta o‘lchamiga nisbatan 2,5—3 metrdan kam bo‘lmasligi kerak. Ish davomida chalg‘imaslik uchun barcha zaruriy asbob va uskunalar ish joyi yaqinida bo‘lishi lozim.

Rasm chizishni o‘rganish uchun, avvalo, qalam bilan ishlashning texnik asoslarini mukammal egallashni talab etadi. Bu o‘z navbatida tasvirlash mahoratini shakllantirish, amaliy vazifalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga ham xizmat qiladi. Dastlabki mashg‘ulotlar jismoniy mashqlarni eslatadi. Ular aniq harakatlarni amalga oshiradigan, rasm chizish jarayonida uzoq vaqt ishlaydigan kaftning mayda mushaklarini mustahkamlaydi va dinamikani rivojlanтирди. Rasm chizish turli chiziqlar chizish mahoratini shakllantiruvchi va rasm chizish texnikasini egallashda qo‘l keluvchi eng oddiy mashqlar bajarishdan boshlanadi. Mashqlarning maqsadi — ko‘z bilan chamalash (o‘lchash)ni, qog‘ozga har qanday yo‘nalishda chiziq chizilayotganda, qo‘lning erkin va yengil harakatlanishni ta’minlashdan iborat.

Chiziqlar jismni tasvirlashda eng asosiy vosita bo‘lib hisoblanib, ular ratsional, qalinligi va egrilik darajasi bo‘yicha turli xil bo‘lishi kerak. Chiziqni bitta umumiy harakat bilan chizish, qisqa muddat ichida aniq va ma’noli rasm chizish imkonini beradi. Shu maqsadda, tayyorlov xarakteridagi dastlabki rasmlarni chizishda ko‘zda chamalab chizishni o‘rganish lozim.

Yosh rassom faoliyatidagi asosiy kamchiliklardan biri, bu — qalamni noto‘g‘ri ushslash. Rassom oddiy daftor o‘lchamidan katta bo‘lmagan yuzaga rasm chizayotgan vaqtidagina, qog‘ozni gorizontal holda joylashtirishi va o‘tirib ishlashi mumkin. Faqat ushbu holatdagina, qalamni yozish vaqtida ushlagandek qo‘lda tutish mumkin.

Qiya o'rnatilgan taglikda rasm chizilganida, qalamni shunday ushlash kerakki, bosh barmoq uning tepe qismidan bosib tursin, pastki qismini esa, qolgan to'rt barmoq yoki ko'rsatkich va o'rta barmoq bilan ushlanadi. Ushbu holat juda qulay, chunki u rassomga qo'lini hech qanday qiyinchiliklarsiz uzatib ishslash imkonini beradi. Rasm chizish chog'ida, qalam yuzaga nisbatan o'tkir burchakda joylashishi kerak, shunda u qog'oz bo'ylab yengil harakatlanadi va mayin iz qoldiradi. Qalamni to'g'ri ushslash yana shunisi bilan qulayki, ish davomida qalam muntazam charxlanib boradi va o'tkirligini yo'qotmaydi.

Qalam noto'g'ri ushlanganda, qalam va rasm yuzasi oralig'ida deyarli to'g'ri burchak hosil bo'ladi, bu yerda chizilgan chiziq qo'pol bo'ladi, qalam uchi tez ishdan chiqadi va qog'oz yuzasi qiriladi. Qalam noto'g'ri ushlanganda, shuningdek, barcha chiziqlar qora, juda qalin bo'ladi va bu tasvir savyasini tushirib yuboradi.

Ish jarayonida rassom chizilayotgan jismni yaxlitligicha ko'rib turishi kerak. Bu o'z vaqtida xatolarni anglab yetish va tuzatish imkonini beradi. Natijada, vazifa to'g'ri bajariladi. Rassom va chizilayotgan rasm o'rtasidagi masofa belgilangan tartibda bo'lishi lozim; rasm chizuvchining qo'li esa, cho'zilgan holatda bo'lishi kerak, chunki bukilgan qo'ldan ko'ra, cho'zilgan qo'l bilan rasm chizish qulayroq. Ammo, qo'l cho'zilganda uni erkin tuta bilish va yuza bo'ylab yengil harakatlantira olish muhim hisoblanadi. Agar ehtiyoj sezilsa, so'nggi ikki barmoqni rasm yuzasiga tirab ishslash mumkin. Bunda qo'l tagidagi chizilgan rasm surkalib ketmaydi.

Qalam ushlanganida, qo'l erkin harakatlanishi kerak. Ish bo'shida, uning orqa qismidan ushlanadi. Bu tezkorlik bilan uzun shtrix chiziqlar chizish imkonini beradi, shuningdek, doimiy ravishda rasm yuzasini ko'rib turishga sharoit yaratadi. Rasm chizish jarayoni davom etishi bilan, qalam ushslash uslubi ham o'zgarib boradi. Rasm tugallanayotganida, qalamning ochilgan tarafi barmoqlarga yaqin bo'ladi va ushbu holatda shaklning mayda bo'laklari va aniq shtrixlar bilan bajariladi.

Rasm chizish sirlarini egallash uchun ma'lum tizimdag'i mashg'ulotlar talab qilinganligi tufayli, auditoriya sharoitidagi darslardan so'ng, uy vazifasi doimiy tarzda bajarilib borilishi shart. Shu sababli, uy sharoitida ish joyini tayyorlash muhim hisoblanadi.



a



b




d



e



f




g



h



i



j

20-rasm.

Qog‘ozni mahkamlash uchun 50x70 sm o‘lchamga ega bo‘lgan to‘g‘ri burchakli taxta (planshet) kerak. Planshetni mustahkamlash uchun fanerga 2x3 sm o‘lchamli yog‘och qoqliladi. Planshetga oyoq-chalarning o‘rnatalishi, planshet yuzasini ish jarayoni uchun zaruriy va qulay bo‘lgan burchakda joylashtirish imkonini beradi. Planshet-taglikka qog‘oz tortish usullari 20-rasmda ko‘rsatilgan (*a–j*).



NAZORAT SAVOLLARI

1. Qalamtasvir — tasviriy san’atning asosi deganda, nimalarni tushunasiz?
2. Qalamtasvir asoslari va uning maqsad-vazifalarini bayon eting.
3. Qalamtasvirning asosiy qonun-qoidalarini izohlab, misollar keltiring.
4. Qalamtasvirning metodik bosqichlari qanday? Uning amaliy mashg‘ulotda qo‘llanishini so‘zlab bering.
5. Uzoq muddatli qalamtasvir ishlash bilan qalamchizgining farqi nimada?
6. O‘quv-akademik qalamtasvir ishlashning maqsad va vazifalarini bayon eting.
7. Qalam, ko‘mir, sangina bilan ishlash texnikasini izohlang.

2-bob. TASVIR VOSITALARI VA RASM CHIZISH USULLARI

2.1. Rasmdagi shakl, hajm va tus munosabatlari

Qalamtasvir sirlarini egallash va uni sifatli amalga oshirish uchun tasviriylan san'atdagi texnik bilim, malaka va tajribalarni o'rghanish bilan chambarchas bog'liq. Rasm chizish texnikasi haqida gapirilganda, tasvir vositalari (chiziq, shtrix va h.k.), materiallar (qalam, ko'mir, qog'oz va h.k.), ish usullari va asar yaratish jarayonida ko'maklashuvchi barcha asosiy narsalar tushuniladi.

Tasvir mukammalligi, oddiy vositalar yordamida yuqori tasvirga erishish va rassomchilik san'atining mohiyatini ochib bera oladigan asarlar yaratishni ko'zda tutadi. Shu bilan birgalikda tasvirda rassomning ma'lum bir jihatlari, uning xarakterli xususiyatlarining ba'zi qirrali aks etadi.

Rasm chizish texnikasining bilim va tajribasini o'zlashtirish ko'plab ishlarni yengillashtiradi, o'quvchining grafika tilini boyitadi va uni tasviriylan mahoratni egallashga tayyorlaydi. Rasm chizish jarayonida uning texnik tomonlarini o'zlashtirish jismlarni realistik tasvirlash uslublarini bilish bilan bog'liq.

Realistik tasvirning vazifasi jismlarni perspektiv tasvirini ishslash, obyektlarning xarakterli xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Shakl deganda, barcha buyum va shakllarining geometrik asosini tashkil etuvchi, tashqi ko'rinishi va xarakterlarini ochib beruvchi yuza qismi va konturi tushuniladi.

Har bir jism, qaysi nuqtadan qaralishiga ko'ra, o'zgarib, ko'rinishidan tashqari, doimiy o'zgarmas shakliga ham ega. Inson doimiy ravishda ko'plab jismlardan taassurot oladi. Natijada, ushbu jismlar va hodisalarining belgilari, nafaqat, insonda taassurot qoldiradi, balki o'xshashligi yuzasidan bir-biri bilan taqqoslanadi: shakl shakl bilan, rang rang bilan va h.k. Bunda har bir jismning

doimiy, xarakterli va yorqin belgilari yaxshiroq yodda qoladi. Shuning uchun jismni tanish uchun uning har bir qismini idrok etish shart emas. Har bir jism o‘ziga xos xususiyatlarga ega va ular orqali jismni osonlikcha taniymiz.

Jism haqida aniq va to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lish uchun, ushbu jismni boshqa jismlardan ajratib turuvchi ba’zi xarakterli belgilarni tasvirlash kifoya qiladi. Ushbu belgilarning rasmda mavjud bo‘lmasligi, jismni tanish imkoniyatlarini kamaytiradi. Aksincha, ikkinchi darajali belgilarni mavjud bo‘lmasliganda, tasvir sifati deyarli o‘zgarmaydi. Ikkilamchi bo‘laklarning birlamchi bo‘laklarga bo‘ysunishi, xarakterli, tipik qismlarning ajratilishi tasvirni haqiqatga yaqinlashtiradi, tomoshabinga jismni osonroq idrok etish imkonini beradi. Jism shaklidagi barcha zaruriy narsalarni rasmda iloji boricha to‘liq tasvirlab, ikkilamchi qismlarni yengil chizgilarda ko‘rsatish kerak. Jismning tabiiy ko‘rinishini tasvirlash — uning fotosuratdagi ko‘rinishini emas, balki o‘sha jismning ko‘rinib turgan qismining asosiy, xarakterli belgilarini ifodalashdan iborat.


Har qanday jism asosiy uch o‘lchov asosida xarakterlanadi — kengligi, uzunligi, balandligi, boshqacha aytganda hajmiga ko‘ra. Hajm deganda, jismning uch tomoni o‘lchamlari tushuniladi. Eng oddiy jismlarni chizganda ham, ularning shaklidagi asosiy belgilarga e’tibor berish lozim.

Shakl ko‘rinishi faqatgina unga qaysi nuqtadan qaralganida o‘zgaribgina qolmay, balki jism haqidagi tasavvurni o‘zgartirib yubora oluvchi yorug‘lik va jism toni holatiga ham bog‘liq. Lekin tasviriy san’atning haykaltaroshlik turida haykaltarosh-rassom hech qachon ushbu holatlarga e’tibor qaratmaydi, chunki u o‘z ijodida shakl bilan ishlaydi: ba’zi paytlarda u modelning mayda, ko‘zga unchalik tashlanmaydigan qismlariga e’tibor bermasligi yoki ko‘rmasligi mumkin. Bu borada rassom haykaltaroshdan o‘rnak olishi kerak. Rassom uchun jismni ko‘rishi kifoya qilmaydi, u o‘sha jismni bilishi va his qilishi ham lozim. Rasm ustida ishlay turib, rassom xayolan go‘yoki, haykal yasagandek harakat qilishi kerak.

Rasmga hajmli ko‘rinish berish uchun, jismlarni konstruktiv tuzilishini ko‘ra olish darkor. Misol uchun, kub chizish jarayonida faqat ko‘rinib turgan qism bilan chegaralanish kerak emas (*11-rasm, d ga qarang*). Uni mantiqan butun tasavvur etib, rasmda ko‘rin-

maydigan qismini ham tasvirlash lozim. Yosh rassom qog'ozga hajmli jism tasvirini tushira turib, uning ichki proyeksiyasini ham chizishi shart. Bunda jism xuddi oynadan yasalgandek ko'rindi. Bu mashg'ulot jismning tub mohiyati va uning tuzilishini o'rganishga yordam beradi.


Konstruksiya har qanday jismning asosini tashkil etadi. Konstruksiya yoki jismning tuzilishi asosida uning elementlari va qismlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tushuniladi. Ushbu tushuncha barcha jismlarga — tabiat va inson qo'li bilan yaratilgan jismlarga taalluqli. Jism konstruksiyasini tushunish ijodkorga asarni ongli ravishda va hajmdor tarzda ishlash imkonini beradi. Bunday usulda izlanish borasida qadimgi rassomlar ko'plab nazariy va amaliy maslahatlar qoldirishgan. Jumladan, 21, 22, 23, 24 va 25-rasmarda rus rassomi A.P. Sapojnikov hamda buyuk nemis rassomi Albrext Dyurerlarning inson tasvirini chizishda chiziqli konstruksiyadan qay darajada




21-rasm.

foydalanganlarini ko'rishimiz mumkin. Bu usulda ishlash shaklining qanday murakkab bo'lishidan qat'iy nazar, uni uch o'lchamli qilib realistik tarzda tasvirlash imkonini beradi.


Ko'zga ko'ringan barcha narsalarni (kontur, chiziqlar, bo'laklar, och va to'q rangli dog'lar va h.k.ni) mexanik tarzda ko'chirib chizish



22-rasm.




23-rasm.



24-rasm.

asl tasvirni hosil qilmaydi. Shaklni tasvirlay turib, uning konstruksiyasini his etish kerak. Jism konstruksiyasiga asoslangan asl shaklni izlash, naturadan rasm chizishning tahliliy uslubini egal-lash uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Rasmdagi ushbu konstruksiya oddiy tarx ko‘rinishidan murakkab ko‘rinishga o‘tib boradi.



25-rasm.

Ish avvalida chizilayotgan rasmning shaklini to‘liq tushunish uchun, o‘sha jismning turli tomonlarini yaxhilab o‘rganib chiqish tavsiya etiladi. Masalan, insonni old tarafidan chizilganda, uni yon va orqa tarafidan ham kuzatish kerak. Shaklni turli tarafdan ko‘rib chiqilganidan so‘ng, uni ma’lum nuqtadagi ko‘rinishini chizish lozim. Har qanday jism, u qanchalik murakkab bo‘lmisin, qog‘oz yuzasiga joylashtiriladi. So‘ngra, belgilangan shakl to‘g‘riligiga ishonch hosil qilingach, jism nisbatlarini oydinlashtirish uchun dastlabki chizgilar chiziladi.

Shakl va konstruksiyani yuzaga chiqarishda rasm chizish texnik malakalarni to‘g‘ri egallaganlik, shtrix xarakteri va yo‘nalishi, yorug‘-soya tuslari haqqoniy bajarganlik katta o‘rin tutadi.

2.2. Chiziq va shtrixlar, ularning tasvirlar bajarishdagi ahamiyati

Tabiatda bizni o‘rab turgan barcha jismlar uch o‘lchamlidir. Lekin rassom uni ikki o‘lchamli qog‘ozda aks ettirishi kerak (balandligi va kengligi). Ikki o‘lchamli yuzada uch o‘lchamli jismlarni bo‘rttirib, hajmdor qilib bajara olish tasviriy san‘at, xususan, qalamtasvirning asosi hisoblanadi. Naturadan tasvirlashning dastlabki bosqichida rassom ma’lum bir yordamchi chiziqlar chizadi. Ushbu chiziqlar aniq bo‘lishiga qaramay shartlidir, chunki

tabiatda chiziqlar mavjud bo‘lmay, ular faqat jismlarning biron-bir yuzasi chegaralarini anglatish uchungina qo‘llanadi. Shu sababli, chiziqli tasvirlar doimo ma’lum miqdorda shartli bo‘lib, birgina chiziq bilan uch o‘lchamli jism tasvirini haqqoniy tarzda bo‘rttirib, hajmdor qilib ifodalash mumkin emas. Chiziqnинг ma’lum bir mashqdagи o‘rnи ahamiyatli bo‘lishi mumkin, ammo bunday holda tomoshabin jism hajmini o‘zicha tasavvur qiladi.

Chiziq rasm chizishda asosiy tasvir vositasi bo‘lib, uning xarakteri rassom uchun ma’lum ish quroli yoki vosita vazifasini o‘taydi. Rassomning u yoki bu vazifani haqqoniy bajarishi — chiziqlarni qaysi uslub va qog‘oz sirtida qanday bosimda yurgizib hosil qilishiga bog‘liq.

Rasmdagi chiziq erkin va turli xil bo‘lishi: *ba’zan kuchli, birlamchi va qora, ba’zan yengil, biroz bilinar-bilinmas bo‘lishi mumkin*. Qattiq bosib hosil qilingan chiziq ko‘proq buyumning soya qismlarini to‘q tusga kiritish ma’lum bosqich bo‘lib xizmat qiladi. Bunday chiziqlar fazodagi shaklni perspektivaga asosan qisqarib ko‘rinishida, ya’ni masofadagi jism tasvirini ifodalash uchun qo‘llanilmaydi. Bunday chiziqlarni dekorativ tasvirlar bajarishda ishlatish mumkin.

Yengil tusga ega chiziqlar (qattiq bosmasdan chizilgan chiziq) har bir vazifaning dastlabki bosqichi uchun xarakterlidir. U tasvirni qog‘oz sirtida umumiyoj yojlashtirish va buyumlarning kompozitsiya jihatdan o‘rnini aniqlashda, umumiyoj konturni belgilashda hamda nisbatlarni ko‘rsatishda yordamchi chiziq vazifasini o‘taydi.

Yosh rassom o‘z mahoratini shakllantirishi va tasviriy san’atdagi texnik harakatlarini rivojlantirishi va ko‘z bilan chamalash qobiliyatlarini o‘stirishi uchun bir qator mashqlarni bajarishi lozim: turli chiziqlar orqali buyum shakllarini alohida chizish, shaklga hajm berishda shtrixlar orasidagi oraliqlarning bir xilligiga erishish va shu kabilar. To‘g‘ri chiziqlarni qo‘lni uzmasdan (shaklning boshidan oxirigacha butun holda) chizish talab etiladi, egri chiziqlarni esa (sferik hajmlarda), yarim yoy, siniq chiziqlar orqali chizish maqsadga muvofiqdir. Tasvirdagi ba’zi bir tuzatishlarni imkonli boricha o‘chirg‘ich ishlatmasdan amalga oshirish kerak. Garchi, tasvir to‘g‘ri chizilgan bo‘lib, agar u faqat bir xil qalillikdagi chiziqlardan iborat bo‘lsa, albatta, quruq qalamga aylanib qoladi va unga qanchalik darajada hajm mukammal bo‘lishiga

qaramasdan, tomoshabinda yoqimsiz taassurot qoldiradi. Chunki buyum shaklning atrofi quruq konturlardan iborat bo‘ladi.

Bu haqda o‘tmishda yashab ijod etgan buyuk rassomlar o‘z fikrlarini shunday bayon etganlar: «Shuni yodda tutingki, shaklda chiziq yo‘q, ammo hajm mavjud, rasm chizayotganingizda konturni emas, relyef haqida o‘ylang. Chunki relyef konturni boshqaradi».

Tasviriy san’at, xususan, qalamtasvir ham musiqa kabi o‘z ohanglariga ega. Haqiqiy maqomchi yoki sozanda, ijro davomida qo‘shiqning alohida joylariga ovoz va kuyni balandlatib yoxud pastlatib urg‘u bergani kabi, tasviriy san’atda ham rassom naturaga qo‘yilgan shakllarning asosiy joylariga ko‘proq e’tibor bergen holda bo‘ttirib ko‘rsatishi va aksincha, ikkinchi darajali qismlarini bilinarbilinmas qilib tasvirlashi kerak. Shundagina asar haqqoniy chiqadi va tomoshabin qalbidan joy oladi. Aytish mumkinki, tasvirdagi chiziqlar ham ohangdor bo‘lishi lozim: ba’zan ular bassli tor kabi qalin va kuchli, ba’zan esa, ingichka ritmda, ammo baland jaranglashi mumkin.

Shaklning kenglikdagi harakatini ifodalashda, chiziq ijodiy mohiyatining rassom chizayotgan rasmdagi ko‘rinishi alohida musiqiy va ta’sirli mazmun aks ettiradi. O‘tmishda yashab ijod etgan Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Albrext Dyurer, Mikelandjelo Buanorotti kabi mashhur rassomlar tomonidan ishlangan asarlar buning isbotidir. Ularni o‘rganish davomida turli xarakterdagi chiziqlarni ko‘rshimiz mumkin. Ular ba’zan siyraklashib, ba’zan quyuqlashib, kengayib boradi.

Ushbu rassomlar qalamni turli holatlarda, bosimda va burchakda ushlab, ingichka keng chiziqlarni hosil qilishgan. Ingichka, zo‘rg‘a ko‘zga ilinadigan chiziqlar shakl atrofida, yorug‘-soya chegaralarida bo‘ladi va jismga yorug‘lik tushayotganligini bildiradi. Qalin, to‘q chiziqlar esa, shaklning soya tushgan yuzasini ko‘rsatadi. Turli xarakterdagi chiziqlar chizilayotgan buyumning hajmi, unga tushayotgan yorug‘lik miqdori va uning joylashgan o‘rnini ifodalash hamda plastik xususiyatlarini tezda hal etish imkonini beradi.

Chiziq xarakteri ma’lum miqdorda material va ish quroliga — qog‘oz yuzasi va zichligiga, grafitning qattiqligiga ham bog‘liq. Qalam, ko‘mir, sangina yengil va nafis chiziq hosil qiladi; pero, flomaster, mo‘yqalam — nisbatan to‘q, dag‘al chiziqlar chizishda ishlatiladi. Agar oppoq tus kerak bo‘lsa, yumshoq o‘chirg‘ichni


mahkam ushlab, u tez-tez harakat bilan yurgiziladi. Ochroq tus hosil qilish uchun o'chirg'ich yordamida ortiqcha grafitni o'chirib tashlash kifoya qiladi. Tusli rasmlarda shtrixning qalinligi va xarakteri jismning u yoki bu qismini tasvirlash darajasiga ko'ra, turlicha bo'lishi mumkin. Qalamga beriladigan bosim shtrix xarakterini belgilaydi.

Shtrix — bu nisbatan qisqa chiziqlar. Bir joyda ko'p, ikkinchi joyda kam bo'lishi bilan, ular rasmda turli tus hosil qiladi. Qismlarga turli miqdorda shtrixlar chizish tasvirlanayotgan jismning hajmi va shaklini ko'rsatib berish imkonini beradi.

Tekis qatlam bir xil oraliq va tondagi shtrixlar yordamida, masalan, kvadrat diagonali bo'yicha hosil qilinadi. Yanada to'qroq tusga erishish uchun birinchi qatlam ustidan boshqa yo'nalishda ikkinchisi qoplanadi. Och tusdan to'qiga va to'q tusdan ochiga yengil o'tish uchun quyidagi ikki usuldan foydalanish mumkin: turli xil tus chegaralariga soya tushirish yoki bo'lmasa, qalam bosimi va shtrixlar oraliq'ini doimiy ravishda o'zgartirish orqali.

Shtrix ishslash xarakteri jism shakli bilan monand bo'lishi, bu, nafaqat, shakl hajmining rasmda to'g'ri ifodalanishi, balki jism tuzilishi haqqoniy chiqishiga imkon yaratadi. Har qanday noto'g'ri bajarilgan shtrix tasvirning soxtaligi bilan ajralib turadi va uni buzadi. 26-rasmda shakllarga berilgan shtrixlarning turlari ko'rsatilgan (*a*, *b*, *d*, *e*). Shtrixlar o'z shakliga ko'ra, sferik; shakllarda spiral; to'rtburchak yuzalarda esa, shakl bo'yicha to'g'ri ko'rinishida bo'lishi kerak.

Bir rasmlarning o'zida shtrixlarning ikki yo'nalishi ko'rsatilishi mumkin. Yoysimon yo'nalishli shtrixlarni ba'zi shakllarga nis-



26-rasm.

batan, masalan, shar chizishda ishlatish maqsadga muvofiq. Tekis yuzalarni (qirrali jismlarni) tasvirlash uchun to‘g‘ri chiziqli shtrixlar qo‘llanadi. Egri yuzalarga — egri chiziqli — yarim doira shaklidagi shtrixlar mos keladi.

Shtrixlarni tanlashda jismlarning tasvirlanayotgan kenglikdagi nisbiy joylashuvi hisobga olinadi: shtrixlarning bir-biriga yaqin joylashuvi to‘q tus ko‘rinish beradi; uncha katta bo‘lmagan oraliqdagi qalin shtrixlar ular orasidagi farqlarni oshiradi va birinchi holatdan farqli o‘laroq, shtrixlangan joyni oldingi o‘ringa olib chiqadi; shtrixlarning oralig‘ini qat’iy saqlagan holda ularni yanada qalinlashtirish — buyumning tus jihatidan oshishiga va shtrixlarning ta’sir kuchi ko‘payishiga olib keladi.

Biron-bir rasm ishlanganda, jismning rassomga nisbatan qanday holatda joylashganini hisobga olish bilan birga, uning rangi, tushayotgan yorug‘lik miqdori, kenglikdagi perspektiv ko‘rinishi hamda fakturasi ham hisobga olinishi kerak. Kuchli tuslardan iborat shtrixlar tasvirdagi ma’lum bir qismlarni oldingi o‘ringa olib chiqishda ishlatiladi. Oldingi qatordagi jismlar yorqin, to‘q tusli, keskin shtrixlardan iborat bo‘lishi lozim. Katta yuzalarni jismga yorug‘lik tushishiga qarab, shtrix chiziqlar ko‘ndalang bo‘lishi tavsiya etiladi. Tus berilgan rasmlarda shtrixlarning qalinligi va xarakteri u yoki bu yuzaning ko‘rinish darajasiga qarab turlicha bo‘lishi mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, ortiqcha qalinlikdagi, siyrak (oraliq masofasi kichik bo‘lgan), katta burchaklarni kesib o‘tuvchi va shakl hajmiga nisbatan teskari berilgan shtrixlar rasmga xunuk, «sim-to‘r» ko‘rinish beradi va jismning tasvirini buzadi.

2.3. Tasviriy san’atda buyum shakllarining o‘zaro nisbatlari

Tasviriy san’at, xususan, qalamtasvir bajarishda jism shaklini anglashga, tanishga ko‘maklashuvchi yana bir xarakterli jihat, bu — uning nisbatlari. Jismlar shakl jihatdan balandligi va kengligiga ega.

Tasvir bajarishda nisbat — jism qismlari o‘lchamlarini bir-biri va butun jism bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi. Har bir jism yoki obyekt o‘ziga xos ma’lum nisbatlarga ega. Nisbat munosabatlarini his qilish rasm chizish jarayonidagi eng asosiy va zaruriy jihatlardan biridir. Jism nisbatlari qanchalik to‘g‘ri aniqlansa, uning tasviri shunchalik haqiqatga yaqin bo‘ladi. Nisbatlar buzilganida, tasvir ham sun‘iy chiqadi va haqiqatdan yiroq bo‘ladi.

Barcha murakkab shakllar har xil nuqtada turlicha idrok etiladi. Ammo bundan qat’iy nazar, har bir shakl idrok etilishi va tabiatda ega bo’lgan xarakteri va nisbatlarini o’zida mujassamlashtirishi kerak. Agar qismlarning o’zaro munosabati mashg’ulot davomida chizilgan rasmlarda noto‘g’ri ifodalangan bo’lsa, to‘g’ri perspektiv tuzilish ham, ajoyib yorug’lik foni va rang ham tasvirni tabiiy qila olmaydi.

Rasmdagi jism nisbatini to‘g’ri aniqlash rassomning ko‘z bilan chamalash mahoratiga bog‘liq. Jismlar bir tizim va tarzda chizilganda, chamalash qobiliyati muntazam rivojlanib boradi. Shuning uchun o‘quvchi shakllar nisbatlarini aniqlashda ko‘proq chamalash orqali buyum va shakllarni o‘zlashtirishi lozim. Bir guruh jismlar chizilganda, yanada qiyinroq vazifa — bir guruh jismlar nisbatlarini aniqlash vazifasi yuzaga keladi. Bunday hollarda ko‘z bilan jismlar va ularning qismlari kattaligini solishtirishning umumiy usulidan foydalilaniladi. Odatda, o‘lchov birligi sifatida ushbu tasvirlanayotgan guruhlarga mansub bir jismning kattaligini olish mumkin.

2.4. Tasviriy san’atda yorug’-soya munosabatlari

Biz atrofimizdagи jismlar shaklini ularga qay darajada yorug’lik tushgani uchun ko‘ramiz. Jismning shakli, xarakteri va materialga yaqinligi, yorug’likning unda aks etishi ham turlicha bo‘ladi. Har qanday hajmli jism tekis yoki egri yuzaga ega bo‘ladi va yorug’lik tushganida, ularning ko‘rinishlari o‘zgaradi: yorug’lik nurlari jismning turli yuzalariga tushib, ularni notejis yoritadi. Yuzaning ba’zi qismlariga ko‘proq, ba’zilariga esa, kam yorug’lik tushadi. Yuzaga tushuvchi yorug’lik miqdori, eng avvalo, yorug’lik manbayi va jism oralig‘idagi masofaga va jism manbaga nisbatan qay darajada joylashganligiga bog‘liq. Yuzaning yoritilganlik darajasi yorug’lik yuzaga qanday burchak ostida tushishiga ham bog‘liq. Yuzaga to‘g’ri burchak ostida, ya’ni perpendikular holatda yorug’lik tushganida, uning yorishish darajasi eng yuqori nuqtada bo‘ladi va buyumdagи ushbu nuqta eng yorug’ hisoblanadi.

Jism yuzasi yorug’lik manbayiga nisbatan qiyaroq burchakda joylashgan bo’lsa, yuzaning yoritilish darajasi kamroq bo‘ladi: bu yuzadan nurlar sirg‘alib ketgandek bo‘ladi. Tekis va yaltiroq yuza,

dag‘al yoki xira yuzaga nisbatan yorug‘likni o‘zida ko‘proq aks ettiradi. To‘q rangli yuzalar ko‘p miqdorda yorug‘likni yutib yuborib, oz miqdorda aks ettiradi.

Jismning yoritilganlik darajasini idrok etish jism rangiga, yorug‘lik tarqalish miqdoriga, kuzatuvchi va jism oralig‘idagi masofaga hamda tabiat hodisalariga (chang-to‘zon, havo bulutligi, tuman, shamol) va boshqa omillarga bog‘liq. Jismarning turli yuzalarida yorug‘likning taqsimlanishi ushbu barcha xususiyatlari tasviriy san’atda *yorug‘-soya munosabatlari*, deb yuritiladi. Yorug‘lik manbayi buyumdan uzoqlashgani sari, undagi yorug‘ yuzalar to‘qlashadi.

Qirrali yuzalarda yorug‘-soya o‘zgarishi aniq bo‘lsa, qiya yuzalarda esa, masalan, shar, silindr kabi yuzalarda yorug‘likdan soyaga o‘tish jarayoni sekin, noaniq yuz beradi va ularning ekvatori to‘qroq tusda bo‘ladi. Och rangli jismlarda to‘q rangli jismlarga nisbatan yorug‘lik soyasi aniqroq ko‘rinadi. Shuning uchun turli ko‘rinishdagi yorug‘-soya taqsimlanishi bo‘yicha qoidalar gips geometrik jismlarni chizish chog‘ida o‘zlashtiriladi. Shundan so‘ng, tuzilishi to‘g‘ri geometrik shakllarga yaqin bo‘lgan jismlar yoki turli tus va fakturaga ega bo‘lgan (metall, oyna, yog‘och, mato va h.k.), shakl jihatidan bir-biriga o‘xhash tabiiy jismlar chiziladi.


Jism rassomdan qanchalik olislashib, kenglik sari ketsa, yorug‘-soya kontrasti shunchalik xiralashadi va so‘nib boradi. Ushbu hodisa *fazoviy perspektiva*, deb nomланади. Fazo perspektivasi hodisasi va yorug‘-soya qonunini har qanday vaziyatda hisobga olish kerak. Masalan, boshni old tarafдан chizish chog‘ida burun va ko‘z chuqurligining hajmini ko‘rsatib berish uchun boshning boshqa qismlariga nisbatan kontrast vositalar (yorug‘lik soyasi, shtrixlar va h.k. kontrasti) qo‘llaniladi va har bir bo‘lak ustida ko‘proq ishlanadi. Shtrix yordamida hosil qilinadigan tus yorug‘-soya qonuniga — yorug‘likning jism tuzilishiga ko‘ra yuza bo‘ylab taqsimlanishi qonuniga bo‘ysunadi.

Yorug‘-soya qonuni rasmda shakl bilan birgalikda fazoni, tasvirdagi jismning joylashgan o‘rnini hamda tabiiylikni yanada to‘liqroq va ravshanroq tasvirlash imkonini beradi.

Rasmdagi jismning yorug‘lik tushgan qismi *yorug‘lik* deb, soyada joylashgan qismi esa, *soya*, deb yuritiladi. Yorug‘likdan soyaga o‘tish *nimsoya*, deb nomланади. *Shaxsiy soya*, shunday deb nomlash

mumkin bo'lsa, jismning yorug'lik manbayiga qaragan yuzasida hosil bo'ladi. Shaxsiy soyalarning, shuningdek, nisbatan yorug' qismlari — reflekslari, ya'ni shaxsiy soyani yorug'lik nurlarining bir qismi bilan yoritilishi holati ham bo'ladi. Jismdan yuzaga yoki boshqa jismga tushayotgan soya *tushuvchi soya*, deb nomlanadi.

Yaltiroq yuzaga ega jismlarning (oyna, metall va h.k.) yorug'lik tushgan tarafida *jilvani* (refleks) — jism yuzasidagi rassom ko'zini qamashtiruvchi, tushayotgan yorug'likning asosiy qismini aks etuvchi joyni payqash mumkin. Jilva, asosan, egri, botiq, yorug'-likni o'zida kuchli qaytarish xususiyatiga ega buyumlarda kuzatiladi. Jilva jism shakli va hajmini tasvirlashda katta ahamiyatga ega. Jilvaning o'rni, turi hamda o'lchamini to'g'ri tanlash jismning cheklangan tasviriy vositalar yordamida ishlangan siluetli suratida ham juda ahamiyatlari va u ushbu jismning shakli va hajmini ko'rsatib berishga xizmat qiladi. Aksincha, noto'g'ri chizilgan jilva, butun rasm to'g'ri ishlangan taqdirda ham, shaklni buzadi. 27-rasmda shar hajmiga shakl berish orqali uning yuzasidagi yorug' soya munosabatlarini ko'rshimiz mumkin: 1—yorug'lik; 2—yaltiroqlik; 3—yarim soya; 4—soya; 5—aks yorug'lik; 6—tushuvchi soya.



27-rasm.

Tasvirdagi jismning hajmligiga erishish uchun yorug' va soya tushuvchi yuzalarning kontrastini mohirlik bilan ishlash zarur. Buning uchun eng yorqin va eng to'q joylarni aniqlash kifoya qilmaydi, shu sababli shaklning hajmini shtrix yoki chiziq bilan belgilab chiqiladi.

Jism shaklining umumiy ko'rinishini tasvirlash vazifasining amaliy yechimi

— chiziqdan hajmga o‘tish jarayonini amalga oshirishdan iborat. Buning uchun avval jismning nisbati chiziqlar yordamida shartli ravishda belgilab olinadi, keyin jism yuzasidagi soya qismlarining hajmi shtrixlash yo‘li bilan hosil qilinadi. Rassom oldida yorug‘ va soya yuzalarga ega bo‘lgan jism turganligi uchun, uni tasvirlashda faqat chiziqlardan foydalanish, jismning yorug‘ va soya qismlari bilan chalg‘ib, xato qilishga olib kelishi mumkin. Bunday hollarda tasvirlanayotgan jismning asosiy nisbatlari va hajmini aniqlash, shuningdek, asosiy nisbatlarini belgilab, darhol uning hajmini hosil qilish va kichik detallariga ishlov berish maqsadga muvofiq sanaladi. Shuning uchun asosiy qismlarni belgilab olib, nisbatlarni tekshirish uchun darhol umumiy yorug‘lik va asosiy soyalarini o‘rganib chiqish kerak. Har doim rasmni yaxlitligicha chizish kerak bo‘ladi. Vazifani tasvirlash muntazam ravishda bo‘laklarga ham to‘xtalib turish lozim.

Rasm chizish texnikasida shunday xayoliy (tabiatda mavjud bo‘lmagan — illuziya) shakllar borki, ular jism o‘lchamini idrok etishga ta’sir ko‘rsatadi. Bir xil maydonga ega qora-oq va oq-qora to‘rt burchaklar tomoshabindan bir xil uzoqlikda joylashtirilgan bo‘lsa-da, ularning kattaligi har xilga o‘xshaydi (oq to‘rt burchak kattaroq ko‘rinadi). Shuning uchun chiziqli, shtrixlanmagan tasvir rangli yuzaga nisbatan yirik tuyuladi. Ba’zan nisbatni qanday idrok etishga shtrixlarning yo‘nalishi ham ta’sir ko‘rsatadi. Tekis shakl — kvadratga — eng yaxshisi uning chegaralarini davom ettirmaydigan qiya shtrixlar; kvadrat shaklga nisbatan vertikal yoki gorizontal shtrixlarning ishlatalishi shakl o‘lchamini qisqartirgandek tuyuladi. Ingichka, uzun qirralarga nisbatan (masalan, stolning yon tarafi) ko‘ndalang shtrixlar qo‘llash yaxshi natija beradi.

Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, rassomlar o‘zлари istaganlaricha ko‘plab texnik uslublardan foydalanishgani bois, ularni hammaga va har bir rasm chizuvchiga tavsiya qilish mumkin emas. Rasm chizishda asosiy narsa, bu — natija va har bir rassomning o‘ziga xos ishslash texnik jihatlari uning ishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Shakllarda tus munosabatlari. Jismning ustki qismi rangi, unga tushayotgan yorug‘lik miqdori, rassom ko‘z nuriga nisbatan burilish burchagi va masofasi (yorishganlik va rang bilan to‘yinganlik darajasiga ko‘ra, turlicha bo‘lgan) naturaning joylashgan o‘rnini belgilab beradi.

Jismning yoritilgan yuzasidan soyadagi yuzasini ajratish va uni rasmida tasvirlash faqatgina ton orqali amalga oshirilishi mumkin. Rasmdagi ton, bu — har xil bosimda tushirilgan axromatik rang (kulrang), u tarkibiy yuzalarning yorqinligini ifodalash uchun ishlataladi.

Tabiatda kuzatiladigan ton munosabatlarni mutlaq aniqlikda rasmga o'tkazish mumkin emas. Chunki, rassomchilik materiallari (qog'oz, qalam, ko'mir va h.k.) soyaning eng to'q, masalan, baxmalga o'xhash qismini yoki yaraqlab turgan jilvani borligicha tasvirlash imkonini bermaydi. Bunga intilish ham kerak emas. Realistik rasmlarda tasvirning tabiatga proporsional alohida qismlari tuslarining xilma-xilligiga e'tibor berish muhim hisoblanadi. Shu yo'sinda har bir rasm o'zining tus masshtabiga ega bo'ladi (eng och tusdan — qog'oz yuzasi, eng to'q tusgacha — qalam). Rasm-lardagi boshqa barcha oraliq nuqtadagi yorug'lik tuslari, nimsoya, shaxsiy soya va tushuvchi soya, jismning shaxsiy soyasi bilan solishtiriladi. Agar rasmdagi barcha soya joylashuvlari, uning tusidan qat'iy nazar, to'g'ri deb topilsa, u orqali tabiiy jismni ko'rishimiz va jism qanday materialdan tayyorlanganligi haqida tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin.

To'g'ri tanlangan tus munosabatlari rasmdagi jism tasviriga tabiiylik va haqqoniyligini baxsh etadi. Bitta rangda ishlangan suratlar g'oyibona tarzda, nafaqat, jism shakli va yoritilgan yuzalarining farqini, balki jism materiali, fakturasi xususiyatini ham (turli uslublar yordamda) tasvirlash imkonini yaratadi: oyna yoki metallning yaltiroq yuzasi, gipsning xira yuzasi, tana terisi, matolarning mayinligini va h.k. ochib beradi.

Tasviriy san'atda taqqoslash usuli. Tabiiy jism tasviri ishlanganida, birinchi navbatda shakl nisbatlarini to'g'ri belgilash hamda ularning ton munosabatlarni tasvir masshtabida, ishlatalayotgan material (qalam, ko'mir va h.k.) imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, tasvirlash kerak. Shunda jism yoki obyektning haqqoniyligi, tabiiy tasviri hosil bo'ladi.

Tasviriy san'at qoidalarga asoslanib, texnik uslublar va tasvir vositalarini to'g'ri qo'llab rasm chizayotganida, rassom shaklni tekis yuzada haqqoniyligi tasvirlash bo'yicha bir qator qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bunda jismni xarakterlovchi o'ziga xos

xususiyatlarini aniqlash va tasvirlash zarur. Bu jarayon jismning tarkibiy qismlarini bir-biri bilan shakli, o'lchami, nisbatlari, yuzaga tushayotgan yorug'lik miqdori va tusini solishtirish orqali amalga oshiriladi.

Dastlabki bosqichda rassomning ko'zi jismga unchalik yaxshi o'rghanmagan bo'ladi va jism nisbatlarini aniqlashda qiyinchiliklar tug'iladi. Bunday hollarda solishtirib kuzatish uslubidan — rassom biron-bir jismning o'lchamidan boshqa jismlarning o'lchamini belgilashda o'lchov vositasi sifatida foydalanishi mumkin. Bunday shartli o'lchov birligi bilan o'lhash, ko'z yordamida amalga oshiriladi.

Rasm tayyor bo'lganidan so'ng, uning qanchalik sifatli chiqqanligini tekshirish uchun quyidagi uslublardan foydalanish mumkin. Chiziqlarning og'ish burchaklarini aniqlash uchun ish joyidan uzoqlashmasdan, qalamni gorizontal yoki vertikal holatda ushlab, qo'lni oldinga uzatib tekshiriladi. Gorizontal yoki vertikal holatdagi qalam orqali kuzatilganda, naturadagi qaysi bir nuqta past yoki yuqorida, o'ng yoki chapda joylashganligini ko'rish mumkin.

Solishtirma kuzatish uslubi rasm chizishni endi o'rghanayotganlar uchun mo'ljallangan. Keyinchalik naturadan rasm chizilib, ko'z bilan chamalash qobiliyati rivojlanganida, ushbu uslubdan voz kechiladi. Ko'z bilan o'lhash yoki chamalash mahoratiga jismlarning nisbatini muntazam ko'z yordamida hech qanday o'lchov asboblarisiz aniqlash orqali erishiladi.

Rasmdagi jism shakli, yorug'lik va tus munosabatlari ustida ishlanganida, ish so'nggida asl jism va rasmni taqqoslash uchun yorug'lik va tus asosida ham solishtiruv o'tkaziladi. Naturadagi jism rasmini chizish vaqtida, uning tub mohiyatini, tuzilishini bilish, jismning yoritilganlik darajasi va kenglikdagi joylashuvini uzliksiz tahlil qilib borish muhim ahamiyatga ega.

Naturadagi jismlarni bir vaqtning o'zida bir-biri bilan solishtirish uchun ularning rassomga aniq ko'rinish turuvchi o'xshashlik va farqli tomonlarini, yorug'ligi va rangini chizgilarda belgilab olish lozim. Shuningdek, jismlarga umumiy mashtabda qarash kerak. Umumiy mashtabda qarash, bu — asosan, jismga qisqa umumiy nigoh tashlash; bunday qaralganda ko'rinishayotgan naturaning

yorug‘lik nuri va rang munosabatlari rassomda taassurot qoldiradi (perspektiv o‘zgarishlar asosida). Ushbu uslubning ma’nosi shuki, qarash jarayonida ko‘zning aniq ko‘rish maydonida boshqa jismlarga e’tibor qaratmay, naturani to‘r pardaning periferiyasi yordamida barcha jismlarni bir vaqtning o‘zida bir xil ko‘rishdan iborat. Nigohda barcha jismlar noaniq, xira ko‘rinishga ega bo‘ladi, ammo bunday umumiy qabul qilish jarayonida tus munosabatlarini to‘g‘ri aniqlash mumkin. Bunday qarash uslubidan, odatda, rassom tusli rasm chizishni tugallash vaqtida ko‘p marotaba va uzlusiz foydalanadi.

Natura bilan chizilayotgan rasmga qisqa vaqtlidagi tez-tez qarash uslubidan tashqari naturani hamda tasvirni qisiq ko‘zlar yordamida ham kuzatish mumkin. Bu uslub ham, asosan, tasvirning tus munosabatlarini aniqlashda qo‘l keladi.



NAZORAT SAVOLLARI

1. O‘quv va ijodiy qalamtasvir ishlashning bir-biridan farqi nimada?
2. «Shaklning konstruktiv asosi» deganda, nimani tushunasiz?
3. Shaxsiy soya bilan tushuvchi soyaning farg‘i nimada?
4. Yorug‘, soya, yarimsoya, yaltiroqlik, reflekslar va ularning bir-biridan farqi nimada?
5. «Oddiy va murakkab shakllar», deganda nimani tushunasiz?
6. Shakl qurishda yordamchi chiziqlarning ahamiyati to‘g‘risida fikr bildirib, misollar keltiring.
7. Turli shakllarning perspektiv qisqarishiga misollar keltiring.
8. «Buyum nisbatlari», deganda nimalarni tushunasiz?
9. Ufq chizig‘i nima?
10. Surat tekisligi nima?
11. «Kartina tekisligi», deganda nimani tushunasiz?
12. Tutash nuqtasiga misol keltiring.
13. Buyum tekisligini tushuntirib bering.
14. Chiziqli va havo perspektivasi qonuniyatlarini bayon eting.

3-bob. ALOHIDA GEOMETRIK SHAKLLAR VA JISMLARNI ASLIGA QARAB TASVIRLASH

3.1. Umumiy metodik tavsiyalar

Tekislikda uch o‘lchamli jism yoki jismlar guruhini tasvirlash jarayonida, ularni qismlarga ajratib, alohida chizish mumkin emas. Ushbu usul malakasiz, yosh rassomga xos. Bunday qoida bo‘yicha ishlansa, tasvirdagi jism alohida turli mashtabdagi qismlardan iborat bo‘lib qoladi va ular bir-birlari bilan hech qachon bog‘-lanmaydi. Natijada, tasvir naturaga o‘xshamaydi. Rasm chizish ketma-ketligiga rioya etilmagan hollarda rassomning e’tibori bir joyga jamlanmaydi, maqsadga intilish hissi sustlashadi va passiv, ko‘chirish holatiga o‘tib qoladi. Shuning uchun bexato rasm chizish uchun asosiy uslubiy qoidalarga rioya etish kerak.


Naturadan rasm chizish uchun obyektlar ketma-ketligi to‘g‘ri tanlanishi (osondan qiyinda o‘tish tamoyilidan foydalanib) hamda o‘quv maqsadiga javob berishi lozim. Shuningdek, rasm chizishni oddiy shakl va jismlardan, osondan qiyinda o‘tib borish tartibida boshlash kerak. O‘quv yurti qalamtasvir bosqichining yakuniy maqsadi — oddiy natyurmortlarini tasvirlashdan boshlab, to inson tanasining turli holatdagi ko‘rinishini, avvalo, naturadan, so‘ngra esa, xotira va tasavvurdan chiza olish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Rasm chizish mashg‘ulotlari tizimida alohida geometrik shakllar tasvirini chizish muhim o‘rin tutadi. Bosqich boshlanishida o‘quv-ko‘rgazma quroli sifatida oq gips shakllardan foydalaniladi.

To‘g‘ri geometrik shakllarni (kub, prizma, piramida, silindr, shar va boshq.) chizish chog‘ida yosh rassom naturani idrok etish qonun-qoidalalarini tezroq o‘zlashtiradi, rasmning perspektiv qonun-qoidalalarini to‘liq egallaydi hamda perspektiv qisqarishlar va nisbatlarni (ham naturani, ham rasmni kuzatganda) aniqlashda ko‘z bilan chandalash qobiliyatini rivojlantiradi. Oddiy geometrik shakllarni chizish yanada murakkabroq tabiiy jism tasvirini chizishda zarur bo‘ladigan bilim va malakani egallahda muhim hisoblanadi.


Buning uchun ushbu geometrik shakllarni turli ko‘rinish va holatlarda chiziqli konstruktiv ravishda tasvirlay olish, keyinchalik qiyinroq shakllar tasvirini bemalol chiza olish imkonini beradi (28, 29, 30-rasmlar).



28-rasm.



29-rasm.



30-rasm.

O‘quv rasmini chizish vazifalarining asosiy maqsadi — jismning perspektiv ko‘rinishini yassi yuzada hajmli qilib ifodalash. Shuning uchun o‘quv topshirig‘ini bajarishdan oldin, pedagog yosh rassomlarga jismning perspektiv tasviri qoidasini tushuntiradi. Chiziqli perspektiva qoidalari istalgan hajmli shaklni turli rakurs yoki qisqarishda ifodalash imkonini beradi. Bu qoidalalar quyida-gilardan iborat:

1. Jism kuzatuvchidan qanchalik uzoqlashsa, u shunchalik kichik bo‘lib ko‘rinadi.
2. Naturaning tasvir parallel chiziqlari shartli ufq chizig‘idagi ma’lum bir nuqtada birlashadi.
3. Rasm chizuvchi uchun ufq chizig‘i uning ko‘z nuri darajasida joylashadi. Siljimaydigan jismni biror holatda (o‘tirib, turib, stulda yoki past o‘rindiqda o‘tirib) chizganda, ufq chizig‘i ko‘tariladi yoki pasayadi.
4. Ufq chizig‘idan pastda joylashgan gorizontal chiziqlar olis-lashgani sari ufq chizig‘i tomon ko‘tarilib boruvchi, yuqorida joylashganlari esa, pasayib boruvchi bo‘lib ko‘rinadi.
5. Vertikal chiziqlar va rasm yuzasi bilan parallel chiziqlar (qog‘ozning vertikal va gorizontal chekkalariga mos kelsa) tasvirlash chog‘ida yo‘nalishini o‘zgartirmaydi.
6. Ufq chizig‘i va birlashish chizig‘i, odatda, tasvirlanayotgan qog‘ozdan tashqarida joylashadi. Shuning uchun u chizilmaydi va faqatgina rasm chizish davomida bor, deb tasavvur qilinadi.
7. Qirrali jismning yon qirrasi qanchalik yaxshi ko‘rinsa, uning og‘ish burchagi shunchalik kichik bo‘ladi va aksincha, perspektiv tasvirda qirra qanchalik qisqargan bo‘lib ko‘rinsa, uzoqlashayotgan qirraning og‘ish burchagi shunchalik katta bo‘ladi.

O‘quvchi rasmni qalam yordamida ishlash qoidalari ni mukammal bilishi lozim. Masalan, jismning old tarafi tasvirini chizish uchun qalam qattiqroq bosiladi; ikkinchi darajali jismlar alohida ajralib turmaydi, shuning uchun ular nisbatan yumshoqroq bosimda ishlanishi kerak; uchinchi darajali (eng olisdagi) jismlarni tasvirlash uchun yengil shtrix va chiziqlardan foydalilaniladi. Agar o‘quvchi ushbu qoidalarni hisobga olmay, barcha chiziqlarni bir xil qalinlikda chizsa, jismning kenglikdagi tasviri haqqoniy hosil bo‘lmaydi. Barcha sozandalarda bo‘lgani kabi, rassomlarda qo‘l bilan harakat qilish mahoratini shakllantirish muhim hisoblanadi.

Rassomchilik bo'yicha dastlabki mashg'ulotlar uzun chiziqlarni qo'lni uzmasdan chizish bo'yicha o'tkazilishi kerak. Agar chiziq egri, notekis chiqsa, kerakli talabga javob beruvchi chiziq hosil bo'lgunicha qayta-qayta chizish tavsya etiladi. Qisqa yoki uzuq chiziqlar bilan ishslash mumkin emas.

Mashg'ulotlar davomida egallagan bilim va malakalar uy vazifalarining bajarilishi davomida mustahkamlanadi. Chunki uy vazifalari auditoriyadagi mashg'ulotlarning davomidir. Uyda ishslash o'quvchida mustaqil fikrlash, shaxsiy qarorni qabul qilish imkonini beradi. Rassom mustaqil ish olib borishi davomida ijodiy qobiliyatlarini shakllantiradi. Uy vazifalarini tekshirish chog'ida pedagog qiziqarli rasmlarni namoyish etadi. Bu o'z navbatida rasm muallifi va guruhdagi barcha o'quvchilarga ruhiy madad bo'ladi.

Jismning hajmli tasvirini chiza turib, avvalo, uning konstruktur-siyasini o'rganish va rasmning perspektiv tuzilishini tahlil etish kerak. Chizish davomida o'quvchi ikki o'lchamli tekis yuzani emas, balki kenglikni ko'rishi va undagi jismlar joylashuvi hamda o'lchamini perspektiva qoidalari asosida tasvirlay olishi muhimdir. Ish jarayonida jismlar haqidagi bilim va ularning ko'rinishini yodda tutishimiz kerak.

3.2. Geometrik shakllarni o'ziga qarab tasvirlash

Kub rasmini chizish. Gorizontdan pastda joylashgan hamda (perspektiv o'zgarishlar natijasida) o'ng va chap chekkalari kengligi bir xil bo'lмаган куб rasmini chizishni ko'rib chiqamiz.

Kub misolida perspektiva qoidalarga bo'ysunuvchi holatni tasvirlash ancha yengil hisoblanadi, chunki uning har bir tarafı teng. Har qanday jismni chizishdan oldin, uning tuzilishi va masofadagi ko'rinishini sinchiklab tekshirib chiqish lozim. Mazkur holatda kubning ko'rini turuvchi chegaralari va qirralari nisbatini ko'rib chiqish, tushunib yetish, qaysi vertikal chegara ko'proq va qaysi biri kamroq ochiq ekanligini aniqlash muhimdir.

Kub chegaralarining konstruktiv tuzilishi — uning butun shakli haqida tasavvurni bera oladi. Shuning uchun chizishni ulardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Kubning tarkibiy yuzalarini yaqin masofadan chizishni eng yaqin vertikal qirradan boshlash kerak. Kub balandligi ichtiyor, ammo qog'oz shaklini e'tiborga olib belgilanadi.


Ushbu vertikal qirraning eng pastki va yuqori uchlari birlash-tirilib, gorizontal qirralar hosil qilinadi. Ufq chizig‘idan pastda joylashgan kubda pastki gorizontal qirralar burchagini yotiqligi yuqoridagilariga nisbatan kattaroq bo‘ladi. Gorizontal parallel qirralar gorizontning chap va o‘ng tomonidagi nuqtalarda birlashadi, ushbu holatda qog‘ozdan ancha tashqarida birlashadi. Shu narsa bilinib turishi lozimki, tabiatda parallel bo‘lgan qirralar rasmda gorizontning ma’lum bir nuqtasida tutashadi.

Pastki va yuqori gorizontal qirralarning yo‘nalishini aniqlab, kubning chap va o‘ng chegaralaridan ikki vertikal qirra o‘tkaziladi hamda shu yo‘sinda vertikal chegaraning ko‘rinib turuvchi qismi aniqlab olinadi. Bunda chegaralarning o‘zaro kenglik nisbati va oldingi vertikal qirraning balandligini kuzatib borish kerak. Kub-dagi gorizontal qirralarning yotiq burchaklarini to‘g‘ri chizish va ko‘rinib turuvchi chegara o‘lchamlarini kuzatib borish rasmning muvaffaqiyatlari chiqishini ta’minlaydi.

Eng oddiy geometrik shakllarni chizish vaqtida, tasvirlash mahoratini mukammal egallab, o‘sha shaklning, nafaqat, ko‘rinadigan tomonlarini, balki ko‘rinmaydigan tomonlarini ham chizish kerak. Agar shakl to‘laligicha idrok etilmasa, u holda ishlangan rasm haqiqatan olis bo‘ladi. Shu sababli ham, rasm o‘z xususiyatga ko‘ra, *chiziqli-konstruktiv*, deb nomlanadi va jismning umumiy tuzilishi, uning konstruktiv xususiyatlari chiziqlar orqali tushuniladi (xuddi shakl rentgen nurlari yordamida proyeksiya qilinganidek).

Ikki vertikal qirra o‘tkazib, kubning yuqori va pastki asoslari yasaladi. Barcha gorizontal qirralar (ular davom ettirilganda) ufq chizig‘idagi ma’lum bir nuqtada kesishishi lozim. Shuningdek, yuqori va pastki asoslarning kengligi (burilish burchagi)ni nazorat qilib borish muhim hisoblanadi. Rassom bir shaklni bir necha bor turli holatlarda chizganida (ufq chizig‘i va boshqa shartlarning o‘zgarishi nuqtayi nazaridan), u bir narsaga ishonch hosil qiladiki, agar shakl ufq chizig‘iga qanchalik yaqin bo‘lsa, u shunchalik yuza ko‘rinishda bo‘ladi, ufq chizig‘idan uzoqlashgani sari esa, nisbatan keng burchakli ko‘rinishga ega bo‘ladi. Bunda har bir holat uchun chegara nisbatlari, qirralar yotiqligi va ularning ufq chizig‘ida tutashishini aniqlash zarur hisoblanadi. Rassomning butun e’tibori kub chizgilariga emas, balki butun shaklga va uni hosil qiluvchi

yuzalarning perspektiv ko‘rinishiga qaratilgan bo‘lishi lozim. 31-rasmda kub shaklining besh bosqichi ko‘rsatilgan bo‘lib, unda kubni chekka chiziqlarini belgilab, kompozitsiya jihatidan qurishdan boshlab, to uni to‘g‘ri tasvirlash bosqichlarigacha tasvirlangan.



31-rasm.

Kub chizish tartibi birmuncha boshqacha bo‘lishi ham mumkin. Ma’lumki, uy qurish uchun, avvalo, mos yer maydoni tanlanadi va bo‘lajak uyning o‘lachamidan kelib chiqqan holda imorat qurish bo‘yicha reja tuziladi. Fundament yotqizilgandan so‘ng, pastdan yuqoriga qarab devor ko‘tariladi. So‘ngra navbat tom yopishga keladi. Rasm chizishda ham xuddi shunday: gorizontal yuzada turuvchi yoki yotuvchi har qanday geometrik shaklni chizishdan avval reja (asos) tayyorlanishi kerak. Ushbu holatda rasm chizish yuzasining pastki qismidan, to ufq chizig‘i tomon yaqinlashib boruvchi qismi, ya’ni qog‘ozning yuqori bo‘lagi maydon sifatida qabul qilinishi mumkin. Kvadrat kub yasash uchun reja bo‘lib xizmat qiladi. Bu yerda kvadrat asosda yotishi va perspektiv qisqarish qoidalariiga rioya qilishi shart.

Dastlabki chizgilar va jismning xomaki shakli qalam bilan yengil shtrixlar yordamida chiziladi. Chunki, noto‘g‘ri chizilgan chiziqlarni o‘chirg‘ich yordamida bir necha bor o‘chirilganida qog‘oz o‘z xususiyatini yo‘qotadi. Chizish doimo bizga eng yaqin bo‘lgan nuqtalardan — ushbu holatda kub asosidagi kvadrat burchagidan boshlanadi. Buning uchun, avvalo, burchaklar

yordamida kub asosi bo‘lgan kvadratning ikki tomoni yo‘nalishi aniqlanadi va chiziqlar gorizontda birlashish nuqtasiga yetgunicha davom ettililadi. Shundan so‘ng, ushbu tomonlarning to‘g‘ri o‘lchamlari kubning aniqlangan oldingi qirrasi balandligiga nisbatan belgilanadi va kvadratning eng yaqin burchagidan chiziq tortiladi. Chiziqlar birlashish nuqtasida kesishadi. Perspektiv chiziqlar qisqarib kesishganda, kub asosi hosil bo‘ladi.

Kub chizish jarayonining ikkinchi bosqichi quyidagi tartibda bo‘ladi. Kub asosi bo‘lgan kvadrat burchaklarining cho‘qqilaridan vertikal yo‘nalishda chiziqlar tortiladi va ushbu chiziqlar kubning bizga yaqin, oldingi qirrasining yuqori uchlarining birlashish nuqtalari bilan uchrashadi. Bunda boshqa qirralar ham kesishadi va kub hosil bo‘ladi.

Ufq chizig‘idan pastda joylashgan kubni chizish usulini o‘zlashtirgandan so‘ng, turli holatlardagi joylashtirilgan kublarni, gorizontdan pastda yoki yuqorida joylashgan kublarni chizish maqsadga muvofiq. Rasm chizishni tugallash uchun kub qirralariga qalinroq ton beriladi va yordamchi chiziqlardan faqatgina ufq chizig‘ida tutashganlari qoldiriladi. Qoldirilgan ushbu yordamchi chiziqlar rasm qanchalik to‘g‘ri chizilganligini tekshirish imkonini beradi.

Chizilayotgan kub qirralari qalamni nihoyatda mayinlik bilan yurgizish orqali hosll qilinadi. Chunki rassomdan uzoqroqda bo‘lgan jism uning ko‘z o‘ngidagi jismga nisbatan yumshoqroq, mayinroq ko‘rinishda bo‘lishi lozim. Ushbu usul rasmni yanada maftunkor va ta’sirli qiladi.


Rasmni ish joyining o‘zida tekshirilishi maqsadlidir. Buning uchun rasm chizilgan molbert asl jism yaqiniga joylashtiriladi. Natijada, rasmni naturadagi jism bilan solishtirish imkoni tug‘iladi. Tekshirish jarayonida jism va rasmga birin-ketin razm solinadi. Agar tasvirda xato borligi aniqlansa, o‘scha zahotiyoy qunga tuzatish kiritilishi lozim. Har qanday jismni tasvirlash uchun, avvalambor, uning kompozitsiyasi ustida ishlanadi. Oddiy geometrik shakllar ham bundan mustasno emas.

O‘quv rasmlarida jismlar asl kattaligiga nisbatan kichikroq o‘lchamda chiziladi. Qog‘ozda bir jism rasmini chiza turib, uni qog‘oz yuzasining geometrik markazidan, diagonallarning tutashish joyidan balandroqqa joylashtirilishi kerak. Rasm tashqariga chiqib ketmasligi uchun chap va o‘ng taraflardan kattaroq joy qoldiriladi.

Barcha murakkab va turli-tuman jismlarning naturadagi ko‘rinishini doimo oddiy geometrik shakllar asosida tasvirlash mumkin. Chiziqli-konstruktiv rasm chizish ketma-ketligi oddiy ko‘chirib olishdan farqli o‘larоq, ushbu qoidaga (geometrik shakllar asosida tasvirlash tamoyiliga) asoslanadi. Naturadan geometrik shakllarni chizishni kub, prizma va piramidaning sinch holatini chizishdan boshlash kerak.

Prizma shakliga ega kitob javoni rasmini chizish (32-rasm). Tabiatdagi barcha buyumlarning asosi geometrik shakllardan tashkil topganligi tufayli tabiiy model sifatida oddiy tulishga ega bo‘lgan shakl, masalan, kitob javoni olinadi. Uning shakli to‘rt tomonli va u prizmani eslatadi. Kitob javonini chizish davomida perspektiva qoidalariга rioya etiladi. Bunday rasm ustida ish olib borish jarayonida, rassom o‘z bilim doirasini kengaytiradi va o‘quv rasmlari bo‘yicha malakasini oshiradi.

Avvalo, rasmning qo‘zdagi joylashuv o‘rnini aniqlanadi va rasmni



32-rasm.

tasvirlash bo‘yicha dastlabki chizgilar chiziladi. Shundan so‘ng qog‘ozda usq chizig‘i chiziladi. Chizishni rassom o‘ziga eng yaqin bo‘lgan nuqtadan — javon asosi bo‘lgan kvadratning burchagidan boshlaydi. Buning uchun kvadrat (asos)ning eng yaqin ikki tomoni yo‘nalishlari ushbu tomonlarning usq bilan hosil qilgan burchaklari yordamida aniqlanadi va ushbu chiziqlarni birlashish nuqtasigacha davom ettiriladi.

Keyin esa, ushbu tomonlar o‘lchamlari javon old qirrasining pastki qismiga nisbatanani aniqlanadi. Ushbu qirra javon balandligining bir qismi va pastki kubning qirrasi hisoblanadi. Kublarning

gorizontal qirralarini davom ettiruvchi chiziqlar oralig‘i kublarning perspektiv balandligini ko‘rsatadi va ular gorizontning ma’lum bir nuqtasida birlashadi hamda javonning asosini belgilab beradi.

Gorizontal holatdagi asosning burchaklaridan vertikal chiziqlar o‘tkaziladi va ular javon balandligini tashkil etadi. So‘ngra rassomga yaqin bo‘lgan qirra uchi birlashish nuqtasi bilan tutashtiriladi va o‘tkazilgan chiziq ufq chizig‘i tomon pasayib boradi. Javonning yuqori assosi ufq chizig‘idan yuqorida joylashgan shaklni tasvirlash qonun-qoidalari bo‘yicha chiziladi. Natijada, to‘rt tomonli prizma hosil bo‘ladi. Eng yaqin vertikal qirrada javon qavatlarining nisbiy joylashuvi belgilanadi va ular ham ufq chizig‘ini hisobga olgan holda, perspektiva qoidalari asosida chiziladi.

Rasmni tugallash jarayonida karkas model qirralarining chiziqlariga to‘qroq tus beriladi va yordamchi chiziqlardan faqatgina birlashish nuqtasi tomon yo‘nalganlari va ufq chizig‘i qoldiriladi. O‘quv rasmidagi qoldirilgan chiziqlardan tasviriy san‘at sirlarini endigina egallayotgan yosh rassomlar ishlarini tekshirishda foydalilaniladi. Chunki ushbu chiziqlar rasmni perspektiv qisqarish va ufq chizig‘ining joylashgan o‘rnini nuqtayi nazaridan tekshirish imkoniyatini beradi. Oxirgi bosqichda shaklning oldingi o‘rindagi chiziqlari qalinlashtiriladi va ular olislashgani sari mayinlashib boradi.

Tekislikda vertikal holatda joylashgan silindrning chiziqli-konstruktiv rasmi. Yuqorida bayon etib o‘tilganidek, silindrni chizish aylananan perspektiv holatini shakllantirishdan iborat.


Aylana va silindrning perspektiv ko‘rinishini tasvirlash muhim ekanligi ko‘pincha o‘quv rasmlarida geometrik shakllarni va maishiy jihozlarni chizish davomida seziladi hamda bu yerda markaziy aylanish o‘qi vazifasini ham bajaradi. Bunday tashqari, silindr ko‘plab murakkab shakllar (jumladan, inson tanasi)ning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning uchun ushbu topshiriqni tasviriy mahorat shakllanishining ilk davrida bajarish zaruriy va majburiy bo‘lib hisoblanadi.

Silindrning sinch modeli past taglik ustiga tik holatda joylashtiriladi. Bunda silindr rassom nigohi bo‘yicha ufq chizig‘idan pastda joylashishi kerak.

Silindr — uch yuzadan tashkil topgan geometrik shakl: ikkita yassi, bir xil aylana va ushbu aylanalarini birlashtirib turuvchi bitta


silindrsimon yuzadan iborat. Silindr shakli qanday hosil qilinishi jarayonini yosh rassomlarga ko'rsatib berish uchun to'rtburchakning ipga bog'langan karkas modelidan foydalaniadi. Bunda to'rtburchak aylantiriladi va silindr tasviri hosil bo'ladi. Topshiriqni tushuntirish jarayonida aylanish o'qi (bu yerda, silindr o'qi) doimo silindr asosiga perpendikular bo'ladi. Silindr balandligi va asosi diametrining o'zaro munosabatiga ko'ra, silindrler turli xil bo'lishi mumkin: *baland*, *past*, *cho'ziq* va *boshqa turdag'i silindrler*.

Yuqorida bayon etilgani-dek, gorizontal tekislikda yotuvchi geometrik shakllarni chizishni ularning asosidan boshlash kerak. Silindrning har ikki asosi ham aylanadan tashkil topgan. Biz Yuqorida aylananing ufq chizig'idagi joylashuviga ko'ra, ellips holatiga o'tishi xususida fikr yuritgan edik. 33—34-rasmlarda aylananing,



33-rasm.


xususan, silindr asosining perspektiv qisqarishi ko'rsatilgan (*a—g*). Buni yanada kengroq anglash uchun uy jihozlarining chiziqli rasmlarini tahlil qilish orqali ko'rishimiz mumkin (35, 36-rasmlar). Ellips ikkita o'zaro perpendikular o'qlar asosida quriladi: *katta* (gorizontal) va *kichik* (vertikal) o'qlar. Ular




34-rasm.

kesishganda, har ikkisi ham teng bo‘linishi kerak.

Shunday qilib, ellipsning gorizontal tekislikda yotuvchi, aylana diametriga mos keluvchi katta o‘qi gorizontal holatda qoladi va ushbu o‘qning uzunligi tabiiy jismdagagi kichik hamda katta o‘q nisbatlarini ko‘z bilan chamlash orqali aniqlanadi. Shu yo‘l bilan rasmida gorizontal tekislikda yotuvchi aylanani hosil qilish mumkin. Buning uchun kvadratning perspektiv tasviri va diagonallariidan foydalilanildi va uning ichi-




a



b

35-rasm.



36-rasm.

da ellipsisni nuqtalar bilan belgilab chiqiladi.

Ellips chizish qonun-qoidalarini tushuntirish davomida pedagog rassomlarni ellips har qanday holatlarda chizilganida ham uning chetlari o‘tkir burchak hosil qilmasligi haqida ogohlantirishi lozim. Ellips — bu tekislikda yotuvchi aylananing perspektiv ko‘rinishi. Shuning uchun ellipsning pastki o‘qi diametri minimal kattalikda bo‘lganida ham uning pastki qismidan yuqori qismiga ehtiyojkorlik bilan o‘tiladi.

Shunday qilib, silindr chizishni ellipsisning katta yoki kichik o‘qi va perspektiv


ko‘rinishdagi kvadrat diagonali yordamida uning asosini hosil qilishdan boshlanadi. Avvalambor, vertikal o‘q chiziladi hamda uning yordamida silindrning vertikal holati belgilab olinadi va natijada shaklning to‘g‘ri chizilishini nazorat qilishga imkoniyat tug‘iladi. Ushbu o‘qda silindrning balandligi uning pastki asosda belgilangan eniga nisbatan aniqlanadi. Shundan so‘ng, pastki asos ellipsi chiziladi va asosdagi (kvadrat va ellips asosidagi) taxminiy nuqtalardan yuqoriga qarab, belgilangan tepe asosdagi nuqtagacha vertikal chiziq chiziladi.

Silindrning yuqori asosi ufq chizig‘i va birlashish nuqtasini hisobga olgan holda chiziladi. Yuqori ellips aniqlanadi va ellipslarning uchlari (ellipslarning katta o‘qlari uchlari)dan vertikal chiziqlar o‘tkaziladi va ushbu chiziqlar silindrning yon yuzasini hosil qiladi. Bu yerda shuni yodda tutish kerakki, silindrni hosil qilish uchun silindr asosi diametriga va katta o‘qqa teng kvadrat asosli prizma yasaldi. Silindr hosil bo‘lganidan keyin, ortiqcha yordamchi chiziqlarni o‘chirg‘ich yordamida yumshatish va ellipslarning oldingi qismlarini hamda silindrning yon tarafini ko‘rsatuvchi chiziqlarni, qalamni bosib yurgizish orqali qalinroq qilish mumkin (37, 38, 39-rasmlar).


Ikki konusning rasmini chizish (tik va yotgan holati). Ushbu topshiriqni tushuntirish uchun konusning karkas shaklidan foyda-



37-rasm.



38-rasm.




39-rasm.

laniladi. Tik holatdagi konusni chizish juda oddiy. Bu, avvalo, qog'ozda konusning asosi (ellips holatidagi aylana) joylashadigan joyni aniqlash, konusning yuqorisidan ellips asos markazi (katta va kichik o'qlar kesishgan nuqta)ga tushirish va so'ngra asosning — ellipsning katta o'qi uchlarini konusning balandligi bilan tutash-tirishdan iborat.


Konusni yotgan holatda tasvirlash tik holatdagi konusni chizishdan ko'ra, biroz qiyin. Buning uchun konus balandligi va asosi o'rtasidagi burchak to'g'ri aniqlanishi kerak.

Tasvir barcha topshiriqlar kabi yengil chizgilar chizish bilan boshlanadi. Vazifani boshlashdan avval uni turli nuqtalardan turib qalamchizgilarda bajarish kerak. Bu yerda o'qituvchi ham o'quvchilarga uslubiy maslahatlar berishi va amaliy jihatdan qog'oz burchagida ko'rsatib berishi lozim. Yotgan konusni xuddi shunday holatdagi piramidaga asoslangan holda chizish mumkin. Bunda silindrning yotgan holati asosi, yotgan holatdagi konus asosiga o'xshab ketadi (aylananing perspektiv qisqarishi). Qog'oz sirtida ma'lum burchakli kvadrat chiziladi va uning ichida ellips holatidagi aylana — konusning asosi joylashadi. Ellipsning o'qlari uning uchiga birlashtirilib, perpendikular chiziq chiziladi. Ellipsning katta o'qi uchlaridan konusning markazi y o'qi balandligi tomon to'g'ri chiziqlar chiziladi va natijada, konus hosil bo'ladi. Tasvir qurilishida shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, konus asosining perspektiv qisqarishida uning kichik aylanasi sinmasdan, yengil tasvirlanishi lozim (40, 41, 42, 43, 44-rasmlarda yotgan va tik holdagi konusning besh bosqichdagi tasviri ko'rsatilgan).




40-rasm.


41-rasm.



42-rasm.



43-rasm.



44-rasm.

Hayotda uchraydigan ko‘plab uy-ro‘zg‘or buyumlarining umumiyoq ko‘rinishi, jumladan, bidon, choynak, piyola va boshqalarning asosi ham shu yo‘sinda tasvirlanadi hamda qaysidir ma’noda ushbu geometrik shakllarni eslatadi.

Shar rasmini chizish. Shar tuzilishining ahamiyatli, o‘ziga xos tarafi shundaki, uning yuzasidagi barcha nuqtalar bir nuqtadan — markazdan bir xil o‘lchamda tarqaladi. Bizni o‘rab turgan borliqdagi ko‘plab jismlar, masalan, mevalar, sabzavotlar, sport to‘plari va boshqalar shar yoki sharsimon shaklga ega. Odam boshining tepe qismi, miya qutisi ham sharsimon ko‘rinishli. Boshning pastki qismi suyaklari esa, mukammal shakllardan tashkil topgan.

Bunday shaklning tuzilishini idrok etish muhim ahamiyatga ega. Sharning faqat bitta yuzasi bor va uning chegarasi mavjud emas; shar aylananan o‘z diametri — aylanish o‘qi bo‘yicha aylanishi natijasida hosil bo‘ladi, shuning uchun unga qaysi nuqtadan qaralmasin uning shakli, konturi va ko‘rinib turuvchi


yuzasi o'zgarmaydi va doimo aylana ko'rinishida bo'ladi. Sharning chiziqli tasviri faqat aylanani to'g'ri chizishdan iborat bo'lsa-da, shar shaklining hajmli modelini soyasi bilan chizish rassomchilik mashg'ulotlaridagi eng qiyin vazifalardan biridir.

Shar chizishda yorug' va soya yordamida jismning hajmi qay darajada tasvirlash imkonini borligini bilish kerak. Rasmdagi yorug' joylar — yorug'lik ko'proq tushgan joylarni, to'q joylari esa, uning eng keng joyida — ekvatorida bo'ladi. Ularning oralig'ida esa, ya'ni yorug'lik o'tkir burchak ostida tushgan joylarda yarimsoya hosil bo'ladi. Bunda yorug'lik ma'lum miqdorda qaytadi va soya hosil bo'ladi. Ushbu soya jism yuzasining soyadagi qismi shaklini xarakterlaydi. Shuningdek, tushuvchi soya tushunchasi ham mavjud. Shar shaklini yorug'lik va soya munosabatlari asosida tasvirlash jarayonida yorug'lik qayerdan va qanday tushayotganligini, jism yuzasining qaysi qismi yorug'lik manbayiga eng yaqin joylashganini, o'sha yuzani qay darajada yoritishini, yorug'likning tugashi va soyaning boshlanish joylarini hamda soya hosil bo'lish sabablarini tasavvur etish kerak.


Yorug'lik va soya munosabatlarining turlicha bo'lishiga sabab shundaki, yorug'lik eng yaqin yuzadan uzoqlashgani sari kamayadi va asta-sekin yorug'likdan soyaga o'tib boradi. Shu sababli ham shardagi yorug'lik-soya munosabatlari murakkab va tasvirlash ancha mushkul. Shar shaklini chizishda, ayniqsa, shar yuzasiga yorug'lik tushayotgan bo'lsa, uning chegaralari va orqa fonni tasvirlash murakkab ishdir. Bunday holatda shar yuzasining chegarasi ko'rinxaydi va kontur ko'zdan g'oyib bo'ladi.

Rasm chizishni boshlash uchun dastlab qog'ozda uni kompozitsiya jihatdan qurib olinadi. Shuningdek, rasm chizish jarayonida metodik ketma-ketlikka rioya qilish kerak. Avval shaklini yengil soya tasviri bilan, so'ngra esa, butun shakl bo'yicha aniq yorug' va soya munosabatlarini to'g'ri taqsimlash orqali (yorug'lik tushuvchi yuzalarni taqqoslab) chizish lozim.


Ish davomida sharning yorug'lik tushmaydigan, ya'ni soya qismiga to'g'ri ishlov berilganda, tasvir relyefi yanada to'qroq tusda bo'lishi mumkinligini yodda tutish kerak; bunda yorug'likning qaytish darajasi soyadan yorqinroq, ammo yorug'lik tushuvchi yuzadan to'qroq bo'lishi kerak. Sharga yorug'likning qaysi nuqtadan tushishiga qarab, u to'sib turgan yerlarida tushuvchi soyalar hosil bo'ladi (45, 46, 47, 48, 49-rasmlar).




45-rasm.




46-rasm.



47-rasm.



48-rasm.



49-rasm.

3.3. Mato rasmini chizish

Ma'lumki, tasviriy san'atning qaysi janri yoki turida bo'lmasin, san'at asarlarini yaratish — mato va uning plastik xususiyati bilan chambarchas bog'liq. O'quv mashqi uchun rangtasvir, qalamtasvir yoki haykaltaroshlik uchun qo'yilan natyurmordtan tortib, inson qiyofasi va uning hayotdagi barcha tasvirlarini matosiz tasavvur etish qiyin. Stol ustidagi dasturxon, derazadagi parda, shamolda hilpirayotgan bayroq yoki harir ro'mol va hokazolar burmalar hosil qiluvchi jismlar hisoblanadi va rasmda ular u yoki bu ko'rinishda o'z aksini topadi. Rassom kiyim burmalarini yaxshi his etishi va chiza olishi juda muhim, chunki ijodiy amaliyotda ko'pchilik kompozitsiyalar kiyimli model tasviri bilan bog'liq. Shuning uchun o'quvchilar turli burmalarini his etishlari va chiza olishlari kerak.

Mato va kiyim burmalarini chizish jarayonida, ularni mexanik tarzda ko'chirib olish emas, balki ularning hosil bo'lish tartibini kuzatishga intilish kerak.

Burmalar ba'zi joylarda qisqargan. Burmali tasvir bir nuqtadan shunday yoritilishi kerakki, bunda jism burmalari imkon boricha relyefli ko'rinishi lozim. Eng yaxshisi, mato joylashtirilganda, uning bir tomoni osilgan holatda bo'lishi, ikki uchi esa, gorizontal tekislikda yotishi kerak (50-rasm, a). Mato bunday holatda joylashtirilganda, uning burmalarini turli xarakterga ega bo'ladi. Iloji boricha, rasmni ishslash jarayonida ishni murakkablashtiruvchi



50-rasm, a.

mayda burmalar tasvirini ishlashdan chekinish lozim. Burmalar aniqroq ko‘rinishi uchun, tekis, g‘ijim bo‘lmaydigan va bir xil sidirg‘a tusli mato tanlanishi maqsadga muvofiq.

Burmalarning hosil bo‘lish xarakteri faqat matolarning tabiiy xususiyati (tuzilishi, sifati)ga bog‘liq bo‘libgina qolmay, balki mato shakl va maydon bo‘yicha qanday yuzani egallashiga ham bog‘liq. Masalan, stol ustidagi dasturxon hech qanday relyef hosil qilmay, gorizontal holatdagi stolning ustki yuzasini o‘zida aks ettiradi. Dasturxonning pastga osilib turuvchi qismlari esa, burma shakkarni hosil qiladi va dasturxon holati o‘zgartirilsa yoki bir tomonidan

tortilsa, ularning relyefi o‘zgarishi mumkin. Stol ustidan ko‘tarilgan dasturxon qo‘lda osilib turadi va o‘z og‘irligi hisobiga osilib turuvchi burmalarning butun tizimini hosil qiladi hamda ularning ko‘rinishi va joylashuvi qo‘l harakatiga, holatiga, mato qanday osilib turganligiga uziyi bog‘liq. Bizning misolimizda mato stol ustiga qo‘ylgan stulning bir qismi va stol ustiga engil tashlangan.

Osilib turuvchi mato tasvirini rasmda ifodalash — ko‘rinib turuvchi burmalarни oddiy tasvirini chizish degани emas. Bu jarayon matoni sinchiklab kuzatish va mato



50-rasm, b.

bilan bog‘liq shaklni o‘rganishni ham taqozo etadi.

Mazkur vazifaning asosiy maqsadi — inson egnidagi kiyimni chiza olishdir. Chunki kiyimdagи burmalar odam harakatlanishi bilan o‘zgarib boradi, shuning uchun ham ular tana harakati bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq. Rassomlar oldida doimo shunday vazifa turadiki, ular kiyimni tasvirlash bilan bir qatorda, uning ichida odam tanasi mavjudligini ham ko‘rsata olishi kerak. 50-rasm, b da ayol portretining egnidagi kiyimi bilan uyg‘unlashib, uning qiyofasi va qo‘llarini butun bir yaxlitlikda ko‘rsatishini kuzatamiz.

Shuni ta'kidlash kerakki, harakatdagi inson qiyofasini naturadan yoki tasavvur va xotiradan yengil chizgilar yordamida ishlanganida, matodagi burmalarning joylashgan o'rmini e'tiborga olish katta ahamiyat kasb etadi. Bunday chizgilar rassomni kiyimdag'i ko'p miqdordagi burmalarini chizishga tayyorlaydi. Bu esa, o'z navbatida rasmning sermazmun bo'lishini ta'minlaydi.

Topshiriqlarni bajarish davomida yosh rassomlarga mashhur musavvirlarning mato va undagi burmalar sermazmun tasvirlangan asarlaridan ishlangan nusxalar namoyish etilishi kerak.

Mato tasvirini ishslash ketma-ketligi quyidagicha:

1. Qog'oz sirtida tasvir o'rni belgilab olinadi.
2. Mato joylashuvchi yuza (stol, orom kursi va h.k.) rasmi chiziladi.
3. Keyin ushbu yuzada matoning asosiy burmalari yo'nalishini ko'rsatuvchi tayanch nuqtalar belgilanadi va yengil shtrixlar bilan asosiy burmalar hamda matoning gorizontal tekislikda yotuvchi qismidagi burmalar chiziladi.
4. Shundan so'ng, ikkinchi darajali burmalarni belgilab, matoning soya tushgan qismlariga shtrixlash yo'li bilan to'q tus beriladi va mato tasvirining boshlang'ich bosqichi yakunlanadi.
5. So'nggi bosqichlarda tasvirlashning asosiy qonun qoidalariiga binoan yorug'-soya munosabatlari o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

3.4. Ikki, uch geometrik shakllardan tashkil etilgan natyurmortning qalamtasviri

Barcha mashg'ulotlarda bo'lgani kabi, gips geometrik shakllarning qalamtasvirini bajarish ham tasviriy san'atning «oltin qonuni» — oddiydan murakkabga uslubida amalga oshiriladi. Ma'lumki, bizni o'rab turgan predmetlar dunyosining barchasi geometrik shakllarga asoslangan (shar, kub, prizma, konus, piramida, silindr, parallipiped va h.k.lar). Shakllarning gipsdan bo'lishining asosiy sababi, ular aksariyat hollarda sun'iy yoritichilar bilan yoritilib, o'quv-mashq maqsadlarida qo'yiladi. Yorug'-soya majmuasi (yorug', soya, yarim soya, refleks, shaxsiy va tushuvchi soya, yaltiroqlik) och tusdagi, xususan, oq buyumlarda yaqqol ko'rinadi.

Bundan tashqari oddiy qora qalam vositasida shakllarning tus munosabatlarni aniqlash yoshlarni tasvirlashda tartib bilan ish yuritishga o'rgatadi. Eng muhimmi, dasturda ko'rsatilgan murakkab vazifalarni (me'morlik bo'lagi, gips milliy naqsh bo'lagi, inson portreti va gavdasi) oddiy geometrik shakllar, tekisliklar bilan tasvirlash uchun zamin bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan barcha malakalar bilan bir qatorda, geometrik shakllar qalam-tasvirini bajarish mashqlari asosida o'quvchi buyumlarning kenglikdagi fazoviy holati, yorug'-soya munosabati va o'zaro nisbatlari kabilar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi.

Gips geometrik shakllar rasmini uyda mustaqil chizish jarayonida o'quvchi ushbu shakllar nusxasini simdan yasab olishi va buyum tekisligiga turli holatlarda qo'yib, uning joylashishi, konstruktiv tuzilishi, perspektiv qisqarishi, shakllarning ko'rinar va ko'rinnas tomonlarini tasavvur etishi hamda o'zining nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini yanada chuqurlashtirishi kerak. Ayniqsa, bir guruh geometrik shakllarni tasvirlashda ushbu usul o'quvchiga yengillik tug'diradi. Chunki, bir shakl ikkinchi bir shaklni to'sib turganda, ularning joylashgan yeri, birlashgan joylari hamda o'zaro nisbatlari yaqqol ko'rindi.


Shuningdek, auditoriyada ishlangan mashqlar bilan bir qatorda uyda ushbu geometrik shakllar namunasini qog'ozdan yasash, ularni alohida va ikki, uch, to'rt buyum ishtirokida turli kompozitsiyalar tuzib tasvirlash muhimdir. Shakllarni turli holatlarda qo'yish va yoritish orqali chizuvchining fazoviy va hajm borasidagi bilim hamda tasavvurlari rivojlanadi.

Quyida ufq chizig'idan pastroq joylashgan va yuqori old tomondan yoritilgan prizma, silindr va sharning uch uslubiy bosqichlarda bajarilgan namunasini ko'rib chiqamiz:

1-bosqich. Shakllarning eng chekka tomonlari asosida uni qog'oz sirtida ko'rinar va ko'rinnas qirralarini tasavvur etgan holda joylashtirish hamda uning nisbatlari, balandligi, harakat holatiga qarab, perspektiv ko'rinishining dastlabki belgilarini aniqlash;

2-bosqich. Shakllarning konstruktiv tuzilishini yengil chiziqlar bilan tasvirlab, tutash nuqta orqali yon tomonlarining perspektiv qisqarishini ufq chizig'iga binoan aniqlash, shakllarning nisbatlari va perspektiv ko'rinishlarini belgilab, ularning buyum tekisligidagi tushuvchi soyasini belgilash;


3-bosqich. Kub shaklining barcha yorug‘-soya munosabatlarni belgilash, tomonlari tus nisbatlarini aniqlab, refleks, yaltiroq qismlarini topib, vazifani bir butun yaxlitlikka keltirish (51-rasm, *a*, *b*, *d*).



51-rasm.

Geometrik shakllardan tuzilgan natyurmortlarni tasvirlashda ularning oddiyalaridan boshlash kerak, shundan keyin sekin-asta murakkablariga o‘tiladi.


52-rasmdagi kub, shar, silindr, shakllarini tasvirlash ham yuqorida misolni bajarilgan bosqichlar asosida olib boriladi. Kub shaklini tasvirlash bosqichlari asosida olib boriladi. Bunda shakllarning o‘zaro munosabatlari, tasvirlashda yordamchi chiziqlar o‘tkazib ish yuritish usuli, perspektiva qonunlariga asoslanib, mashq bajariladi.




52-rasm.

O'tilgan mavzularga qiyoslab o'quvchi uyda mustaqil ravishda ko'plab xomaki rasm va qalamchizgilar bajarishi muhim ahamiyatga ega. Chunki auditoriyada bajarilgan har bir vazifa asosida parallel ravishda uyda ishlangan mashqlar o'quvchining o'qituvchi rahbarligida


kompozitsiya borasida olgan fazoviy tasavvur, chiziqli konstruktiv tuzilish, yorug'-soya munosabatlari, perspektiva qonuni, nisbatlarni to'g'ri belgilash va ayniqsa, tasvirlash malakalarini rivojlantiradi. Buning uchun uydagi turli shakllarga ega bo'lgan quti, kursi, yashik, bidon, ko'za, choynak, piyola, stakan va boshqa ko'plab uy jihoz va buyumlari kifoya (53, 54, 55, 56-rasmlar).




53-rasm.



54-rasm.



55-rasm.



56-rasm.

3.5. Panjara geometrik gips naqsh rozetkasini tasvirlash

Bu vazifaning maqsadi kompozitsiya qurish mahorati va shakl hajmini ko'rsatishdan, geometrik shakllar — kub, prizma, piramida kabi shakllarni chizish davomida olgan bilimlarni mustahkamlash hamda o'quvchilarni amaliy san'at turlariga bo'lgan qiziqishlarini orttirishdan iborat.

Qo'yilgan vazifani amalga oshirishda relyefli naqshni bajarish maqsadga muvofiq. Naqshning konstruktiv qurilishi va uni soyayorug' tusini belgilash o'quvchilardan diqqat-e'tiborni talab etadi. Naqsh chizuvchilarga nisbatan ko'z balandligida och-kulrang fonda joylashtiriladi. O'quvchilar naqshni yon tomondan kuzatib, ayrim perspektiv qisqarishlarning qalamtasvirini bajarishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Naqshning umumiy shaklini bajarish jarayonida uning asosiy nisbatlari — gips bo'yining uzunligiga hamda eni va chuqurligiga nisbatan to'g'ri belgilab olinishi muhim. Ustki qism shaklini tasvirlashda o'quvchilar shakllarning bir xil emasligini ko'radi. Bu ularni yanada har bir bo'lakni diqqat-e'tibor bilan tahlil etishga yo'naltiradi.

Haqqoniy tasvirlashning asosiy qonunlaridan biri «panjara» geometrik naqshini tahlil etib, uning xarakterli bo'laklari aniqlanib, bosqichma-bosqich tasvirlanadi. Qog'oz yuzasida juda yengil chiziqlar bilan naqsh tomonlarining nisbatiga qarab, qog'oz tik yoki yotiq holda qo'yiladi.

Gipsli naqsh namunasining vertikal tekislikka nisbatan og‘-maligi, tomonlardan birining ikkinchisiga nisbati, perspektiv qisqarish va usq chizig‘ining qanday holda turishi chiziqli konstruktiv usulda bajariladi. So‘ng tasvirlangan ikki qismli zanjir elementi aniqlanadi. Buning uchun zanjirning ganch taxtasidagi eng yuqori va pastki qismi hamda chekka nuqtalari belgilanadi. Ma’lumki, ushbu naqshning tomonlari, burchak graduslari bir-biriga teng va simmetrik bo‘lgani uchun uni teng ikkiga bo‘lib o‘tuvchi nuqtalardan gorizontal va vertikal to‘g‘ri chiziqlar o‘tkaziladi (57-rasm, a).


O‘tkazilgan vertikal ikki chiziq bir-biriga parallel bo‘lsa, gorizontall chiziq ganch taxtasining yuqori va pastki gorizontal qirralariga parallel bo‘lmasan holda o‘z holicha o‘tadi. Chunki, bu ikki to‘g‘ri chiziq o‘quvchi qaysi nuqtadan turib tasvirlayotganiga qarab perspektiv qisqarib boradi va ma’lum masofaga borib bir nuqtada uchrashadi (kesishadi). So‘ng panjaraning qalinliklari belgilanadi va ular to‘g‘ri chiziqlar orqali birlashtiriladi. Bu vazifaning 2-bosqichi hisoblanadi (57-rasm, b).

Keyingi bosqichlarda panjara tomonlarining burchaklari, tekisliklarning bir-biriga nisbatlari topiladi. So‘ng rozetka bo‘laklaridagi yorug‘ va soya, yarim soyalar yorug‘lik manbayining tushishiga qarab, qanday o‘zgarishi aniqlanadi. Soya boshlang‘ich bosqichda yengil shtrixlar asosida bajariladi. Naqsh bo‘laklarining yorug‘ va soyalarini hech qachon alohida-alohida ishlash yaramaydi. Tasvirlanayotgan har bir bo‘lakni bir-biriga taqqoslagan holda barobar olib borish, tugallanganligi jihatidan bir-biriga muvofiq bo‘lishi kerak. Ushbu amalning to‘g‘ri bajarilishi ish jarayonida qilingan xato va kamchiliklarni o‘z vaqtida tuzatishga yordam beradi (3—4-bosqich) (57-rasm, d).


Vazifada bosqichma-bosqich ish yuritish, ya’ni naqshni qog‘ozda to‘g‘ri joylashtirish, har bir bo‘lakni konstruktiv chiziqli qurish va hajmlari ustida ish olib borish orqali biri ikkinchisini to‘ldirib boradi.

Ganch naqshining tasvirini to‘g‘ri bajarishda o‘quvchilar quyidagi qonun va qoidalarga amal qilishlari zarur:

1. Belgilangan ixtiyoriy qog‘oz sirtida tasvirlanayotgan natura-ning chekka qirralarini belgilangan holda kompozitsion to‘g‘ri joylashtirish.



a



b



d

57-rasm.

2. Naturadagi shakllarning asosiy tayanch nuqtalarini belgilab, ulardan birining ikkinchisiga bo‘lgan nisbatlarini perspektiv qonun-qoidalar asosida tasvirlash.

3. Shakllarni chiziqli konstruktiv ravishda qurish, naturada qo‘yilgan asosiy bo‘laklarni belgilash.

4. Tasvirlanayotgan shakllarning xarakterli xususiyatlaridagi tushuvchi shaxsiy soyalarni belgilash va alohida bo‘laklarga ishlov berish.

5. Naturadagi barcha buyumlarni tus jihatdan yana bir bor ko‘rib, qo‘yilmadagi shakllarning xarakterini aniqlash va soya, yarim soya, yorug‘, refleks joylarini aniqlash. Buyumni butun birlikka bo‘ysundirish va vazifaga yakun yasash.

Ushbu metodik ketma-ketlikka rioya qilib, tasvirni to‘g‘ri bajargan o‘quvchi vazifadagi qo‘yilgan maqsadga erishadi va keyingi vazifalarni aniq bajarishida u muhim vosita hisoblanadi.

3.6. Uy-ro‘zg‘or buyumlari hamda gips milliy naqsh rozetkasining qalamtasviri

Bu qo‘yilmaning asosiy vazifasi — turli shakl va hajmga ega hamda materiallardan iborat buyumlarni kompozitsiya jihatidan qurishga o‘rganish hamda tus vositalari orqali tasvirlash. Uy-ro‘zg‘or buyumlari natyurmortini chizish yosh rassom oldiga yangi, yanada murakkabroq vazifani qo‘yadi. Bunda jismlar turli xil shaklga ega bo‘lishi mumkin. Shu bilan birgalikda ushbu jismlarning barchasini geometrik shakllarga o‘xshatishimiz mumkin.

Natyurmort qo‘yilmasi planshetga shunday joylashtirilishi kerakki, unda qog‘ozning butun yuzasi naturani tasvirlashda faol ishtirot etsin. Agar tasvirlanayotgan jism (mazkur topshiriqda jismlar guruhi) vertikal yo‘nalish bo‘yicha cho‘zilgan bo‘lsa, tabiiyki, qog‘ozning uzun tarafini vertikal holatda joylashtirish kerak.

Tasvirlanayotgan jismlar o‘lchami to‘g‘ri tanlanishi lozim: tasvir juda kichik yoki katta bo‘lmasligi hamda u bir burchakka taqalib qolmasligi ham kerak. Chizilayotgan rasm qog‘ozning taxminan o‘rtasida joylashtirilishi lozim. Har bir alohida holat uchun, qog‘ozning bichimini hamda tasvirlanayotgan jismlar va umumiylashtirish maydonining o‘zaro munosabatini hisobga olgan holda alohida kompozitsiya tanlash talab etiladi.

O‘quv mashg‘ulotlarida kompozitsiya ko‘rish maydonidagi tasvir asosida tanlanadi, qog‘oz bichimi aniqlanib (yoki berilgan bichimdagи qog‘ozda), unga rasm joylashtiriladi. Tasvir kompozitsiyasini aniqlash (ayniqsa, natyurmot chizish jarayonida) — uning joylashuvini, o‘lchamlari va fonini to‘g‘ri belgilashdan iborat. Yaxshi joylashtirilgan tasvirda, umumiy tasvirning butunligi va o‘zaro munosabatini buzmay turib, hech narsani o‘zgartirish yoki olib tashlash mumkin emas.

O‘quv rasmini sifatli ishslash uchun bir necha chizgilarni bajarish tavsiya etiladi. Tasvirni qog‘ozga to‘g‘ri joylashtirishda *tasvir izlash moslamasi* yordam beradi. Ushbu moslamani yasash uchun karton yoki qalin qog‘ozning o‘rtasidan to‘g‘ri to‘rtburchakli teshik ochiladi va ushbu teshik qog‘oz yuzasiga proporsional bo‘lishi kerak. Moslamani chizilayotgan jismga qaratilgan ko‘z nuriga perpendikular holatda ushlab, uni jismga yaqinlashtiramiz, uzoqlashtiramiz va jism qirralarini moslama tomonlariga to‘g‘rilab, jismning aniq joylashuvini belgilab olamiz.

O‘quv rasmini ishslash jarayonida qo‘yiladigan asosiy talab — qog‘ozda jismlar joylashuvini to‘g‘ri belgilashdan va har (o‘ng, chap, yuqori va past) tomonlaridan bir xil bo‘sh joy qoldirishdan iborat. Bunda, shuningdek, jismlarning rangi va ular yasalgan material ham hisobga olinadi. Chunki ular tasvirda tabiiy chizilishi kerak. Shu sababli ham natyurmortdagi eng katta jism hech qachon qog‘ozning o‘rtasiga joylashtirilmaydi, balki chap yoki o‘ng tomonda ifodalaniishi lozim. Yaxshi joylashtirilgan tasvir hech qachon siqilib yoki qog‘ozda bo‘sh joy ortib qolganga o‘xshamaydi. Shuningdek, o‘quv natyurmortida jismlarning nisbatlari qog‘ozda to‘g‘ri belgilanishi kerak.

Uy-ro‘zg‘or buyumlari natyurmortini chizishda turli materiallardan ishlangan jismlar yuzasidagi yorug‘ va soya kuchini solishtirish kerak. Masalan, metall idishning yuzasini tasvirlash chog‘ida uning shakli va fakturasini to‘liqroq tasvirlash uchun boshqacha xarakterdagi shtrixlardan foydalanish lozim. Shisha yuzali idishga tushuvchi yorug‘lik o‘zining yorug‘lik-soya munosabatlariga juda tez o‘tishi bilan (yuzanining yorug‘likni aks ettirish xususiyati kuchli bo‘lganligi sababli) xarakterlanadi. Bunday o‘tish boshqa materialdan ishlangan jismlarda, masalan, gips sharda sekin bo‘ladi. Bunday tasvirlarni ishslash chog‘ida ketma-ketlikka rioya qilish katta ahamiyatga ega.

Natyurmort chizish jarayonini quyidagi bosqichlarga bo‘lish lozim. Dastlab natyumortni turli tomonlardan kuzatilib, yorug‘-soya munosabatlarini hisobga olgan holda, shakl ko‘rinishining eng ma’qul joyi tanlanadi. Vazifaning asosiy maqsadi — buyumlar shakli, rangi, tuzilishi, fazoviy holati jihatdan bir-biridan farq qilishiga alohida ahamiyat berish. Qo‘yilmadagi buyumlarning o‘lchovlari turlicha bo‘lishi maqsadga muvofiq. Kichikroq buyumlar oldinroqda, yiriklari orqaroqda tasvirlanadi. Natyurmort kompozitsiyasini qog‘ozga to‘g‘ri topish maqsadida alohida kichik o‘lchamda xomaki tarzda chizib ko‘riladi. Rasm kompozitsiyasi topilgandan so‘ng asosiy ishga o‘tiladi.


Qo‘yilmani chizganda, undagi hamma buyumlarni bir yo‘la tasvirlash lozim. Aks holda, rasmida bir buyumning o‘lchovi kattaroq va ikkinchisi esa, kichikroq bo‘lib, rasm kompozitsiyasi buziladi. Shuning uchun qo‘yilmadagi barcha buyumlarning umumiyligi va eni qog‘ozda yordamchi chiziqlar bilan belgilab olinadi. So‘ng naturadagi har bir buyumning o‘lchovi jihatdan o‘zar farqi, oralaridagi masofa, soya va yorug‘larning farqi, ranglari ko‘z bilan chamalab aniqlashga o‘tiladi.

Qo‘yılma ufq chizig‘idan pastroqqa joylashtirilgan bo‘lib, uning gorizontal tekisligi aniqlanadi. Gipsli naqsh orqaroqda va balandlikda o‘rnataligan, mis qumg‘on va sopol piyola oldingi ko‘rinishda joylashgan.

Keyin sopol piyola va mis qumg‘onning umumiyligi shaklini bildiruvchi chiziqlar hamda simmetrik o‘qlar va naqshli gips modelining taxtacha asosi belgilab chiziladi. So‘ngra piyola va mis qumg‘onning ustki, pastki asoslari va naqshning yon tomon yo‘nalishlari perspektiva qonuniyatiga asoslanib belgilanadi. Naqsh gulining turgan joyini aniqlash uchun taxtacha asosi o‘rtasidan yordamchi profil chizig‘i yuritiladi (58-rasm, a, b, d).

Mis qumg‘on simmetrik shakldagi buyum hisoblanib, u silindr va shar shakllaridan tashkil topgan. O‘tkazilgan simmetrik o‘qdan qumg‘onning balandligi hamda enining o‘lchami topiladi. Qumg‘on ufq chizig‘idan biroz pastroqqa qo‘yilganligi uchun uning ustki va ostki asoslari ellips shaklda ko‘rinadi. So‘ngra qumg‘on bo‘yi va enini belgilovchi chiziqlarni tutashtirish orqali umumiyligi shakl topiladi.

Milliy naqsh gulining shakli yirik yaxlit qismidan mayda bo‘laklariga ketma-ketlikda bajariladi. Taqqoslash usuli orqali



a. Birinchi bosqich.



b. Ikkinchi bosqich.



d. Uchinchi bosqich.

58-rasm.

bo‘laklarning nisbatlari bir-birlari bilan hamda yaxlit aniqlab boriladi. Bu bosqichda buyumlarning ko‘rinmas chiziqlari ham chiziladi. Bu usul buyumlarning fazodan o‘rin olib turganini ko‘rsatishda o‘quvchilarni yanglishtirmaydi.

Buyumlarning yorug'lik va soya qoidalariga rioxaliga qilgan holda olib boriladi. Albatta, naturadagi buyumlarning o'rtaqidagi ochto'qlikning farqini saqlagan holda hamda materiallik fakturasini ko'rsatib tasvirlash kerak.

O'quvchi tasvirning haqqoniyligini tekshirish uchun molbertdan uzoqlashib, o'zi tasvirlagan shakl bilan naturaga qo'yilgan buyumlarni tez-tez kuzatish orqali amalga oshiriladi. Bunda oraliq masofa natura va chizilayotgan rasmni to'liq solishtirish imkonini berishi lozim. Tekshirish davomida natura va rasmga ketma-ket qaraladi hamda mavjud xatolar o'sha zahotiyoy tuzatiladi. Shuningdek, agar rassom turgan holda ishlayotgan bo'lsa, u molbertdan biroz uzoqlashib, tasvir va naturadagi jismni solishtirishi mumkin. Rasm chizishning so'nggi bosqichida xatolarni aniqlab, so'ngra ularni tuzatishga ko'p vaqt sarflagandan ko'ra, rasm chizish jarayonining har bir bosqichida uni boshqarib, tekshirib borish tavsiya etiladi. So'nggi bosqichda vazifa deyarli tugatiladi — rasmni natura bilan solishtirish, keraksiz chiziqlarni olib tashlash, bиринчи va ikkinchi darajali qismlarni umumiy- lashtirish va ishdan umumiyyatni taassurot olish kerak.


Yosh rassom uchun natyurmort chizish katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Naturadan natyurmort chizish realistik rasmdagi jismlar joylashuvini to‘liq olib berish, e’tiborni, asosan, perspektiv tasvirga qaratish hamda chiziqli-konstruktiv rasm chizishning qonun-qoidalarini o‘zlashtirish imkonini beradi. Natyurmort ustida ish olib borish o‘quvchilarda yangi ijodiy qirralarining namoyon bo‘lishida katta ahamiyat kasb etadi.

Ish yakunida oldingi va orqa ko'rinishda joylashtirilgan buyumlarning tus munosabatlari umumlashtiriladi (58-rasm, q).


3.7. Dorika kapiteli, shar va prizma rasmini chizish

Geometrik shakllari rasmini chizish vazifalari tugagandan so‘ng murakkab elementlarga o‘tiladi. Qalamtasvir bajarish uchun «Dorika» uslubida ishlangan ustunning kapiteli (me’morlik bo‘lagi),


shar va prizma shakllari tanlab olinadi (59-rasm, *a*, *b*, *d*, *e*). Ushbu modellarni tanlab olinishdan maqsad yoshlarga geometrik shakllar: kub, shar, silindr kabilarni bajarish davomida olgan chiziqli konstruktiv qurilish, perspektiva, yorug'-soya va tus, munosabatlari kabi kunlar haqidagi bilimlarni mustahkamlashdir. Kapitel va




a



b



d



e

59-rasm.

geometrik shakllarning nozik va murakkab konstruksiyasini chizish o‘quvchilardan yuksak mahorat talab etadi.

Qo‘yilma stol ustiga usfq chizig‘idan yuqoriroq holda o‘rnataladi. U yuqori yon tomonidan yoritilgan. Vazifani boshlashdan oldin o‘quvchilar turli nuqtalardan chizgilar bajarishlari va eng maqbul joyni tanlab olishlari kerak. Aniq joyni tanlab olingandan so‘ng, ishni tasvirlash bosqichlariga to‘liq amal qilgan holda olib borishlari shart.

Dastlab, kapitel va uning ustuni biriktirilgan to‘g‘ri to‘rtburchak asos-taxtachasi, uning pastki silindrsimon ustuni prizma va shar shakllari qog‘oz sirtida kompozitsion to‘g‘ri joylashtirib olinadi. Shundan so‘ng, ular chiziqli konstruktiv ravigda quriladi. Shakllar simmetrik bo‘lgani uchun ularni tasvirlashda turli yordamchi chiziqlar bilan bir qatorda kapitel asosidan o‘tuvchi va shaklni teng ikkiga bo‘luvchi o‘q chizig‘i belgilab olinadi.


Vazifani bajarishda tasvirlashning asosiy qonuni — perspektiva qonuniga amal qilgan holda ish yuritish lozim. Bu yerda to‘g‘ri to‘rtburchak, aylana shakllarining perspektiva jihatidan qanday bo‘lishini ko‘rish mumkin. Shuningdek, mashq davomida avval katta shakl, so‘ngra esa uning nozik va mayda bo‘laklari ustida ish olib borish kerak. Aks holda, ish yetarli darajada muvaffaqiyatli amalga oshirilmaydi. Kapitel ustuni dumaloq shaklga ega. Shuning uchun uni qurishda uning yaxlit bir aylana shaklga ega ekanligini hisobga olgan holda ish yuritish kerak. Faqat shu yo‘sinda tasvirlash orqaligina uni haqqoniy ko‘rinishiga erishish mumkin.

Bu esa, ustun atrofidagi mayda vertikal qavariq bo‘laklar uning asosini tashkil etuvchi aylanalarining perspektiva qonuniga binoan ellips bo‘lib qisqargan shakllari va uning kichik katta bo‘lagini yarim ko‘rinishda emas, bir butun yaxlit, deb tasavvur etgan holda amalga oshiriladi.


Kapitelning nisbatlari yuqori darajada matematik hisoblari asosida qurilgan bo‘lib, ushbu nisbatlarning aniqligi unga ko‘rkamlik baxsh etadi. Shuning uchun uni tasvirlashda juda ko‘plab yordamchi chiziqlar o‘tkazib, aylana markazini to‘g‘ri belgilash va perspektiva qoidalariga to‘la rioya qilgan holda ifodalash hamda yorug‘-soya munosabatlarini yetarli darajada aniq tasvirlash lozim.

Ushbu vazifani uzoq muddatli seansda bajargandan so‘ng, sharq va g‘arb klassik namunalariga mansub me’morlik bo‘laklarida ple-


nerda qalamchizgi va uzoq muddatli mashqlar bajarish mumkin. Ayniqsa, o'zbek milliy me'morlik san'atiga mansub bo'lgan «morpech» gips bo'lagini bosqichma-bosqich tasvirlash davomida o'quvchilar milliy san'atimiz namunalarini chuqurroq o'rganadilar (60-rasm, *a*, *b*, *d*, *e*).




a



b



d



e

60-rasm.



NAZORAT SAVOLLARI

1. «Qirrali buyumlarning konstruktiv asosi» deganda, nimalarni tushunasiz? Misollar keltiring.
2. Aylana perspektivasi nima? Misollar keltiring (ufq chizig‘idan pastda, yuqorida, ufq chizig‘i balandligida).
3. Katta shakl nima?
4. Turli geometrik shakllarning perspektiv qisqarishiga misollar keltiring.
5. Ufq chizig‘i nima?
6. Gips rozetkaning bosqichli rasmi qanday amalga oshiriladi? Uni so‘zlab, amaliy mashqlar bajarib ko‘rsating.
7. Dorika kapiteli rasmini amaliy chizish bosqichi qanday?
8. Natyurmortni tasvirlashning uslubiy bosqichlari nimalardan iborat?

4-boʻb. INSON QOMATINING QALAMTASVIRI. PLASTIK ANATOMIYANING TASVIRIY SAN’ATDAGI AHAMIYATI


4.1. Tana, qoʻl va oyoq skeleti

Tabiatdagi turli-tuman shakllar ichida inson tanasi oʻta murakkab va mukammal hisoblanadi. Inson tanasini oʻrganish boʻlajak pedagogda professional bilmni, tasviriy sanʼatning har qanday janrida ishlay olish qobiliyatini shakllantiradi.

Tasviriy sanʼat sohasida yuqori malakaga ega boʻlish uchun odamning plastik anatomiyasini bilish oʻta muhimdir. Chunki, tasviriy sanʼat inson tanasi bilan uzviy bogʻliq va uni insonsiz tasavvur etib boʻlmaydi. Shuning uchun oʻquvchilar inson tanasi nisbatlari va plastik tuzilishini nazariy, bir qator amaliy topshiriqlar bajarish orqali oʻrganishlari hamda oʻz bilim doiralarini kengaytirishlari kerak.

Tasviriy sanʼat sohasida taʼlim oluvchi oʻquvchilar anatomiyani toʻliq oʻrganishni oʻz oldiga vazifa qilib qoʻymay, tananing umumiy tuzilishiga eʼtiborni qaratishlari kerak. Bunda har bir shakl oʻrtasidagi plastik bogʻliqlik hisobga olinishi lozim.

Plastik ijod namunalaridan shuni koʼrishimiz mumkinki, skelet inson tanasining asosi hisoblanadi. Inson tanasini turli holatdagi harakatini tasvirlashda skeletning tayanch-mexanik funksiyasidan foydalaniladi. Inson skeleti asosiy qism (umurtqa pogʼonasi va koʼkrak qa-



61-rasm.

fasi), bosh skeleti (suyagi), hamda qo‘l-oyoq skeletlaridan tashkil topgan (61-rasm).

Umurtqa pog‘onasi inson tanasining ustuni hisoblanib, u bosh, tana va qo‘llarni ko‘tarib turadi. Umurtqaning pastki qismi tana asosining harakatlanmaydigan qismi bo‘lgan tos suyagi hamda birlashtiruvchi tos suyaklari o‘rtasiga birikkan. Umurtqa ustuni yigirma to‘rtta umurtqadan iborat: yettita bo‘yin, o‘n ikkita ko‘krak va beshta bel umurtqalari. Mazkur qismlanishga asosan umurtqa egiladi va tana shaklini belgilab beradi.

Bosh va tana harakati umurtqa harakati bilan uzviy bog‘liq. Ikkita yuqori bo‘yin umurtqalari harakatga kelganida bosh buriladi. Belning o‘ngga, chapga, orqaga va oldinga egilishi ham barcha bel umurtqalari va ikkita ko‘krak umurtqalarining harakatiga bog‘liq. Umurtqa pog‘onasining barcha bel hamda ikkita ko‘krak umurtqalari joylashgan qismi eng ko‘p harakatlanadigan qism hisoblanadi.

Umurtqa pog‘onasining harakati umurtqalar harakatlanmaydigan tos suyagi bilan birlashgan joyda kamayadi. Tananing tos suyagi qismi odam o‘tirganda, bukilgandek tuyiladi, bunda umurtqa chizig‘i o‘zgaradi. Tana asosining yuqori qismi oldinga yoki ortga bukilganda harakatsiz holatda bo‘ladi — balandda joylashgan umurtqalar harakatlanaadi. Bunday harakatlarda bosh yoyni hosil qiladi.

Tana asosining o‘ngga yoki chapga burilishi umurtqa pog‘onasining yuqorida joylashgan qismi o‘z o‘qi atrofida aylanma harakatlanishi tufayli sodir bo‘ladi. Tananing o‘ngga va chapga egilishida umurtqa harakatlanadi.

Orqa tarafdan umurtqa pog‘onasining o‘simta qismiga qovurg‘alar birlashgan va ular oldinga egilib to‘sh suyagiga birikkan. Ko‘krak qafasining umumiy ko‘rinishi silindrsimon idishni eslatadi. Qovurg‘alarning yuqorisida to‘sh suyagiga o‘mrov suyagi (S harfini eslatuvchi holatda) birlashadi. Qovurg‘alar orqasida kurak suyagi yotadi. Kurak va o‘mrov suyaklari yelka bo‘g‘imi o‘rnida birlashadi.

Qo‘l kurak suyagi bilan yelka bo‘g‘imida birlashib, uch asosiy qismdan: *yelka suyagi, tirsak-bilak va panjalar, kaft ubti suyaklari, kaft suyaklari va qo‘lpanja (barmoq) falangalaridan* iborat. Suyaklarning qismlarga bo‘linishi, qo‘lning harakati turli qismlarda yuzaga kelishini ta’minlaydi: yelkada, bilakda, kaftda va barmoqlarda.

Oyoq-qo‘l harakati suyak bo‘g‘imlari harakatiga bog‘liq. Suyaklarning harakatlanuvchi, birlashgan qismlari bo‘g‘im, deb ataladi. Bo‘g‘im suyaklarni birlashtirib turuvchi mushakdir. Suyaklar bir-birlari bilan mustahkam qotirilmaganligi tufayli, ular bir-biridan uzoqlashishi, egilishi, tomonlarga burilishi va aylanishi mumkin. Bunday harakatga bo‘g‘imlar imkoniyat yaratib beradi: bir suyak botiq bo‘lsa, ikkinchisi bo‘rtma bo‘ladi va ular birlashadi.

Yelka bo‘g‘imi quyidagicha tuzilgan: yelka suyagining bo‘rtib chiqqan uchi kurak suyagining botiq yuzasi bilan birlashadi va ular erkin harakatlana oladi. Kurak, yelka va o‘mrov suyaklari mushaklar bilan o‘ralgan. O‘mrov suyagining ahamiyatli jihatni shundaki, u qo‘lning harakatiga ko‘maklashadi. Qo‘l harakatlanganda, yelka suyagining uchi yoysimon holatda bo‘ladi.

Yelka suyagining pastki qismi yo‘g‘onlashgan, bilak suyagi bilan birlashishi uchun g‘altaksimon maydoncha va sharsimon bo‘rtiq bilan ta’minlangan. Tirsakning chuqurchasi va bilak suyagining g‘altagi va boshchali bo‘rtmasi bo‘g‘im yuzasi ustida harakatlanadi va ular tirsak bo‘g‘imida birlashadi.

Tirsak suyagining pastki uchi ham yo‘g‘onlashgan va u kaft usti suyagi bilan birlashadi. Ingichka uchli bilak suyagi esa, aksincha, kaft usti suyagi bilan birlashmaydi. Har ikki suyak ham bigizsimon o‘sintalar bilan tugallanadi va ularga paylar birikadi. Bilak va tirsak suyaklarining birlashgan qismi bilak-tirsak bo‘g‘imini hosil qiladi.

Qo‘l bukilganida, unga yon tarafdan qaralsa, kaft ustidagi bo‘g‘imlar sezilib turadi. Bunda qo‘lning profil chizig‘ida birik-malarni aks ettiruvchi do‘mboqchalar ko‘tarilib turadi. Bilak, kaft usti suyagi, kaft suyagi asoslarining pastki uchidagi bo‘rtmalar va kaft suyaklarining boshchalari ushbu do‘mboqchalarni tashkil qiladi.

Bilak harakati, qo‘lning egilishi va bukilishini, ular yelka suyagining yumaloq qismi tagidan (suyak uchidagi yo‘g‘on qismidan) xayolan o‘tkazilgan ko‘ndalang o‘q bo‘ylab aylantirilganida ko‘rish mumkin. Qo‘l vertikal o‘q bo‘ylab ichkari va tashqari to-monga aylantiriladi. Bunda faqat bilak va kaft suyaklari birgalikda aylanadi.

Pastki qismlar tos suyagi bilan birlashadi. Balog‘atga yetgan odamning tos suyagi quyidagi to‘rt qismdan iborat bo‘ladi: ikkita nomi yo‘q suyak, dumg‘aza va dum suyak. Nomi yo‘q suyakning

turli qismlari quymuch, yopqich va qov suyaklari, deb ham ataladi. Yosh bolalarda ular alohida bo‘ladi.

Oyoq (odam tanasining pastki qismi) son suyagi, katta va kichik boldir suyaklaridan va oyoq-kaft usti, kaft suyaklari hamda barmoq falangalaridan tashkil topgan. Yuqorida sanab o‘tilgan suyaklar bir-birlari bilan bo‘g‘imlarda birlashadi.

Son suyagining sharsimon boshchasi tos suyagining yarim yumaloq chuquriga kiradi. Tizzaga yaqin yerda son suyagi biroz egiladi va tizza bilan uning orasida yassi burchak hosil bo‘ladi. Son suyagining pastki yo‘g‘onlashgan qismida dumaloq shakldagi ikkita bo‘rtma bo‘ladi. Bo‘rtmalar va chuqurchalar bo‘g‘im yuzasini tashkil etadi va uning ustiga tizza qopqog‘i o‘rnashadi. Tizza qopqog‘i dumaloqlar, baland burchagi pastga qaragan uchburchakli suyakdir. Qopqoq tepa tarafdan son suyagiga, pastki tarafdan esa, katta boldir suyagiga birlashadi. Katta boldir suyagi va son suyaklarining bo‘g‘im yuzalari tizza qopqog‘i bilan birgalikda tizza bo‘g‘imini hosil qiladi hamda ular mushak paylari bilan birlashadi.

Katta va kichik boldir suyaklari to‘piqda mahkam birlashadi. Ushbu suyaklarning do‘mboqlari sanchiqqa o‘xshab bir-biriga kiyiladi. Ular to‘piqdagi tovon usti suyagining yon tomoni bilan birlashadi. To‘piq butun tananing tayanch markazi bo‘lgan yoyni hosil qiladi. To‘piq tuzilishi odam yugorganidagi yoki sakraganidagi tana silkinishlarini yumshatadi. To‘piq yoyi old tarafdan oyoq kafti suyaklariga, orqa tarafdan esa, tovon do‘mbog‘iga tiraladi.

Yelka, tirsak, kaft usti suyagi, tizza va tovonlarning birlashishi inson tanasining tasvirini ishslash jarayonida asosiy e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan obyektlar hisoblanadi. Ularni ifodalashni bilish yosh rassomda inson tana tuzilishini, uning harakatini to‘g‘ri tasvirlash qobiliyatini shakllantiradi. Tanadagi asosiy nuqtalar shaklni ishslash, uning nisbatlarini aniqlash va inson tanasi harakatini tasvirlash jarayonida rassom uchun mo‘ljal vazifasini o‘taydi.

Umurtqa ustuni uch asosiy o‘zgarmas nuqtalarga ega. Ular tana asosi (tors)ning bukilish darajasini aniqlashda ko‘maklashadi. Tana asosi skeletining old tarafida quyidagi mo‘ljal nuqtalar mavjud o‘mrov suyaklarining birlashgan joyida ko‘krak suyagi oxirida tos suyagida yonbosh suyaklarning yuqori qismida juft nuqtalar; pastki qovurg‘alarning egilish joyida o‘mrov suyaklari tashqi uchlardida nuqtalar (ushbu nuqtalar yelka kengligini belgilab beradi).

Qo‘ldagi mo‘ljal nuqtalar yelka suyagi boshchasida yelka suyagining bo‘rtmasida bilak va tirsak suyaklari uchida joylashgan. Qo‘l kafqidagi asosiy nuqtalar bo‘g‘imlarning bo‘rtib chiqqan suyaklarida, shuningdek, barmoq uchlarida joylashgan.

Oyoqdagi mo‘ljal nuqtalar quyidagicha joylashadi. Tos suyagidagi yonbosh suyaklarda son suyagining katta bo‘rtmalarida tizza qopqog‘ida medial do‘ngligida tovon do‘mbog‘i ustida falangalar birlashgan joyda barmoq uchlarida. Ushbu nuqtalarning joylashgan o‘rni oyoqning tinch yoki harakatdagi holatini ifodalashda mo‘ljal vazifasini o‘taydi.


Yuqorida ko‘rsatilgan nuqtalardan tashqari tanada joylashgan boshqa nuqtalar tanadagi teri joylashuvi va izlarini tasvirlashda foydalaniladi, masalan, kindik, qorindagi chiziqlar va mushaklar. Asosiy nuqtalar qomatning alohida qismlari o‘lchamlari va nisbatlarini aniqlashda mo‘ljal vazifasini o‘taydi.

4.2. Tana a’zolarining nisbatlari

Plastik anatomiyada tana nisbatlarini o‘rganishning ikki yo‘nalishi ko‘rsatilgan: inson tanasi tuzilishini estetik idrok etish va uni anatomiya nuqtayi nazaridan baholash, shuningdek, amaliyotda qo‘llash hamda rasm chizishda qulay bo‘lishi uchun barcha o‘lcham va munosabatlarni bir tizimga tushirish.

Nisbat — bu qismlarning o‘zaro va butun tasvir bo‘yicha o‘lchamlari tizimi va u tasvirga estetik ifoda va mukammallik uyg‘unligini baxsh etadi. *Nisbatni his eta olish* — bu rasm chizish jarayonidagi eng zarur bo‘lgan xususiyatlardan biri. Chizilayotgan jismning nisbatlari qanchalik to‘g‘ri aniqlansa, rasm shunchalik asl ko‘rinishiga yaqin bo‘ladi. Odam tanasi nisbatlarini o‘rganish bo‘yicha maxsus qonun-qoidalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular yordamida tananing har bir alohida qismini bir tizim holatiga keltirish mumkin. Ushbu qonunlarni tuzish uchun inson tanasi haqidagi ma‘lumot doimo muhim bo‘lgan. Qonun rassomlar uchun naturaga qaramasdan model tasvirini chizishda qo‘l keluvchi vosita bo‘lishi bilan bir qatorda, tana nomlari bir-biri bilan uyg‘unlashuvchi insonning betakror obrazini yaratish yo‘lidagi harakat bo‘ldi, deyish mumkin.

Turli tarixiy davrlarda go‘zallik va mukammallik haqidagi tasavvur o‘sha davr rassomlarining mafkuraviy qarashlari asosida



62-rasm.

20 qismga bo‘lingan (62-rasm).

Misr qonuniga asosan inson tanasi quyidagi o‘lchamlarga ega bo‘lgan: tovon balandligi bitta o‘rtalik barmoq balandligiga, tizza qopqog‘ining yuqori qismidan qovuqqacha bo‘lgan oraliq esa, to‘rtta barmoq uzunligiga teng, deb hisoblangan. Qovuq butun tanani teng ikki qismga bo‘ladi. Tana markazi (pastdan yuqoriga tomon o‘lchanganida) o‘n bitta barmoq uzunligiga to‘g‘ri keladi. Ko‘krak so‘rg‘ichlari o‘n to‘rtinchchi va o‘n beshinchchi barmoqlar o‘rtasida joylashgan. Bosh uzunligi ikki o‘rtacha barmoq uzunligiga teng. O‘n yettinchi barmoqda burun uchi, o‘n sakkizinchchi barmoqda esa, peshana do‘ngligi joylashgan.

Shuning bilan birgalikda qadimgi Misrda inson tanasining nisbatlarini taqqoslashda yosh bolalar va o‘smirlarni hisobga olishmagan. Rassom ayol, erkak va bolalarning rasmini bir qonun asosida, faqat o‘lchamini o‘zgartirib ishlagan. O‘lchamlearning katta-kichikligidan insonning ijtimoiy nufuzini ko‘rsatishda foydalilanilgan. Shu sababli ham, fir‘avn yoki mashhur shaxsning rasmi

namoyon bo‘lgan. Ular o‘z asarlarida o‘sha davr, xalq va sinflar dunyoqarashini aks ettirishgan. Qadimdan inson tanasining o‘lchov birligi — moduli bo‘lib, tananing biron-bir qismi (bosh, kaft, barmoq, to‘piq, burun) tanlab olingan va unga boshqa barcha qismlar solishtirilgan.

Qadimgi Misrda rassomlar inson tanasi tasvirlashga katta e’tibor berishgan. Nati-jada, Misr rassomlari inson tanasining har bir qismini o‘lchab, o‘rganib, uning asosida qonun ishlab chiqishdi. Bunda ular inson tanasi qismlarini o‘lchashda matematik hisob-kitoblardan foydalangan. Qonunning yaratilishida Misr rassom-nazariyotchilari qomatning qismlarga nisbiy bo‘linishi tizimini yaratishdi. Unga ko‘ra, qismlar yordamida butun tanani va bir qism o‘lchami bilan ikkinchi qism o‘lchamini aniqlash imkoniy paydo bo‘ldi. Misr qonuniga ko‘ra, o‘lchov birligi sifatida qo‘lning o‘rta barmog‘i uzunligi qo‘llanilgan. Qomat

oddiy insonlar tasviriga qaraganda, bir necha bor katta qilib ishlangan. Qadimgi Misr san'ati, asosan, sinfiy tabaqalarni ifodalashga qaratilgan edi.


Shuni ta'kidlash lozimki, qadimgi Misr rassomlari bir tasvir doirasida jismga turli nuqtayi nazar bilan yondashishgan: masalan, tananing ba'zi qismlari old tomondan (bosh, oyoq), shu paytning o'zida boshqa qismlar (ko'z, yelka) yon tarafdan tasvirlangan. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, qadimgi asarlarning o'ziga xos jihatlari ham bo'lган. Asarlar ko'p asrlar davomida bir rangda, boshqa tus va ranglardan foydalanmasdan siluetda ishlangan.

Yevropa qonunlari — qadimgi yunon-rum an'analariga asoslangan bo'lib, ular Uyg'onish davri rassom-nazariyotchilarining asarlarida bizning davrimizgacha yetib kelgan. Mazkur asarlar birlik g'oyasi bilan sug'orilgan va ulardagi inson tasviri ideal me'yordarda ishlangan.

Yunonlar qadimgi Misr rassomchilik maktabining rasm ishslash usullarini egallab, inson tanasi tuzilishi muammosiga yangicha yondashishgan. Ularning ta'kidlashicha, hayotdagi eng ajoyib mavjudot, bu — inson: chirolyi qomatli ayol, mushaklari rivojlangan erkak. Tabiatni, insonning yalang'och tanasi go'zalligini o'rganib, ulardan shunchalik ko'p go'zallik va nafosat topgallarki, natijada, ular ma'budalar timsolini ham inson tasvirida ishlay boshlashgan.

Qadimgi Yunonistonda inson tasvirini tasviriy san'atning bosh bo'g'imi sifatida ta'riflab, inson tanasining barcha qismlarini sinchkovlik bilan o'rganib chiqishgan. Ular inson tanasi tasvirini ishlashda, an'anaviy qonundan foydalanib, san'atda yangi muammoni ilgari surishgan va uning yechimini o'z asarlarida ko'rsata olishgan. Ularning ta'kidlashicha, jahonda qonun-qoida hukmronlik qiladi va go'zallik mohiyati ma'lum tartib asosida (simmetriya, qismlarning o'zaro va butun jism bilan uyg'unlashuvi hamda matematik munosabatlar natijasida) vujudga keladi.

Miloddan avvalgi 432-yilda Poliklet inson tanasi qismlarining nisbiy qoidalari to'g'risida ma'lumot yozib qoldirgan. U inson tanasining yangi nisbiy bo'linishini o'rgandi va tasviriy san'at tarixida birinchi marotaba tananing yashirin dinamikasini bir oyoqqa tiralib turgan inson tasviri misolida ko'rsatib berdi. Ushbu muammoning yechilishi bilan inson tasviri real ko'rinishga ega bo'lди va ishlangan rasmlarda tiriklik va tabiiylik mujassamlashdi. Poliklet o'z nazariy



63-rasm.

qarashlarini tasvirlab berish uchun eramizdan avvalgi V asrda Dorifor ma'budasini yaratdi va ushbu asar rassomlarga namuna sifatida xizmat qildi (63-rasm). Keyingi davr rassomlari uchun ushbu asar o'ziga xos darslik vazifasini o'tagan. Ammo Poliklet qonuni haqida bizgacha yetib kelgan ma'lumotlar bir-biriga qarama-qarshi. Ushbu ma'lumotlarning ba'zilarida Poliklet o'lchov birligi sifatida kaftdan foydalangan, boshqalarida oyoqning tag qismi, yana ba'zilarida esa,

bosh balandligidan foydalangan, deb e'tirof etilgan.

Yunon rassomlari tasvirning tabiiyligiga katta e'tibor qaratishgan. Ular borliqni asl ko'rinishda tasvirlashga intilishgan. Natura bilimlar manbayi bo'lib xizmat qilgan va o'z navbatida rassomchilikdan ta'lif berish ham natura asosida paydo bo'lgan. Asosiy qoidaga ko'ra, inson — barcha jismlar o'lchovi. Ushbu falsafiy g'oya qadimgi yunon san'ati asosida shakllangan.

Uyg'onish davri, nafaqat, tasviriy san'at rivoji tarixi uchun, balki umuman, rasm chizish usullarini o'rganish sohasi uchun ham yangi davr bo'ldi. Bu davrda realistik rasmlar ishlashga, borliqni haqiqiy ko'rinishini tasvirlashga ishtiyoq tug'ildi. Uyg'onish davri ijodkorlari tabiat qonunlarini ochib berishga intilib, san'at va fanni bir-biri bilan bog'lash vazifasini o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishdi. Ularni qadimgi Yunon san'ati ruhlantirdi. Tasviriy san'at muammolari ustida mashhur rassomlardan Aberti, Leonardo da Vinchi, Dyurer va boshqalar shug'ullanishgan. Barcha san'atlarning durdonasi bo'lmish rassomchilikka bo'lgan hurmat-e'tibor yana tiklandi. Mikelanjelo Buanorottining fikricha, qalamtasvir yoki

chizgilar san'ati ham rassomchilik, ham haykaltaroshlik, ham me'morchilikning yuqori nuqtasi hisoblanib, qalamtasvir barcha ilmlarning ildizi va manbayidir. Shuningdek, ushbu mashhur rassom ham inson tana a'zolarining nisbatlarini mukammal ishlab chiqib, o'zining dunyoga mashhur asarlarini yaratib qoldirgan. Uning inson tana a'zolarining nisbatlari haqidagi chizmalarini 64-rasmda ko'rishimiz mumkin.


Me'mor Vitruviy nisbatlarni o'rganish chog'ida inson tanasi qismlarining quyidagi munosabatini hisobga olgan: bosh tana balandligining 1/8 qismi, yuz tana balandligining 1/10; yuz balandligi kaft uzunligiga teng, kaft qomat balandligining 1/10 qismiga teng. Bo'yin va bosh balandligi ko'krakdan boshlanganida qomat balandligining 1/6 qismiga teng. Boshning eng yuqori nuqtasidan ko'krak so'rg'ichlari joylashgan chiziqqacha bo'lgan oraliq qomatning 1/4 qismiga teng. Kindikning balandligi butun tana balandligining 4/6 qismiga teng. Boldir tizza qopqog'inining pastki qismigacha bo'lgan uzunligi model balandligining 1/4 qismiga teng. Tovon uzunligi model balandligining 1/6 qismiga teng.

Vitruviyning nisbatlar tizimi Uyg'onish davrida Chennino Chennini va Leonardo da Vinci tomonidan yangilangan hamda u to'g'ridan to'g'ri «qadimgilar kvadrati» nomli qonun bilan bog'liq. Ushbu qonunning Vitruviy ilgari surgan grafik ifodasi hozirgi kunga qadar mashhur bo'lib kelgan ko'pchilik Yevropa qonunlarining asosi hisoblanadi (65-rasm).

Leonardo da Vinci asosiy e'tiborni inson tanasi rasmini chizishga qaratdi. Bunda u qomatni to'g'ri shakllantirish, uning



64-rasm.



65-rasm.

muvozanat o‘qini aniq topish va harakat xususiyatini to‘g‘ri ko‘rsatib berish muhimligini ta‘kidlaydi. Ushbu shart bajarilganidan so‘ng, tana nisbatlarini aniqlashga kirishish kerak.

Leonardo da Vinci inson tanasi tasvirini chizish qoidalari ishlab chiqish chog‘ida, Vitruviyning nisbatlar tizimi — «qadimgilar kvadrati» tizimini shaklantirdi (unga ko‘ra, inson

tanasi uzunligi yoyilgan ikki qo‘l uzunligiga teng). U inson tanasi qismalarining nisbiy munosabatini o‘zida aks ettiruvchi rasm-sxemani ishlab chiqdi. Unda quyidagi munosabatlar ko‘rsatilgan: tizza qopqog‘ining pastki qismigacha bo‘lgan oraliq tana balandligining $\frac{1}{4}$ qismiga teng, jinsiy a’zodan peshanagacha bo‘lgan qism tana balandligining $\frac{1}{2}$ qismiga teng, jinsiy a’zodan ko‘krak so‘rg‘ichlarigacha bo‘lgan oraliq tana balandligining $\frac{3}{4}$ qismiga teng, to‘suyagi dastasidan jinsiy a’zogacha bo‘lgan oraliq tana balandligining $\frac{5}{6}$ qismini tashkil etadi, jinsiy a’zodan burungacha bo‘lgan masofa tana balandligining $\frac{11}{12}$ qismiga teng; markaziy chiziqdan qo‘lning boshlanish qismigacha bo‘lgan oraliq qomat balandligining $\frac{1}{8}$ qismiga teng; markaziy chiziqdan tirsakkacha bo‘lgan masofa qomat balandligining $\frac{1}{4}$ qismiga teng; markaziy chiziqdan kaftgacha bo‘lgan oraliq qomat balandligining $\frac{4}{10}$ qismiga teng.

Leonardo da Vinci qonuniyati asosida chizilgan inson tanasi tasviri uzun oyoqlar, kindikning past joylashuvi hamda uzunchoq yuz bilan ajralib turadi. Shuningdek, nemis rassomi Albrekt Dyurerning nazariy qarashlari ahamiyatli hisoblangani bois uning asarlari rassomchilik mashg‘ulotlарini o‘tkazish metodikasini rivojlanishiga turtki bo‘ldi. U turli inson turlari mavjudligi g‘oyasini ilgari surgan. A. Dyurer asarlari insonparvarlik tuyg‘ulari bilan sug‘orilgan. A. Dyurer o‘zining «Nisbatlar haqida ilmiy maqola»sining kirish qismida (1513) shunday yozgan edi: «Biror

narsani biladiganlar o‘z bilimlarini boshqalarga, ushbu bilimga muhtoj insonlarga ham o‘rgatsinlar¹.


A. Dyurerning «Inson tuzilishi nisbatlarini o‘rganish» asari ahamiyatga molik bo‘lib, u rassomning deyarli butun ijodiy faoliyatining asosi desak, xato bo‘lmaydi. A. Dyurer ushbu masala bo‘yicha barcha mashhur g‘oyalarni keltirib, ko‘plab rasm va chizgilar orqali ularga ilmiy izoh bergan. Rassom o‘z ijodiy faoliyati davomida inson tanasining tuzilishini matematik hisob-kitoblar hamda geometrik shakllar orqali tasvirlash yo‘llarini izlab topishga intilgan. A. Dyurer inson tanasini quyidagi nisbiy qismlarga ajratish g‘oya-sini olg‘a surgan: agar inson tanasi uzunligini 1 deb olsak, bosh uzunligi — $1/8$, tana asosi — $1/2$, qo‘llar (tirsakkacha bo‘lgan qismi) — $1/4$, ko‘krak kengligi — $1/6$, yelka kengligi — $1/4$, kaft kengligi — $1/10$, tovonlar — $1/6$, tos suyagining biroz pastki qismi butun tana uzunligining $1/2$ qismiga teng. U ayol rasmini ishlashga alohida ahamiyat beradi. Bu yerda A. Dyurer, nafaqat, tana qismlarining nisbiy bo‘linishi qoidalarini hisobga olgan, balki ajratish chiziqlaridan tasvirni ishslashda yordamchi vosita sifatida foydalangan.

Uyg‘onish davrining ko‘pchilik rassomlari — Rafael Santi, Mikelanjelo Buanorotti va boshqalar tananing qismlarga ajralishi qoidalari ustida ish olib borishgan. Lomasso qonuniga asosan, tana balandligi o‘n qismga bo‘linishining o‘ziga xos afzalliklari shundan iboratki, bunda tasvir anatomik nuqtalar bilan ko‘p hollarda mos keladi. Ushbu qonun uch tenglikni olg‘a suradi: *burun asosi — kindik; kindik — tizza bo‘g‘imi* hamda *tizza bo‘g‘imi va yer yuzasi*. Qo‘llar yoyilganda, tana uzunligiga teng bo‘ladi. Yelkadan o‘rtar barmoqqacha bo‘lgan qo‘l uzunligi yuz uzunligining to‘rt barabariga teng. Qonunning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda bo‘yin uzayishi hisobiga tana asosining qisqarishi ko‘rsatilgan.


Mikelanjelo o‘zining mashhur rasmlaridan birida bosh balandligini tananing $1/8$ qismiga teng, tizza qopqog‘ining chekkasini esa, tos suyagi va oyoq uchining o‘rtasi, deb ta’riflagan. Jan Kuzen bosh balandligining $1/4$ qismini o‘lchov biriligi (modul) sifatida qo‘llaydi. Unga ko‘ra, butun tana uzunligi 32 modulga teng.

Rus rassom-pedagoglaridan A.P. Losenko va V.K. Shebuyevlar nisbatlar ta’limotini ishlab chiqishdi. A.P. Losenko inson tana uzun-

¹ A. Дюрер. Дневники, письма, трактаты. 1-том. Л. —М., 1997, стр.14.



66-rasm.



67-rasm.

ligini sakkizta bosh va o'nta yuz balandligiga teng, deb ko'rsatadi. A.P. Losenko tananining kichik qismlarini o'lchab chiqishga intildi va bu albatta, o'ta aniqlikni talab etardi. 66, 67, 68-rasm-larda A.P. Sapojnikov tomonidan ishlab chiqilgan inson tana a'zolarining nisbatlari va tinch holatda hamda harakat davridagi ko'rinishlari aks ettirilgan.

XIX asrda olimlar va rassomlar antropologiya va statistika ilmlarining rivojlanishi natijasida inson tanasi, uning qismlari o'lchamlarini to'g'ri aniqlash imkoniyatiga ega bo'lishdi. Natijada, anatomiya va antropologiya sohasi vakillari anatomik jihatdan asoslangan yangi qonunlarni ishlab chiqib, ularda tananining turli qismlari modul sifatida qo'llanildi, masalan, Fritch qonunida modul — umurtqa pog'onasi.

Erkak kishi rasmida quyidagi muvozanat nuqtalari orasidagi tenglikka amal

qilingan: bosh cho'qqisi — engak, engak — so'rg'ichlar chizig'i, so'rg'ichlar chizig'i — kindik, kindik — jinsiy a'zoning pastki qismidan o'tuvchi chiziq, jinsiy a'zo — boldirning yarmi, boldirning yarmi — tizza bo'g'imi.


Ayol kishi tana balandligi bosh balandligining 1/2 qismiga teng. Bosh balandligiga teng bo'lgan masofa tananining yuqori qismidagi quyidagi tayanch nuqtalarni to'g'ri aniqlashga yordam beradi: bosh cho'qqisi — engak, engak — so'rg'ichlar chi-

zig‘i, so‘rg‘ichlar chizig‘i — kindik, kindik — sonlarning o‘rta birlashgan qismi. Tana balandligining yarmi taxminan tos suyagining yuqori qismi hisoblanadi.


Qadimgi rassomlarning inson nisbatlarini o‘rganishga qo‘shtigan yana bir hissasi shundan iboratki, ular insonning yoshidan kelib chiqib nisbatlarning o‘zgarishini kuzatishgan. Morfologik tadqiqotlar asosida metrik ma’lumotlar o‘rnatalgan va ularning natijalari alohida tasviriy did bilan ishlangan rasmlarda kuzatilishi mumkin.

Bolalarining tana nisbatlari yoshga ko‘ra, o‘zgarib boradi. Yangi tug‘ilgan chaqaloq boshining balandligi tana balandligining $\frac{1}{4}$ qismiga teng, qo‘llarning uzunligi tananing $\frac{2}{5}$ qismini, oyoqlari esa, $\frac{1}{3}$ qismini tashkil etadi. Go‘daklarda kindik — tananing o‘rtasi (balog‘atga yetgan insonlarda tananing o‘rtasi tos suyagining yuqori qismiga to‘g‘ri keladi). Yangi tug‘ilgan chaqaloqning bosh kengligi tos qismi kengligiga teng bo‘ladi.

Yosh ulg‘ayishi bilan tana nisbatlari ham o‘zgarib boradi. Bunda bir tomonidan butun tana va uning a’zolari kattalashadi, ikkinchi tomondan esa, tananing alohida qismlari o‘rtasidagi munosabat ham o‘zgaradi. Bosh balandligi faqat ikki barobar kattalashadi, tana asosi (tors) — uch barobar, qo‘llar — to‘rt barobar, oyoqlar, deyarli besh barobar, bo‘yin — yetti barobar, ko‘krak qafasi aylanasi uch barobar kattalashadi. Tana pastki qismining o‘sish darajasi tepe qismiga nisbatan ancha yuqori bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, ayol va erkak kishilar tana nisbatlarida ham farqlar mavjud. Ayol kishi qomati erkaklarnikidan past bo‘y, oyoq va qo‘llarning nisbatan qisqaligi, kichikroq yelka va keng tos qismi, kaft va tovonning kichikligi, boshga nisbatan yuzning kichikligi,




68-rasm.



69-rasm.

jag‘ va bosh chanog‘ining kamroq rivojlanganligi bilan ajralib turadi.

Odatda, erkaklarning yelkasi tosdan ancha keng. Ayol tanasi ingichka va nisbatan uzun bo‘yin va biroz tushgan yelkalari bilan xarakterlanadi. Ayollar ko‘krak qafasining yuqori qismidan ko‘krak so‘rg‘ichlarigacha bo‘lgan oraliq erkaklarnikiga nisbatan qisqa. Ayollarning oyoqlari qisqaroq bo‘lganligi sababli, ularning kindigi tananing o‘rtasi bo‘lib, u erkaklarnikiga nisbatan balandroqda joylashgan. Tizza chiziqlari ayollarda erkaklarnikidan pastroqda joylashadi. Ayollarning beli ko‘proq oldinga chiqqan, dumba mushaklari ichkariga tortilgan, ko‘krak qafasi qisqaroq (erkaklarnikiga nisbatan), qorin — uzunroq (69, 70-rasmlar).




70-rasm.


Inson tanasining mukammalligi va o'ziga xos xususiyati yana shu bilan izohlanadiki, agar yangi tug'ilgan chaqaloqning kindigi tanani teng ikkiga bo'lsa, katta odamlar (erkak va ayollar)ning bel qismi tanani «oltin kesishuv» tamoyiliga ko'ra, teng bo'lmanan ikki qismga ajratadi.

Oyoq-qo'l nisbatlari tana asosi yoki butun tana balandligi hamda oyoq va qo'lni o'zaro solishtirish orqali aniqlanadi. Qo'llarning uzunligi o'z o'lchamiga ko'ra, tana asosi (tors) uzunligiga yaqin. Tovon uzunligi tana balandligining o'rtacha 14—16 % ga teng. Ichki nisbatlar haqida so'z yuritadigan bo'lsak, oyoq-kaft suyagi yaxshi shakllanadi, barmoqlar esa, nisbatan qisqaradi. Tovon nisbatlarining o'ziga xos xususiyati uni kaft bilan solishtirilganida namoyon bo'ladi. Kaft va tovoni teng 10 qismga bo'lib, ularni alohida taqsimlab chiqamiz. Bunda quyidagi nisbat hosil bo'ladi: *kaft* — kaft usti suyagi 2 qismga teng, kaft suyagi — 3, o'rta barmoq — 5, *oyoq* — oyoq-kaft suyagi — 5, oyoq-kaft usti suyagi — 3, katta barmoq 2 qismga teng. Qo'l kaftining maksimal uzunligining yarmi o'rta barmoqning kaft-falanga birikkan joyiga to'g'ri keladi. Tovon maksimal uzunligining yarmi kaft usti suyagiga 1 yoki 2-barmoqning bosh suyagi birlashgan joyga to'g'ri keladi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, tasviriy san'at bilan shug'ullanishda o'quvchi-yoshlar odam plastik anatomiyasi, tana a'zolari insonning tinch holatda va harakat davrda qanday holatda bo'lishi to'g'-risida to'liq ma'lumotga ega bo'l-mog'i lozim. Quyidagi sxema va rasmlarda insonning muvozanati to'g'-risida ma'lumotlar berilgan (71, 72-rasmlar).



71-rasm.




72-rasm.

4.3. Boshning plastik anatomiyasি

Bosh morfologiyasini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, yuz tuzilishining turli-tumanligi, undagi qismlar va nisbatlar bosh suyagi bilan bog‘liq. 73-rasmda bosh suyagining tuzilishi va qismlarga ajralishi ko‘rsatilgan. Bosh va tana nisbatlari estetik idealni oldindan ko‘rsatib beradi; rassom nisbatlar yordamida turli tuzilishdagi inson tanasini chizish imkoniga ega bo‘ladi.

Yuqorida qayd etib o‘tilganidek, qadimgi an'analar, Uyg‘onish davrining tasviriy hujjatlari bilan bog‘liq ko‘plab zamonaviy qonunlar bosh balandligini o‘lchov vositasi sifatida qo‘llashni ko‘z-da tutadi.

Bosh balandligining tana balandligi bilan munosabati birinchi marotaba Vitruviy ijodida 1/8 deb ko‘rsatilgan. Ushbu nisbat keyinchalik Ch. Chennini va Leonardo da Vinchi ijodida ham o‘z aksini topdi. Boshning nisbiy o‘lchamlari



73-rasm.

Leonardo da Vinchi tomonidan haqiqatga yaqinroq qilib ishlangan va uning butun tana bilan munosabati o‘zida tabiiylikni mujassam-lashtirgan. Leonardo da Vinchi tomonidan ishlangan bosh rasmalaridan birida yuz va bosh balandligiga izoh berilgan. Og‘iz kengligi yuz tuzilishiga proporsio-nal ravishda og‘iz chizig‘idan engakning uchigacha bo‘lgan oraliq masofaga teng. Yuz kvadratni hosil qiladi va uning kengligi ko‘zlar-ning tashqi burchaklari oralig‘iga, balandligi — burunning yuqori chegarasidan labning pastki qismigacha bo‘lgan masofaga teng.

Leonardo da Vinchi yuz nisbatlari ustida ko‘p ishlagan va turlituman yuz ko‘rinishlarini tasvirlash uchun yagona sxema yaratishning barcha qiyinchiliklarini boshdan kechirgan. Shu sababli ham u o‘z ilmiy maqolasida shuni ta’kidlaydiki, agar tabiatda yuz tarkibiy qismlarini tuzishning yagona sxemasi mavjud bo‘lganida, insonlarni bir-birlaridan ajratib bo‘lmash edi, ammo tabiatda yuzning besh qismi shunchalik turli-tumanki, ularni birgina nisbiylik qoidasi asosida tasvirlashning iloji yo‘q.

Rasm chizishda shunday yo‘l tutish kerakki, bosh cho‘qqisidan engakkacha bo‘lgan masofa, ya’ni bosh butun tananing 1/8 qismiga teng bo‘lsin. Boshni uch qismga bo‘lish lozim. Peshananing soch o‘sgan qismidan bosh cho‘qqisigacha, lablardan engakning pastki nuqtasigacha hamda lablardan yuzning oxirigacha va soch o‘sgan qismgacha.

Albrext Dyurer boshning nisbiy shakllarini quyidagi sxema bo‘yicha tuzgan: bosh balandligi qomat balandligining 1/8 qismiga teng; yuzning kengligi va balandligi — 1/10; bosh balandligining yarmi (1/16) burun chegarasida joylashgan; bosh cho‘qqisining maydoni — boshning sochli qismi chegarasiga teng; peshana balandligi, burun uzunligi, burun osti qismi bir-biri bilan teng va ularning har biri qomat balandligining 1/32 qismini tashkil etadi.

Maxsus rasmlar orqali turli yoshdagagi odamlarning bosh va oyoq-qo‘llarining nisbiy o‘lchovlarini solishtirish kerak. Boshning ko‘z kosasining yuqori qismidan o‘tuvchi chiziq orqali ikki qismga bo‘linishi bosh nisbatlarining yoshga ko‘ra o‘zgarishini kuzatish uchun qulay vosita.

Erkak kishi yuzining balandligi (engakdan ko‘z kosasining yuqori chizig‘igacha) 26 mm teng; ushbu masofa, shuningdek, yuz kengligiga ham teng. Bunda yuz kvadrat shakl hosil qiladi. Bosh, 4 dyuymli miya qismi bilan birgalikda, 9 dyuymga teng.


Ushbu ikki qismning (miya va yuzning) o‘zaro nisbiy munosabati yosh o‘tishi bilan o‘zgarib boradi. Uch yoshli bolaning yuz va miya qismining nisbatlari 3:3, katta odamlarda esa, 4:5 ga teng. Bunda yosh kattalashishi bilan boshning yuz qismi miyaga nisbatan tez o‘sishini ko‘rishimiz mumkin. Burunning pastki chizig‘idan o‘tuvchi chiziq yuz balandligini teng ikkiga ajratadi.

Yosh o‘zgarishi bilan ko‘zning yuz kengligiga nisbatan o‘zgarishi juda kam bo‘ladi va u insonda butun umri davomida deyarli bir xil bo‘ladi; uch yoshgacha bo‘lgan bolalarda — 3 dyuym va kattalarda — erkak va ayollarda — 3 dyuym. Bu yerda shuni ko‘rishimiz mumkinki, rivojlanish davrida yuzning ko‘z joylashgan yuqori qismi pastki qismga nisbatan kengroq bo‘ladi. Boshning old tarafidagi ko‘rinishi chuqurligi yuz balandligi yarmining uchga ko‘paytirilganiga teng. U kattalarda ramka shaklidagi to‘g‘ri to‘rtburchakni hosil qiladi va uning balandligi 130 mm, chuqurligi 195 mm bo‘ladi.

O‘spirin, katta va keksa odam boshining bir-biridan farqlari bo‘lib, uch yoshli bolaning boshi to‘g‘ridan kuzatilganda kvadrating ichida, yon tomondan kuzatilganda esa, uchburchak ichida joylashadi. Buni mashhur rassom va nazariyotchi P.P. Rubens sxemasida ko‘rishimiz mumkin (74-rasm).


Katta odam boshining profilini (kvadrat) bilan solishtirsak, yuzning miyaga nisbatan tez o‘sganini ko‘rishimiz mumkin.

Ayollarda ko‘zning ichki burchaklari orasidagi masofa burun qanotlari kengligiga teng. Bolalarda esa, ko‘z ichki burchaklarining oraliq masofasi og‘izdan kattaroq, ammo burun qanotlari oralig‘idan kichikroq bo‘ladi. Bolalarning bo‘yin kengligi nisbatan kam o‘sadi (65 mm.dan 120 mm.gacha), kattalarda bosh suyagining ko‘ndalang diametri 145 mm.dan 170 mm.ga yetganida, bo‘yin ikki barobarga o‘sadi.



74-rasm.

Tasviriy san'at bilan shug'ullangan har bir yosh rassom bosh plastikasi, undagi muskullar tizimi, ayniqsa, insonning turli his-hayojon vaqtida mimika muskullari harakatlari va yuzdagi o'zgarishlarni aniq tasavvur etmog'i lozim (75-rasm).



75-rasm.

4.4. Gudonning «Ekorshe» anatomik bosh-modeli rasmini chizish

Odam boshi rasmini chizish — tasviriy san'at sirlarini o'rganish jarayonidagi eng muhim bosqichlardan biri. Odam boshi tasvirini ishlash mahoratini egallash uchun bosh suyagi bo'laklarini bilish, uning anatomik xususiyatlarini anglash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, inson portretini tasvirlashga kirishishdan oldin boshning gipsdan ishlangan anatomik (Jan Antuan Gudon modeli) «Ekorshe» modelini chizish maqsadga muvofiq.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, inson portretini tasvirlash mashqlari bosh suyagi bo'laklarini tahlil qilish va tasvirlashdan boshlanadi. Tirik boshni tasvirlashda esa, bularni bilish juda muhimdir. Bosh suyagi bo'laklarini tahlil qilishda chakka suyagi, jag' suyagi shakllarining xarakteriga, jag' suyagi o'simtasiga, pastki jag' va ensa (gardan)larga alohida e'tibor berish kerak. Shuningdek, katta ensa chuqurchasi va ellipsoid shaklidagi ikkita bo'rtib chiqqan qismiga e'tibor qaratish kerak. Bu suyaklarning hammasi bosh

suyagining umumiy xarakteri kabi har xil tomondan o'rganilishi kerak. O'quvchi uchun eng asosiysi bularni nazariy jihatdan o'qib, amaliy tomondan qo'lda qalam va qog'oz bilan ko'plab mashqlarda mustahkamlashi lozim. Shuning uchun ham barcha ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarida odam boshini chizishdan oldin birinchi topshiriq bosh suyagini uch holatda chizish mashqlari bilan boshlanadi (76-rasm).



76-rasm.


Bosh suyagini chizishda shularni nazarda tutish va xotirada saqlab qolish kerakki, u ikki qismdan: bosh suyagi qutisi — ensa, gardan va old qismlardan iboratdir. Ular turli shakl va o‘chamlardan iborat juda ko‘p bo‘laklardan tashkil topgan. Bosh suyagi qutisi oltita suyakdan tashkil topgan bo‘lib, ular o‘zaro tishsimon chocklar bilan biriktirilgan (ensa, orqa), peshana (old), ikkita tomon tepe suyagi va ikkita chakka (yon) suyaklar.

Old qismi ikkita ko‘z kosasi (chanog‘i, noksimon shakldagi burun kosasi, ko‘z kosasining ostidan jag‘ suyagi (jag‘ suyagi o‘simtasi bilan), ustidan qosh usti va chakka suyaklari qoplangan. Burun kosasi (noksimon chuqurchasi)dan yuqorigi jag‘ suyagi, pastdan esa, bosh suyagining old qismiga ikkita simmetrik o‘ng va chap bo‘laklardan iborat pastki jag‘ tutashadi. Bu suyaklar shaklining xarakteri va ularning qurilish xususiyatlariga va umuman, bosh shaklining xarakteristikasiga bog‘liqidir. Shuning uchun naturadan bosh suyagini chizishda, har bir suyakning umumiy shaklini eslab qolishga harakat qilish kerak. Chunki ular portret rasmini chizishda va tirik boshni tahlil qilishda muhim hisoblanadi.

Jag‘ suyagi va jag‘ suyagi o‘simtasi shaklining xarakteri va tirik bosh rasmini chizishda yonoqlar shaklini to‘g‘ri qurish va shu joyda qulq suprasi joylashishini nazarda tutish kerak. Jag‘ suyagi o‘simtasining kattaligi taxminan to‘rt enli keladi va jag‘ suyagi o‘simtasining uchi doimo qulq suprasi va (bukrisi) o‘rtasiga joylashadi. Jag‘ suyagi o‘simtasini ushlab ko‘rib, hamma ham u qulq suprasi o‘rtasiga kirib borishni o‘simtani barmoq bilan paypaslab ishonch hosil qila oladi. Bu narsani bilmagan o‘quvchi, odatda, qulqoni yo yonoqda, yo ensada aks ettirib, xato qilishi mumkin.

Ensa (gardan) suyagining so‘rg‘ichsimon o‘simtasi har qanday kishida yaxshi ko‘rinadi, u boshni yelka suyagi bilan tutashtiruvchi ko‘krak-o‘mrov mushaklarining birlashtiruvchisidir. So‘rg‘ichsimon o‘simtalarining joylashishiga mushaklar shaklining xarakteri va umuman bo‘yin tuzilishiga bog‘liqidir. 77-rasm, *a*, *b*, *d*, *e* da boshning turli nuqtayi nazar va holatlardagi sxemali tasvirlari ko‘rsatilgan:

- a* — dastlabki holat;
- b* — yon tomonga egilish holati;
- d* — orqa tomonga egilish holati;
- e* — old tomonga egilish holati.



77-rasm.

Asosi taqasimon shaklga ega bo‘lgan pastki jag‘ o‘z shoxchalari bilan yonoq o‘sintasiga kirib boradi va yonoqlar ustida o‘ziga xos xarakterdagи chuqurcha hosil qiladi. Bosh suyagi qutisining chakka oldi yuzalari ham ichkariga, yonoq suyagi o‘sintasi ichiga tortgan bo‘ladi, buni tirik bosh rasmini tasvirlashda hisobga olish kerak.

Peshana suyagi uchta katta yuzalardan tashkil topgan: birinchisi — peshana bugrilari bilan peshana o‘rtasi va peshana bugrilaridan chakka suyaklar tomondagи ikki yonboshi. Tik ko‘rinishga ko‘ra, peshana suyagi quyidagi qismalarga ajraydi: yuqori qismi — peshana bugrilari, pastki — qosh usti yoyslari (chiziqlari).

Bosh suyagi umumiy qonuniyatlarini o‘rganib olib, uning yoshiga ko‘ra, o‘zgarishlarini ham hisobga olish zarur. Bosh suya-

gining yoshiga ko'ra, o'zgarishlarini beshta davrga ajratish mumkin: *birinchisi* — tug'ilishdan yetti yoshgacha; *ikkinchisi* — yetti yoshdan jinsiy yetuklik yoshigacha (16 yosh); *uchinchisi* — o'n olti yoshdan 30 yoshgacha (to'liq o'sish va rivojlanish yoshigacha); *to'rtinchisi* — 30 yoshdan 60 yoshgacha va *beshinchisi* — 60 yoshdan katta yoshgacha. Yosh go'-daklarda kalla qutisining miya qismi pastki old qismiga qara-ganda ancha katta bo'la-di. Buni 78-rasmdagi mashhur rassom Piter Paul Rubensning yosh bola portretida ko'rishimiz mumkin.

Ikkinci davrda suyaklarning o'sish jarayoni sekinlashadi va old gardan suyaklarining o'lchamlari o'rtasidagi farq uncha bo'lmaydi. Uchinchi davrda peshana suyagi tez rivojlanadi, bosh suyagining miya qismi kengayadi va yuqoriga qarab o'sadi. Old qismi

uzunlashadi, yonoq suyagi yoylari keskin yozila boshlaydi. Kalla suyagi uzil-kesil, ya'ni katta kishilarga xos ravishda shakllanadi. To'rtinchi davrda suyaklar o'sishdan to'xtaydi va hech qanday o'zgarish sodir bo'lmaydi. Beshinchi davrda old qismi o'zgara boshlaydi, ya'ni kichrayadi, tishlar to'kila boshlaydi. Buning natijasida pastki jag' ko'tariladi, dahan keskin old to-monga turtib chiqadi, yuz qis-qaradi, bosh suyagining choklari qotadi. 79-rasmida insonning tishlari mavjud vaqtida hamda tishlari to'kilgandan so'nggi holatidagi ko'rinishi berilgan.



78-rasm.



79-rasm.

Rasm chizishda ushbu xususiyatlarini hisobga olish va ularni tasvirda ishonch bilan aks ettirish kerak. Ushbu misollar yana bir karra shuni tasdiqlaydiki, realistik yo‘nalishda rasm chizuvchi o‘quvchi uchun amaliy mashqlar bilan bir qatorda plastik anatomiyaga oid haqiqiy ilmiy bilimlar juda zarurdir. Tabiat va san‘at qonuniyatlarini bilmay turib, rassom odam tasvirini realistik tarzda tasvirlay olmaydi. O‘rta yoshda peshana suyagi kuchli rivojlanadi, old qismi uzunlashadi yonoq suyaklari yoylari keskin yozila boshlaydi. Inson keksayganda tishlari to‘kilib ketishi munosabati bilan dahan keskin oldinga turtib chiqadi, old qismi kichrayadi.

Odamning boshini tasvirlashda bosh suyagi qurilishi haqidagi bilimlardan tashqari rassom boshning yelka kengligi bilan tutashish qonuniyatlarini ham bilishi kerak. Buning uchun Gudonning anatomik «Ekorshe» namunasining boshni yelka bilan birlashgan holdagi turli nuqtalardan ko‘rinishining xomaki rasmini chizish foydadan xoli emas (80-rasm). Bosh suyagi qutisi yelka kengligi bilan yettita bo‘yin umurtqalari yordamida tutashadi. Bu umurtqalar

birining ustiga biri joylashgan bo‘ladi, lekin ular orasida bukiluvchan tog‘aylar bo‘ladiki, bir tomondan ularni birlashтирib tursa, ikkinchi tomonidan ularning harakatlanishiga imkon tug‘diradi. Birinchi umurtqa yuqorida bo‘lib unda bosh joylashgan va u *atlant*, deb nomlanadi. Bosh harakatga kelganda, atlant faqat bosh orqaga va oldinga egilgandagina ishtirot etadi. Uning yuqorigi o‘sintasi tish ko‘rinishida vertikal ravishda yuqoriga ko‘tarilib, atlant teshigiga kirib boradi hamda unda o‘q (o‘zak) rolini o‘ynaydi. Uning atrofida esa,



80-rasm.

bosh o‘ng va chap tomonga harakat qiladi. Yettinchi bo‘yin umurtqasining turtib chiqqan qismi yaxshi ko‘rinishi va odamning beldan yuqori qomatini chizishda mo‘ljal bo‘lib xizmat qilishi uchun ham muhimdir.

Odam qomatini chizish mashqlarida yettinchi bo‘yin umurtqasi va bo‘yinturuq chuqurchasi odamning tik turgan qomati muvozanatining o‘qini aniqlashda doimo mo‘ljal bo‘lib xizmat qiladi. Shu o‘rinda quyidagilarni eslab qolish kerakki, yettinchi bo‘yin umurtqasi yelkaning yuqori chetidan o‘tuvchi gorizontal chiziqda joylashadi. Bu qonuniyatni bilish bo‘yin rasmini to‘g‘ri chizish va boshni yelka kengligi bilan uyg‘unlashtirishga yordam beradi.

Ishga kirishishdan avval, o‘quvchilar dastlab tasvirning umumiy shaklini qog‘ozga tushirishadi. Topilgan o‘rta va yon chiziqlar asosida bosh suyagining umumiy ko‘rinishi belgilab olinadi. Bunda modelning shartli chegarasi burun ko‘prigi va ko‘z kosasidan o‘tuvchi hamda quloq darchalarigacha davom etuvchi yuz va miya qismlarining nisbatlari to‘g‘ri aniqlanishi lozim. Bosh suyaklarining umumiy shakli va qog‘ozdagи joylashuvi aniqlanganidan so‘ng, tasvirni ishlashga kirishiladi.

Bosh suyagining tasviri va uning simmetrik qismlari juft holda ishlanadi. Bosh suyagining ushbu holatdagi rasmini chizishda o‘quvchi mo‘ljal sifatida o‘rta chiziqdan foydalanadi. Chizuvchiga yaqin joylashgan ko‘z kosasining tashqi chekkasidan, yoysimon suyak burchagidan o‘tuvchi va pastki jag‘ burchagi bilan birlashuvchi shakl qirrasi bo‘yicha yuz va yon taraflar munosabati aniqlanadi. Alovida suyaklarning nisbatlari, miya qopqog‘i balandligi va kengligi, peshana suyagi, yonoq suyagi, jag‘lar o‘lchami katta qismlardan kichik qismlarga o‘tish tartibida ko‘zdan kechiriladi. Boshqacha qilib aytganda, qismlardan bo‘laklarga tartibida ish olib boriladi.

Bosh suyagi 4/3 burilishda tasvirlangani va simmetrik detallar har xil yuzalarda joylashganligi uchun ular o‘rta chiziqqa nisbatan turli oraliqlarda joylashadi. Masalan, o‘quvchiga yaqin bo‘lgan ko‘z kosasi uzoqdagisiga nisbatan perspektiva qonuniga asosan kattaroq ko‘rinadi. Yonoqlar va peshananing ikki qismi birinchi qismidan o‘lchami bo‘yicha farqlanadi. Parallel ko‘ndalang yordamchi chiziqlar birlashish nuqtasi tomon harakatlanadi, shuning uchun o‘quvchiga yaqin joylashgan suyaklar uzoqdagilariga nisbatan kat-

taroq ko‘rinadi. Rasm chiziqli-konstruktiv asosda biroz yorug‘-soya munosabatlari bilan chiziladi va bunda umumiyyadan qismlarga o‘tish tamoyildan foydalaniladi. Peshana suyagi va pastki jag‘ suyak, keyin yonoqlar va ko‘z kosalari, yuqori jag‘ va (noksimon) burun teshigi belgilanadi. So‘nggi bosqichda shakllar va bo‘laklarni umum-lashtirish vazifasi amalga oshiriladi. Chunki rasmni yakunlash jara-yonida qismlar nomutanosibligi yuzaga kelishi kerak.



a



b



d



e

81-rasm.

Bosh suyagi qismlari joylashuvining hajmli ko‘rinishini to‘liq tasavvur etish uchun vaqtı-vaqtı bilan, o‘rindan turib, modelni turli tomonlardan kuzatish va chizishni davom ettirish kerak. Bosh suyagi tasvirini chuqur o‘zlashtirib bo‘lingandan so‘ng Gudonning gips anatomik «Ekorshe» bosh shaklini to‘rt bosqichda tasvirlash muhimdir. Bundan asosiy maqsad — bosh suyagi rasmini chizishda olgan nazariy bilimlarni plastik anatomiyaga oid muskullar tuzilishi va ularning joylashishini ushbu modelda amaliy bajarishdan iborat.

Har doimgidek birinchi bosqich shaklini qog‘oz sirtida kompozitsiyaviy joylashtirish va uni chiziqli konstruktiv qurishdan boshlanadi. Ikkinci bosqichda shaklining bo‘laklari geometrik shakllar tarzida qurish bosqichi hisoblanadi. Uchinchi bosqichda bosh shaklining konstruksiyalari va plastik yechimi aniqlanadi. So‘nggi to‘rtinchı bosqichda bosh shaklining yorug‘-soya munosabatlari aniqlanib, vazifa yakunlanadi (81-rasm, *a*, *b*, *d*, *e*).

4.5. Gips modellarga qarab, bosh tasvirini chizish

Bosh shaklini chizishni o‘rganishning dastlabki mashqlarini gips modellar asosida amalga oshirish quyidagi sabablarga ko‘ra, tavsiya etiladi:

- yosh rassomga shaklini aniq ko‘rishga xalal beruvchi turli rang va tuslar (soch, soqol, ko‘z rangi va h.k.) mavjud emasligi tufayli;
- bosh va uning bo‘laklarida plastik shakllarining umumlashganligi sababli;
- shaxsiy va tushuvchi soya, jilva va yorug‘lik, aks yorug‘liklarning aniq ko‘rinishga ega bo‘lganligi.

Antik boshning davomli rasmi ustida ishlashning butun majmuyi ham tasviriy san’atning ustuvor tamoyili —umumiylididan xususiylikka va xususiylikdan yana umumiylikka, usul va uslubiga asoslanadi. Boshqacha qilib aytganda, naturaning butun qismlarini tahlil qilish orqali — umumiy shakl obrazini ifoda etish qoidasiga rioya qilish kerak. Bu tamoyil rasm chizish bo‘yicha chiqarilgan, hamma o‘quv dasturlarida o‘z aksini topgan va maxsus badiiy maktab, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlarida ham asos hisoblanadi. U barcha o‘quvchilarga (ularning davomli rasm chizish tayyorgarligi darajasidan qat’iy nazar) taklif etiladi va bajarish talab qilinadi. O‘quvchilar uni osonroq egallab olishlari va uning

mazmuni bilan yaxshiroq tushunib chiqishlari uchun tasvir ustida ishlashning murakkab majmuyi alohida-alohida bosqichlarga bo‘linadi. Bundan tashqari, uslubiy izchillikka rioya qilgan holda tasvirlash o‘quvchiga har bir bosqichni alohida tushunib yetishga va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anglashga imkon yaratadi.

Davomli tarzda rasm chizish jarayoni juda murakkab bo‘lib, bunda yetarlicha ish tajribasiga ega bo‘lмаган о‘quvchi ko‘pincha qiynalib qoladi. U eng avvalo, nimalarga e’tibor berish, o‘z imkoniyatlaridan qanday qilib oqilona foydalanishni bilmaydi va o‘z ishini lozim darajada tashkil qila olmaydi. Bunday o‘quvchi, odatda, nimani ko‘rsa, shundayligicha ko‘chirib qo‘ya qoladi. Tashqi shakl ko‘rinishidan diqqat bilan nusxa ko‘chiradi. Kerak-nokerak qismlarni ham ajratmay birdek tasvirlayveradi. Bo‘laklarga berilib ketib, ular naturaga juda o‘xshayapti, degan fikrda chizaveradi. Ko‘pchilik o‘quvchilar odam boshi rasmini chizar ekanlar, ishda uslubiy ketma-ketlikka rioya qilishmaydi, darhol murakkab vazifalarni bajarishga kirishadi va tez orada muvaffaqiyatsizlikka uchrashadi. Vaholanki, bosh rasm ustida ishlashning uslubiy bosqichlari ham o‘ziga xos xususiyatlarga egaki, ularni rasm chizuvchi, albatta, bilishi kerak.

O‘quv materialini yaxshi o‘zlashtirib olish uchun chizuvchi ushbu ish bosqichida muayyan darajada qaysi vazifani amalgaloshirishi, tasvir qurishning qaysi jihatlariga alohida e’tiborni jalb qilishi kerakligini tasavvur etishi zarur. Bunday o‘quvchi naturani kuzatuv va tahlil jarayoni hamda uning rasmni konstruktiv chizish-qurish jarayonida aniq tizimga rioya qilishi kerak bo‘ladi. Rasm ishlashning uslubiy izchilligidagi barcha nozik taraflarni «Apollon»ning gipsdan yasalgan haykali boshini chizish misolida ko‘rib chiqamiz. Biz rasm ustida ishlashning uslubiy ketma-kettigini bayon eta borib, bir yo‘la tirik odam bosh shakli qurilishining asosiy qonuniyatları va tasvirlash usullarini (jumladan, ishning texnik usullarini) o‘rganishda davom etamiz.

Birinchi bosqich — kompozitsiyaviy joylashtirish (82-rasm). Ish qog‘oz yuzasida rasm kompozitsiyaviy joylashtirishdan boshlanadi. Tasvirni yuzada qanday joylashtirish qulayroq bo‘lishini, qaysi nuqtadan turib qaralganda shakllarning qurilish xususiyatlari ifodaliroq ko‘rinishini bilish niyatida naturani oldindan har tomonlama o‘rganib chiqish lozim.

O'quvchi rasm kompozitsiyasini qog'oz yuzasida har taraflama to'g'ri va chiroyli joylashtirishga o'rganishi kerak. Shuning uchun tasvirlanajak gips bosh eng ifodali ko'rindigan nuqtani tanlash, unga kompozitsiya masalasini yaxshiroq, talab darajasida hal qilishga yordam beradi.

O'quv rasmni chizish-dan oldin o'quvchi bir qator xomaki chizgilar bajarib ko'rishi zarurki, ularda kompozitsiya masalasi hal etilsin. U eng qulay nuqtani tanlab olishi kerak, ya'ni duch kelgan joyga o'tirib, chizaverish maqsadga muvosiq emas. Vaholanki, biz ko'plab yoshlarda ana shuni kuzatamiz. Bundan tashqari, u o'zi chizayotgan vazifa oxir-oqibatda qanday ko'rinishga ega bo'lishini xayolan bo'lsa-da, yaqqol tasavvur qilishi lozim. Faqat shundan keyingina qalamni qo'lga olishi va rasmni qog'oz sathiga dadil joylashtirib ifodalashni boshlashi mumkin.

Ikkinch bosqich — bosh shaklining xarakterli xususiyati o'lcham munosabatlari, ya'ni nisbatlarini va boshning kenglikdagi holatini ochib berish (83-rasm). Bosh shaklining o'ziga xos xususiyatini ochib berishga kirishishdan oldin o'quvchi haykal-naturani diqqat bilan o'rganib chiqishi, shakl qurilishining eng muhim xususiyatlarini aniqlab olishi lozim. Bu o'rinda naturani idrok etish nihoyatda obyektiv, to'g'ri fikrlashlar asosida bo'lishi kerak, u subyektiv taassurotlar bilan emas, balki jiddiy ilmiy bilimlarga tayangan holda olib borilishi va tasvirlashga kirishishi kerak. Ma'lumki, naturani o'rganish uni bevosita diqqat bilan kuzatishdan boshlanadi. Rassom, eng avvalo, shaklning umumiyligi xususiyatini, boshning fazoviy holatini ilg'ab olib, shundan keyingina alohida qismlar va yaxlitliklar, o'lchamlararo farqlar nisbatlarini chamalab, aniqlay boshlaydi. Natura bilan oldindan bunday



82-rasm.



83-rasm.

batafsil tanishib chiqish obyektiv tahlil qilishga o'tish uchun asosiy sabab xizmatini o'taydi.

Bosh shakli tasviri qog'ozga qalam bilan juda yengil chiziqlarda belgilanib, nozik, umumiy va chiziqli konstruktiv tarzda aks ettiriladi hamda natura katta shakli umumiy qurilishining asosiy xususiyati ochiladi. Chunki qora chiziqlar xatolarni ko'ra bilishni qiyinlashadiradi. Bu xatolarni tuzatish esa, undan-da mushkul. O'quvchi bosh shaklini tahlil qilar va uni ifoda etar ekan, u eng avvalo, shaklning umumiy massasini, uning xususiyatini,

mutanosiblik, o'lchamlararo nisbatlarini belgilab, uni yuzaga chiqarishi lozim. Bosh shakli va uning umumlashtirilgan ko'rinishidagi o'ziga xos qiyofasini ocha borib, boshqa qismalar bilan taqqoslagan holda solishtirish usulidan foydalanishi lozim.

O'quvchi o'z qarshisida turgan bosh shaklining umumiy xususiyatini osonroq ilg'ab olishi uchun ko'zlarini salgina qisib qarashi kerak, shunda shaklning hamma detallari yo'qoladi hamda hajmnинг umumiy massasi ko'rish maydonida qolib, yaxlit holda idroklanadi. «Apollon» bosh shaklini kuzatib va umumiy ko'rinishini belgilab olib, uning har bir qismiga ozgina ko'z yogurtirib chiqish kerak. Asosiy yuzalar hamda boshning umumiy ko'rinishini aniqlash bilan bir paytda, shu yerning o'zida boshning turish holatini aniqlaymiz.

Boshning bo'yin bilan bog'lanishi haqida ham to'xtalib o'tishimizga to'g'ri keladi. Bosh kamdan kam hollardagina, bo'yin va yelka kengligisiz tasvirlanadi. Uning yelka kengligi bilan uzviy tarzda bog'lanmagan holati kamdan kam bo'ladi.

Boshning kenglik holati ishonchli bo'lishi, bo'yin harakati xususiyatini olib beradi va shuningdek, bo'yin harakati ham boshning kenglikdagi holatiga bog'liqdir. Buni kesik bosh namu-

nasini chizish orqali yana-da chuqurroq o'zlashtirib olish mumkin (84-rasm).

Dastlab boshning old qismini ikki teng va simmetrik qismlarga ajratuvchi profil chizig'ini belgilab olamiz. Bosh to'rtadan uch burilishda joylashganligi uchun yuz qismi perspektiv qisqarishda bo'ladi. Shu sababli profil chizig'i perspektiva qonuniyatiga ko'ra, uzoqdagi qismni qisqarishda (kichik), ya-qindagisini esa, katta qism-larga ajratishi kerak.

Profil chizig'ini belgilab oqanimizdan so'ng, uni uch teng qismlarga bo'lish kerak. Bunda biz o'lchamlar mutanosibligining klassik qonuniyatlaridan unumli foydalanamiz. Boshning old qismlari uch teng qismga ajraladi: soch qoplamasi pastki chizig'idan qosh usti yoymalarigacha, qosh usti yoymalaridan burun asosigacha va burun asosidan dahan tagigacha. Qosh usti yoymalaridan burun asosigacha bo'lgan kesim ham o'z navbatida uch teng qismga ajraladi: birinchi (qosh usti yoymalaridan) va ikkinchi qism o'rtasidan ko'z qismlari chizig'i o'tadi, u jag' suyagi, ko'z burchaklari va ko'z yoshi qopchig'i chocaklari kesib o'tadi. Burun asosi o'rtasidagi kesim ham uch teng qismga ajraladi: birinchi va ikkinchi qismlar o'rtasidan og'izning o'rta chizig'i o'tadi, u lablar kesim chizig'i, deb ataladi. Ko'zlar orasidagi masofa ko'z kattaligiga teng. Boshning ba'zi bo'laklari shaklini tasvirlashga hozircha e'tibor bermaymiz. Bu bosqichda faqat ularning joylashgan o'rnini aniqlaymiz, qismlar va yaxlitlik nisbatlarining to'g'riligini tekshiramiz. Ko'zlar, burun teshiklari, lablar o'lchamlarini ham hozircha chiziqchalar yoki nuqtalar bilan belgilab qo'yamiz, buning o'zi ularning joylashuvi va kattaligini aniqlash uchun yetarlidir. Shundan so'ng ishning keyingi bosqichiga o'tamiz.

Uchinchi bosqich, shaklning chiziqli konstruktiv asosini na-



84-rasm.



85-rasm.

moyon etish va perspektiva ko'ri-nishlarini ochish hisoblanadi (85-rasm).

Inson boshining tuzilishi kons-truktiv sxemasi bilan birinchi va ikkinchi bosqichda tanishib chiq-qanmiz. Endi uni ushbu vazifada to'rtdan uch qism burilishda, ufq chizig'i darajasidan balandroqda turgan boshda belgilab olishga harakat qilamiz.

Profil chizig'i peshana o'tasida qanshar, burun, lab bantlari va dahan o'tasidan o'tadi. Qosh usti yoylari, ko'zlar kesimi, burun asosi, lab va dahan kesimlari tuxumsimon bosh shakliga asosan biroz egilgan va yuqoriga qaratilgan. Bu chiziqlarning hammasi parallel bo'lishi kerak. Agar bu qonuniyatga rioya qilmasak, perspekti-vada katta xatolikka yo'l qo'yishimiz mumkin. Bunday holni bosh ras-mini chizish bo'yicha yaxshigina tajribaga ega bo'lgan rassomlarda ham kuzatishimiz mumkin. Boshning asosiy bo'laklarini tas-virlashga (ko'zlar, burunlar, soch tolalari va hokazolarga) kirishilar ekan, albatta, shakl asos-mazmu-nidan kelib chiqish kerak, ya'ni

burun — bu prizma, ko'z esa, shar, bo'yin esa, silindrikdir.

Uzoq muddat davom etadigan rasm ustida ishlashda chizuv-chining qarash nuqtasi butun rasm chizish jarayoni mobaynida o'zgarmay qolishi kerak. Buni quyidagi usul bilan tekshirilib boriladi — tasvirlangan obyekt bilan naturani solishtirish juda katta tezlikda amalga oshiriladi. Ushbu usulda uning xato va kamchiliklarini ham aniqlash imkonи tug'iladi.

O'quvchi bosh rasmini qurish jarayonida juft va simmetrik

shakllarning to‘g‘ri taqsimlanganligini alohida e’tibor bilan kuza-tishi kerak. Buning uchun quyidagilarni tavsiya qilish mumkin: birinchidan, juft va simmetrik shakllarni bir vaqtning o‘zida chizish lozim, ikkinchidan, har bir juft va simmetrik shakllar chetidan boshqasiga qarata parallel chiziqlar tortish lozim. Ko‘zlarning sharsimon shaklini ocha borib, ko‘z qovoqlarini darhol aniqlamaslik kerak, faqat ularning kengligi, qalinligi va har bir qovoqning yo‘nalishi belgilab olinadi.

Burun prizmasini qura turib, profil chizig‘ini qanshar va burun asosi o‘rtasidan o‘tkazishga harakat qilamiz. Burun prizmasining old yuzasi oldinga turtib chiqadi va burun uchi chap tomoniga o‘tadi. Burun qanotlari esa, profil chizig‘iga simmetrik tarzda joylashadi. Buruning old maydonchasi va burun teshiklari yaxshi ko‘rinadi. Shunga qarab burun teshiklarining qalinligini belgilab olinadi. Boshning ushbu holatida qosh ustining pastki tomonlari va dahanning yarim yoy ko‘rinishidagi yuzasi ochiladi. Burun uchini belgilab olib, so‘ngra uning burun asosi chizig‘idan qanchalik baland ekanligi aniqlanadi.

Lablarni qisqartirilgan holda chizamiz. Profil chizig‘i lablar kesimi o‘rtasidan o‘tadi. Hozircha lablar aniq chizilmaydi, balki ustki va ostki lablarning xususiyatlari, o‘lchamlari belgilab olinadi, ularning joylashishi diqqat bilan tekshiriladi. Buning uchun yordamchi chiziqlardan foydalанилди. Ularning ko‘magida lab-larning burchaklari burun qanotlari bilan qanday uyg‘unlash-gani topiladi. Burun asosi chizig‘idan ustki lab chetigacha bo‘lgan masofa tekshiriladi (lablar bantigi burun teshiklari oldiga yaqin bo‘lib qolmasligi uchun). Shundan so‘ng soch jingalak-lari lablar kesimi chizig‘iga nisbatan qanday joylashganligi aniqlanadi.

Soch tolalarining eng xarakterli bo‘laklarini yengil va yaxlit belgilab olinadi. Shuningdek, ularning ko‘z, burun, lablarga nisbatan joylashuvi doimo tekshirib boriladi. Bu ishlarning hammasini qalamni qog‘ozga qattiq bosmay, yengilgina chizish kerakki, zero aniqlangan xato va kamchiliklarni o‘chirg‘ich ishlat-may ham to‘g‘rilashning iloji bo‘lsin.

Keyingi bosqichga o‘tishdan oldin bajarilgan ish natijalarini diqqat bilan tekshirib chiqiladi va xatoni ilg‘agan zahoti uni keyinga qoldirilmay tuzatiladi. Har bir xato boshqasini keltirib chiqaradi

va ularni keyin tuzatishning iloji bo‘lmaydi. Ko‘pchilik o‘quvchilar tasvirni qurishda dastlabki bosqichlar muhimligini tushunib yetishmaydi, ular alohida unsurlarni chizib chiqishga shoshibil, tashqi o‘ziga xos xususiyatlarni qidira boshlashadi. Vaholanki, shaklning chiziqli-konstruktiv asosini chizib chiqish o‘quvchiga rasm ustida ishonch bilan ishlashni davom ettirish imkonini beradi. Shaklning konstruktiv sinchli asosini ochib berish davomida uni plastik jihatdan modellash va yorug‘-soya munosabatlarini yoritib aniqlashga shoshilmaslik kerak.

To ‘rtinchi bosqich — shaklni aniqlashtirish. Shaklning chiziqli konstruktiv asosini belgilab, rasm «abrisi» ko‘rinishiga aniqlik kiritish va uni shtrixlashga o‘tish mumkin. Endi burunning geometrik prizmasi o‘rniga uning haqiqiy murakkab shaklini naturada qanday ko‘rayotgan bo‘lsak, shundayligacha tasvirlash mumkin. Burun shaklining xarakteri, qanshardan ko‘z yoshi qopchig‘igacha bo‘lgan, burun uchidan burun qanotlari (teshiklari) uchigacha yon yuzalar chuqurligini diqqat bilan aniqlaymiz, burun teshiklari joylashgan quyi yuzasi ham shunday qilinishi kerak. Bu sathlarni soya-yorug‘ orqali aks ettirishimiz ham mumkin edi, lekin hozircha bunday qilmaslik lozim, chunki ko‘z, lab, dahan kabi bo‘laklar shakliga yetarida darajada aniqlik kiritilmagan. Binobarin, ularga o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin. Ishni davom ettirib, burun shakli xarakteriga aniqlik kiritma boramiz va uning prizmasi yuzasiga to‘g‘ri joylashganligini tekshiramiz. Burun prizmasi old yuzaga perpendikular joylashishi kerak.

Ko‘z shakli rasmiga aniqlik kiritishga o‘tar ekanmiz, ularning sharsimon ekanligini unutmaslik lozim. Ana shu shaklga ko‘z qovoqlarini joylashtirish kerak. Dastlab ko‘z soqqasini bosib turadigan yuqori qovoqlarni chizib chiqish kerak. Lablar shaklini chizayotganda yuqori lab ustidagi chuqurcha xususiyati va lab chetining burun asosidagi masofaga nisbatan bo‘lgan holatiga aniqlik kiritiladi.

Yuzalarni belgilashda shu narsani yodda tutish kerakki, shaklni kenglikda chegaralab turuvchi chiziqlar bir vaqtning o‘zida tus munosabatlari — yorug‘lik, yarim soya va soyalarning chekkasi ham bo‘lib qoladi. Shu bilan birga bir tekislik (yuza)ni ikkinchisidan ajratib turuvchi shartli chiziqlar, nafaqat, yorug‘lik va soya, balki yorug‘likda joylashgan shakldagi yanada nozik nisbatlar chegarasi

vazifasini o‘taydi. Shuning uchun bosh shaklining chiziqli — «sinchli» konstruktiv tasvirini qurayotganda, qalamni qog‘ozga qattiq bosmaslik kerak, chunki chiziqlar zarurat tug‘ilganda va shakllar aniqlangan holda tuzatishlar kiritish niyatida o‘chirilishi ham mumkin.

Boshdagи sochlarning ba’zi jingalak joylarini shakl xususiyatiga ko‘ra, oydinlashtirishga o‘tayotganda, dastlab ularning qanday joylashishini diqqat bilan belgilab olmoq lozim. Bu vazifani osongina uddalash uchun yordamchi chiziqlardan foydalilanadi.

Soch tolalarini chizish jarayonida ular bosh shakli bo‘yicha joylashishi va o‘zaro uyg‘unlashganligiga e’tiborni qaratib borish lozim. Rasmda ba’zi jingalaklar shaklini aks ettirish paytida, ulardan ko‘r-ko‘rona (passiv tarzda) nusxa ko‘chirib qo‘ya qolish yaramaydi. Dastlab jingalaklar guruhining umumiyl, yaxlit shaklini belgilab olish, shundan so‘ng esa, ularning har biriga aniqlik kiritish mumkin. Alovida jingalaklarni chizayotganda, ular katta shakldan ajralib qolmasligi kerakligiga e’tibor berilishi lozim. Ko‘pchilik o‘quvchilar jingalaklarni bosh shakli ustida joylashtirmay, ularning joylashish nuqtalarini belgilamasdan bir yo‘la ularning xarakterini chiqara boshlashadi. Natijada, soch jingalaklari bosh shaklidan uzilgan holda qandaydir mustaqil ahamiyat kasb etib, umumiyl shakldan ajralib qoladi va ular xuddi oddiy hajmsiz bezak kabi ko‘rinish beradi. Shuning uchun chiziqli konstruktiv rasmida barcha narsani aniq belgilab olmaguncha tus berishga shoshmaslik kerak.

Beshinchи bosqich — nur-soyalarning plastik tafsifi (86-rasm).

Bosh shaklining chiziqli-konstruktiv asosini belgilab olib nur-soya nisbatlari yordamida uning hajmini ochishga o‘tamiz. Bu o‘rinda chiziq va tuslarning o‘zaro bog‘liqligini saqlab qolish juda muhimdir. Chiziqlar bosh shaklini go‘yo bo‘laklarga ajratib turgandek bo‘ladi va nur, soya, yarim soyalarning chegarasi hisoblanadi.

Dastlab faqat soyalarni «shtrix»lab chiqamiz, bunda butun bosh va uning tarkibiy qismlari shaklining umumiyl xususiyatda ko‘rish yana tahlil qilish imkonи tug‘iladi. Noaniqliklar topilganda, tuzatishlar kiritish mumkin bo‘ladi. Chiziqli-konstruktiv rasmida plastik xususiyatlarni berish unchalik yorqin namoyon bo‘lmaydi, tus berilgan paytda esa, shakl hajmi bo‘rtib, ancha yorqinroq ahamiyat kasb eta boshlaydi.

Agar shaklni hajmli-konstruktiv qurilishi to‘g‘ri belgilanib



86-rasm.

olinsa, asosiy tus alomatlari — nur, soya va tushayotgan soya yordamida hajmni yuzaga chiqarishga o'tish mumkin. Masalan, biz burun shakli taf-silotiga to'xtaladigan bo'lsak, uning yorug'likka qaratilgan yuzasiga tegmaymiz, yorug'likdan uzoqlashayotgan burunning yon yuzasini esa, yarim soya bilan qoplaymiz. Burunning plastik yuzasidan yuqori lablarga soya tushadi, uni ham tus bilan ajratish kerak. Tushayotgan soya shakliga ani-qlik kiritilayotganda shuni esda tutish kerakki, tushayotgan soya

obyektning o'z shaklini ham, soya tushgan shaklini ham aks etti-radi. Sochlarni tasvirlashda ham shakl tuzishning ana shu usuli bo'lishi kerak. Soch tolalarini belgilashda va aks ettirishda, eng avvalo, sochlар turmagining yaxlit, umumiy massasini diqqat bilan kuzatish kerak. Chunki sochlар bosh shakli bo'yicha yotishi, uni qoplab turishi va shakl xususiyatini bo'rttirib ko'rsatishi kerak.

Sochlarning ba'zi jingalaklarini chizayotganda hajm haqida o'ylamay, ulardan ko'r-ko'rona, passiv tarzda nusxa ko'chirish yaramaydi. Muhim jingalaklarning umumiy xususiyatini belgilab olish va uni asosiy yuzalarga (yorug'lik, rcfleks, yarim soya va soya) ajratib chiqish lozim.

Antik bosh shakli rasmi ustida ishlashning bat afsil uslubiy izchilligini namoyon cta borib, shuni ta'kidlab o'tish joizki, dastlabki besh bosqich qalamni qog'oz ustida yengilgina yurgizib bajariladi, shunda tasvir qurishning har bir muayyan bosqichida tuzatishlar kiritish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, qo'llar erkin harakatda bo'lishi lozim, shundagina ish bir maromda kechadi.

Mahoratlari va yuqori o'zlashtiruvchi o'quvchi rasmni yengil hamda erkin chizib, ifoda eta oladi. Bunga muntazam ravishda aniq maqsadni ko'zlab faol ijod qilish va ko'plab amaliy mashqlar

bajarish orqali erishish mumkin. Tasvir qurishning dastlabki bosqichlarida iloji boricha kam vaqt sarflab rasm chiza bilish, ko'pincha mahoratga ega ekanlikdan dalolat beradi. Shuning uchun agar siz akademik mashg'ulotlarda tasvirni qurish uchun ko'p vaqt sarflayotgan bo'lsangiz, u holda uyda yoki rasm chizish bo'yicha qo'shimcha mustaqil dars soatlarida maxsus mashqlar bajarib turishingiz shart.

O'quv rasm chizish jarayoni professional mahoratning mustah-kam poydevorini qurish va pedagog-rassomni tarbiyalashda muhim bosqich hisoblanadi. Shu munosabat bilan yosh rassomning diqqat-e'tiborini yana bir jahhaga qaratish zarur. Ba'zi o'quvchilar ishning alohida bosqichlarini tahlil qilib, rasm ustida ishlashning unchalik to'g'ri bo'lmagan uslubiyatini «ixtiro» qilishadi. Ishning bir bosqichini (chiziqli-konstruktiv tasvirni) bajarib, undan keyin bu ishga qaytishmaydi va rasmga hech qanday tuzatishlar kiritilmaydi. Vaholanki, tasvir qurishning butun davomli jarayoni takomillashib borgan sari aniq ifoda kasb eta borishi kerak. Mana shuning uchun ham biz dastlabki bosqichlarda rasmi yengilgina, qalamni qog'ozga salgina tekkizib chizishni tavsiya etamiz.

Oltinchi bosqich — shaklni batafsil barcha mayda-chuydarigacha ishlab, poyoniga yetkazish va vazifaga yakun yasash (87-rasm). Qalamtasvir ustida ishlashning so'nggi bosqichida, eng avvalo, rasmning umumiy holatini tekshirib olish kerak (bo'laklarni umumiy shaklga bo'ysundirish, rasmni tuslash, to'q-ochlik nisbatlarini aniqlash, shu'la bilan yorug'lik, refleks bilan yarim soyani taqqoslash va boshq.). Chunki tasvirlangan shaklning ba'zi bo'laklari umumiy ko'rinishdan ajralib turtib chiqib turishi kerak emas.

Shundan so'ng hamma nar-



87-rasm.

sani o‘z o‘rnida yoki o‘rinda emasligi aniqlanadi. Shaklga har taraflama ishlov berishda undagi bo‘laklar joyidan siljitib yuborilgan bo‘lishi mumkin. Xatolarni ko‘rish oson bo‘lishi uchun rasmni uzoqroq masofaga qo‘yib, unga sinchkovlab qaraladi. Ayniqsa, tus berish munosabatlarini aniqlash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Bu o‘rinda naturadagi eng to‘q soya va eng yorqin joylarini yana bir karra aniqlab olish zarur va ana shulardan kelib chiqib, ularga yarim soyani taqqoslagan holda shaklni yaxlit yechimga kelтирish mumkin. Uzoq masofadagi rasm bo‘laklari kamroq, yaqindagisi esa, ko‘proq ishlanishi kerak. Agar uzoq masofadagi bo‘laklar oldinga «chiqib ketaversa», tus munosabatlari orqali ularni tus jihatdan pasaytirib qo‘yish lozim.

Shu narsani ta’kidlash lozimki, tasvirlash bosqichlarini ajratib, alohida bosqichlarga bo‘lib, ish yuritish shartdir. Amalda alohida bosqichlar o‘rtasidagi qat“iy chegarani o‘tkazish qiyin. Lekin o‘quvchi istalgan paytda yetarli darajada aniq bo‘lman yoki bundan oldingi bosqich vazifalari noto‘g‘ri hal etilganligini bilib olishi mumkin. Ishning bu bosqichida katta shaklni asta-sekin bo‘laklar bilan uyg‘unlashtirish jarayoni kechadi. Rasm chizuvchi umumiy shakl ko‘rinishiga moslab, katta shakl tahlilidan kichik shakllar tahliliga o‘tadi.

Bitta bo‘lakning o‘rni va kattaligini aniqlab, uni boshqasi bilan uyg‘unlashtirish kerak. Masalan, burun rasmini chizayotganda, uning ko‘z yoshi qobig‘i, jag‘ suyaklari, quloqlar, lablar bur-chaklariga nisbatan qanday joylashayotganligini nazardan o‘tkazib borishi kerak. O‘quvchi quyidagi qoidaga qat“iy rioya qilishi, ya’ni bo‘laklar rasmini chizayotganda ular boshqalari bilan, umuman, katta shakl bilan qanday uyg‘unlashayotganligini doimo tekshirib borishi lozim.

Shaklni tus orqali amalga oshirishda zarur bo‘lgan yerlarda reflekslar uchun qog‘ozda oq joy qoldirmaslik kerak. Avval soyaning oddiy vositalari — yorug‘lik, yarim soya, soya yordamida shakl hajmini chiqarib, ana shundan keyingina refleksga e‘tiborni qaratish, uni o‘rab turgan yuzalar tusiga kuch berish lozim. Hech qachon to‘liq tus berishga shoshilmaslik va qalamni qog‘ozga bosmasdan asta-sekinlik bilan ish yuritish kerak.

Ma’lumki, tajribasiz o‘quvchilar peshana, yonoqlar, dahan shakllarini tuslashda katta qiyinchilikka duch kelishadi. Yorug‘lik-

dan yarim soya va soyaga tus berib, bir tekisda o'tishda o'quvchi chegaralarning o'rnini aniq ko'ra olmaydi hamda ko'rinyayotgan jami narsalarни passiv tarzda ko'chira boshlaydi. Bosh shaklining umumiyl xususiyati haqida o'ylamaydi ham. Natijada, katta shakl bo'laklarga bo'linna boshlaydi va yaxlitlik yo'qoladi.

Ko'z shaklini tasvirlashda shuni yodda tutish kerakki, bu asosan sharsimon shakl bo'lib, u ko'z kosasi ichida joylashgan. Shuning uchun ham ko'z qovoqlarini chizayotganda, yuqori qovoqning pastki chetiga (ichkarisiga) diqqat bilan qarang: qovoqning yuqori chetini ko'z olmasidan tashqari yana ko'z yosh qopchig'i ham qoplagan. Agar biz ko'z shaklini vertikal yuza bilan kesadigan bo'l-sak, u holda kesma izi ana shu shaklning plastik tuzilishini, ya'ni uning uch o'lchamlilagini yaqqol ifoda etadi. Bundan tashqari, qovoq qalinligining qisqarishiga ham e'tibor qaratish zarur. Bu haqda bosh shakli detallarini chizishda alohida to'xtalib o'tilgan. Tasviriy san'atda shakl bo'laklarini batafsil ishslash, nafaqat, tasvirning to'g'ri chiqishida, balki uning ifodalini bo'lishini ham nazarda tutadi. O'quvchi shakl hajmidan tashqari yuza fakturasini ham oydinlashtirishga erishsa, tasvirning ifodaliligi yanada oshadi.

Gips bosh shaklini tasvirlashda talaba-yoshlar, odatda, rasmni juda qoraytirib yuborishadi. Bosh shaklining ayrim bo'laklarini soyada ishslashda, ular qalamni qog'ozga qattiq bosishadi, natijada, gips xususiyatini ochib bera olishmaydi. Shuning uchun ham qalamni qog'oz yuzasida qattiq bosmaslik xususida takror va takror aytib o'tish lozim. Shuningdek, tus berishda qat'iy ketma-ketlikka rioya qilish maqsadga muvofiqdir. Rasm chizish uchun yumshoq qalamlardan foydalaniлади. Bu rassomga o'z qo'lini mashq qildirib, uni qalamni boshqarishga o'rgatishda, albatta, qo'l keladi.


Rassom o'z mehnat qurollari bilan ishslash ko'nikmasini mo-hirona egallashi kerak. U qalamni o'ynata bilishi, kerak yerda qat-tiqroq bosib, kerak yerda qog'oz ustida yengil, nozik harakatlar qildira bilishi lozim. Bu esa, mustaqil ravishda tinimsiz amaliy mashqlar bajarishni taqozo etadi.

Shakl bo'laklarini modellashtirishni davom ettirib, har bir bo'lak shakl hosil qilishini diqqat bilan nazorat qilib, mayda-chuydalarga ahamiyat berilmaydi. Agar gipsdagi ana shu nuqsonlar ham, hatto uning ustidagi yopishgan kir va dog'lar ham qanday bo'lsa, shundayligicha ko'chirilsa, shakl plastikasi buziladi. Shakl-

ning plastik o‘ziga xosligini diqqat bilan kuzatib, bir shakldan ikkinchisiga o‘tishda shakl yuzasiga yorug‘lik qanday tushayotgанини doim e’tiborda tutish kerak. Bunda nur-soya to‘q-ochligi o‘zgarishlari ham rasm chizuvchiga tasvirda shakl tuzilishi mohiyatini ko‘rish va uni ochib berishda yordam beradi. Tasvirdagi biron-bir qismini modellashtirishda qog‘oz ustiga shtrixni yuzalar hajmining yo‘nalishi bo‘yicha yotqiziladi. Shakl xususiyatini bo‘rttirib ko‘rsatishga yordam bermaydigan ortiqcha chizgilar bajarilmaydi.

Shaklga tus berishda xuddi shakl yuzasini silayotgandek qalam uchini yurgizish kerak. Bir shakldan ikkinchi shaklga o‘tishda esa, biroz, xuddi «yo‘nayotgandek» bir shaklni ikkinchisidan ajratayotgandek qalamni ataylab bosib-bosib ishlating. Masalan, chuqurlikka kirib borayotgan burun teshiklarining yuzasini yen-gilgina qoraytirib va yonoqning lab burishmalari yuzasiga o‘tishda burun teshiklari shaklini yonoqdan «sanchib-sanchib» ajratish kerak. Agar bir shaklni ikkinchisidan aytganimizdek, bo‘rttirib «sanchib» ajratadigan bo‘lsak, hajm ancha ishonchli va namunali bo‘lib chiqadi.

Tus berishda nokerak bo‘yashlarga berilib ketmaslik kerak. Masalan, sharga ma’nosiz, o‘z o‘rnida ishlatilmagan tus berishlar uni ifloslanib qolgan doiraga aylantirib qo‘yishi ma’lum. Lekin



88-rasm.

bu — qalam bilan qoraytirishdan foydalaniб bo‘lmaydi, degani emas. Qoraytirishdagi tartibli ko‘-rinish tozalik, agar unga to‘g‘ri qaraydigан bo‘lsak, umuman zarar emas, aksincha, u har qanday qoidalari bajarilgan tasvirning ifodasidir.

O‘quv materialini yanada chuqurroq o‘zlash-tirish maqsadida yoshlari mustaqil ravishda antik davrga mansub gips boshning niqobini va yanada murakkabroq bo‘lgan «Dovud» bosh haykali rasmini chizishlari mumkin (88, 89-rasmlar). Shuning uchun sarishtalik, tasvirda ozodalikka rioya qilish tas-viriy san’atda doimo qadr-lab kelingan.

Rasm ustida ishslashning uslubiy izchilligi quyida-gilarga qat’iy rioya qilishni talab etadi:



89-rasm.

a) izchillikning buzilishi o‘quv materialini o‘zlash-tirishni sekinlashtiradi;

b) tartibsiz ravishda hech qanday tizimsiz o‘tadigan ish jarayoni o‘quvchiga rasm qurishning asosiy mohiyati va tasvir qurish qoidasini tushunib yetish imkonini bermaydi;

d) rasm ishslashda alohida bosqichlardan «sakrab» o‘tish yaramaydi. O‘quvchi ba‘zi bosqichlarni, o‘quv-akademik rasm chizish bo‘limlarini uslubiy jihatdan mustahkamlashga majbur;

e) dastlabki bo‘lim keyingi bo‘limning asosi va tarkibiy qismi hisoblanib, bularsiz o‘quv jarayonini o‘zlashtirib bo‘lmaydi;

f) vazifaning sodda yoki murakkab bo‘lishidan qat’iy nazar, u faqat planshet-taxtaga yaxshi tortilgan qog‘ozda bajarilishi shart.

4.6. Tirik odam boshi rasmini chizish

Birinchi bosqich — qog‘oz yuzasida tasvirning kompozitsion joylashishi, bosh shaklining umumiy xarakteri va proporsiyalarini belgilash.

Bochqichli rasm chizishga kirishishdan oldin, naturani har tarafdan ko‘rib chiqish va mazkur boshning xarakterli xusu-siyatlarini belgilab olish, eng qiziqarli nuqtani tanlab olish va ushbu nuqtadan rasm qanday ko‘rinish kasb etishini tasavvur qilib olish zarur. Buning uchun turli nuqtalardan turib, bir qator kompozitsion qalamchizgilar bajarib, ulardan eng ma’qul joyini tanlash lozim.

Avvalo, qalamni qog‘oz ustida yengilgina, bosmasdan harakatlantirib, modelning kompozitsion tuzilishini hal qila borib, boshning umumiy shaklini belgilab olimiz. Kompozitsion yechim ustida ishlab turib, bir yo‘la boshni sxematik tarzda belgilab olinadi. Bu perspektiv qonunlarni to‘g‘ri hal qilishga yordam beradi. Tasvimi qog‘oz ustida joylashtirib bo‘lingandan so‘ng bosh shakli xarakterini, boshning burilishi (holati)ni, uning bo‘yin va yelka kengligi bilan boshlanishini aniqlab olimiz. Geometrik shakllar, jumladan, kubni tasvirlash kabi, bosh rasmini chizishda ham uning, katta shaklining konstruktiv asosini ochishdan boshlash kerak.

Boshning old qismini yon qismlardan chiziqlar bilan belgilab olingenidan so‘ng, unga profil chizig‘i qo‘yiladi va naturaga qarab, uning yo‘nalishi tekshirib olinadi. Shundan so‘ng, old qismidagi burun, lab, ko‘zlar joylashgan o‘rinlarini aniqlaymiz. Profil chizig‘i yordamida alohida qismlar, yaxlitlik hamda umumiy boshning umumiy shakli ko‘rinishi proporsional nisbatliklarni ham aniqlab olish mumkin. Ushbu bosqichda eng asosiysi boshning umumiy ko‘rinishi va uning xarakterini to‘g‘ri belgilab olishdir. Bosh bo‘laklari (burun, ko‘zlar, og‘iz) faqat belgilab qo‘yiladi: ularga tus berishga shoshilish kerak emas, bularni keyinroq, hamma narsalar o‘z joyida belgilab qo‘yilgandan keyin bajariladi.

Tasvirga o‘zgartirishlar kiritish mumkin bo‘lishi uchun rasmni qog‘ozga qalamni yengilgina yurgizib tushiramiz va chiziqli-konstruktiv rasmga o‘tamiz (90-rasm, a).

Ikkinci bosqich — perspektiva va anatomik tuzilishni hisobga olgan holda bosh shaklini chiziqli-konstruktiv tasvirlash. Ummum bosh va uning bo‘laklarini chiziqli-konstruktiv tasvirlashga

o'tayotganda, hajm qanday tashkil topishini tasvirda ko'r-satishga harakat qilish kerak.

Har bir shakl yuzasi yori-tilganligiga ko'ra, turlichu tuslarga ega va shu yuzalarga yengil chiziqlar berib, butun bosh shakli, uning bo'laklarini ham to'g'ri va is-honchli chiqarishga harakat qilish lozim. Bosh shaklini chizishda shaklning konstruktiv asosini aniqlash vaqtida, bir yo'la bosh suyagi suyaklari bilan asoslangan shakl xarakteriga ham aniqlik kiritish kerak. Shaklni bunday tahlil qilish o'quvchiga boshning xarakterini to'g'ri ochib berishga imkon beradi. Shaklni yuza-da oddiydan murakkabga prinsipi bo'yicha tasvirlashda, bosh rasmini chizishning butun jarayonidan katta shaklni tasvirlashda detalli tus berishgacha bo'lgan jarayon, umuman boshni va alohida detallarni (burun, lab, ko'zlarni) tahlil qilishda ham so'zsiz bajarilishi kerak.

Ko'z, qulqoq, burun, lablar shakliga aniqlik kirita borib, doimo ular o'rtasidagi bog'liqlikni kuzatib turish lozim. Har bir bo'lak bir-biri bilan uyg'unlashishi maqsadga muvofiq va xalaqit bermagandagina yaxshidir. Ushbu holatda bunday o'zaro bog'liqlik qosh usti yoylari, ko'z kosasi, yuqori va pastki qovoqlarni birlashturuvchi yordamchi chiziqlar bilan ko'rsatilgan.

O'xshashlikni ochib berish uchun rassom ko'zlarning joylashishi xarakterini diqqat bilan kuzatishi zarur. Ko'zlar shunday joylashishi kerakki, unda ichki (ko'z yoshi qobig'i) va tashqi burchaklar gorizontal chiziqdagi bo'ladi. Bu holni slavyan irqiga xos bo'lganlarda kuzatish mumkin. Bizning mazkur topshirig'imizda, ushbu natu-radagi ayolning ko'z nigohi biroz pastga qaratilgan.

Odam boshini to'g'ri va ishonchli tasvirlash qulqoq suprasining to'g'ri joylashganligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Qulqoq rasmini



90-rasm. a.

chizayotganda, quloq suprasini pastki jag' suyagi (yumshoq joyi) unchalik yopib qo'ymasligini yodda tutish kerak. Yonoq suyagi o'simtasi doimo quloq suprasi o'rtasida joylashgan bo'ladi. Buni, biz avval aytib o'tganimizdek, har kim o'zida tekshirib ko'rishi mumkin. Yonoq suyagi o'simtasi ushlab ko'rilmaga, barmoq quloq suprasining o'rtasiga kirib boradi, yonoq suyagini paypaslayotgan barmoq esa, uning bukrisiga borib taqalishiga ishonch hosil qilinadi. Quloq ensa-ga yoki yonoqda chizilib qolmasligiga doim e'tibor berish kerak. Quloq suprasining joylashishini to'g'ri belgilash uchun quloq suprasining ustki jag' suyagi shoxchasiga parallel bo'lishligini kuzatib borish lozim.

Shakl xarakteri va quloq suprasining joylashuviga alohida e'tibor qarating. Har bir odamning quloqlari o'ziga xos tuzilishga ega. Quloq shakli qurilishining qonuniyatlarini bilgan rassom har bir detal xususiyatini osongina ilg'ab olishi mumkin.

Shuningdek, bosh shaklining bo'laklari burun, lab va ko'zlar harakatiga ham diqqat bilan e'tibor berish lozim. Bosh bo'laklarining xarakteri boshning o'z xususiyatiga bog'liq. Masalan, bu juda cho'ziq bosh yoki bu juda dumaloq yuz deyishganda, unga qismlar ham taalluqli bo'ladi. Burunlar ham turli-tuman tuzilishga ega bo'lishi mumkin. Ba'zilarning burni haddan tashqari qirg'iyl, uzun va osilgan, boshqalarniki esa, aksincha, juda kalta, kekkayan, qalin, qulupnay sifat, puchuq yoki peshana chizig'idan haddan tashqari turtib chiqqan bo'ladi. Shuningdek, ba'zilarda ko'zlar kirtaygan, ichiga cho'kib ketgan yoki chaqchaygan bo'ladi. Ba'zi kishilar ko'zlarini juda qisqa ochadilar va pastki qovoqlar yuqori qovoq tushgandagidan ham kattaroq bo'ladi; boshqalar ko'zlarini baqraytirganda, ko'z qorachig'i yaqqol ko'rindi. Ayrimlarning qoshlari ko'z ostidan ancha ko'tarilgan, boshqalarniki ko'z ustiga tushib turgan, kimdadir ular ingichka bo'lsa, boshqasinkida baroqqosh bo'ladi.

Ba'zi odamlarning lablari cho'chchaygan, boshqalarniki ingichka, osilgan; ba'zilarda ustki lab paski labga nisbatan ko'tarilgan (yoki aksincha), ko'pincha, qalinqoq bo'ladi; bir kishida burun ostidagi labi uzun bo'lsa, boshqasida kalta bo'ladi va hokazo. Shuningdek, ba'zilarning dahani yo'g'on, keng, katta bo'lsa, boshqalarda u juda kichik va uchli bo'ladi; ba'zan u orqaga, tomoqqa tortilgan yoki aksincha, tomoqdan ancha turtib chiqqan bo'lishi

mumkin va ba'zan ular uzun, ba'zan esa, kalta bo'ladiki, yuqorida aytib o'tilganidek, ular ko'ndalang chiziqlar bilan belgilana-di.

Bunday diqqat bilan kuzatish rasm chizuvchiga asarda naturachining individual xususiyatlari va portret o'xshashlikni ochib berish imkonini beradi. Yonoq va chaynash muskullari yaxshi rivojlangan, yonoqlari esa, kuchli bo'rtmaga ega ekanligini ko'-ramiz. Uni tasvirlash orqali, obraz xarakteristikasini kuchaytiramiz. Keng peshana muskullari o'ziga xos shaklga ega (90-rasm, b).

Uchinchi bosqich — tus berib shaklni detallashtirish (90-rasm, d). So'nggi bosqichga o'tib, shakllarni detallashtirishdan oldin vazifaning bosqichlari to'g'ri bajarilganini yana bir bor tekshirib chiqish darkor. Shaklning umumiyligi ko'rinishini yo'qotmaslik uchun tasvirga sekin-astalik bilan tus beriladi. Dastlab yengilgina tarzda asosiy soyalarни belgilab chiqiladi. Bu esa, bosh shaklini yaxlit ko'rish, aniqliklar kiritish imkonini yaratadi. Shundan so'ng yana umumiyligi shakldan kelib chiqqan holda yuz bo'laklariga o'tish mumkin. Alovida bo'laklarga aniqlik krita borib, shakl tuzilishi qonu-



90-rasm, b.



90-rasm, d.

niyatlariga diqqat bilan e'tibor beriladi. Masalan, ko'zlarni chizayotganda shuni esdan chiqarmaslik kerakki, ko'z soqqasining old bo'rtmasini muguz parda tashkil etadiki, uning orqasida markazdagi ko'z qorachig'i bilan rangdor qoplama turadi. Ko'pchilik talabalar ko'z qorachig'ini o'rtasida qora doirasi bo'lgan yassi disk sifatida tasvirlaydilar. Bu noto'g'ri. Markazdagi ko'z qorachig'i rangdor yassi qoplama emas, balki qabariq shaklga egadir. Ko'z soqqasini qovoqlar yopib turadi. Ko'z bir tomonga qaraganda, muguz qabarig'i yuqori qovoqlari ham o'sha tomonga, ya'ni odam qayoqqa qarasa, o'sha yoqqa buriladi. Shuning uchun yuqori qovoqlar chizilayotganda, uning tashqi va ichki tomonlariga diqqat bilan e'tibor berish lozim. Ushbu misolda naturachining nigohi to'g'riga va biroz pastga qaragan. Ko'z shaklini detalli chizib chiqishda, yorug'likning taqsimlanish qonuniyatlarini ham yodda saqlash lozim. Oddiy sharoitlarda yorug'lik yuqoridan tushadi va yuqori qovoq qalinligi soyada, pastkisi esa yorug'likda qoladi. Talabalar, odatda, yuqori qovoqning pastki yuzasi va pastki qovoq qalinligini bir xilda tuslashadi, ba'zan esa, qovoqlar qalinligi faqat chiziqlar bilan cheklanib qolib, umuman, ko'rsatilmaydi. Pastki qovoqni juda ehtiyyotkorlik bilan, qalamni qog'ozga tegar-tegmas qilib chizish kerak, ayniqsa, portret o'xshashligiga erishayotgan paytda.

Qoshlar rasmini chizishda jiddiy e'tibor zarur. Qoshlar xilmal bo'ladi, ular keng, tor, qalamqosh, baraqqosh, tekis, pastga qarab osilgan, chimirilgan, bir-biriga tutashib ketgan bo'lishi va portret xarakteristikasining aniq chiqishi qoshlarning ham to'g'ri yoritilishiga bog'liq bo'ladi. Ushbu vazifada naturachining qoshlari o'rtacha quyuqlikda va nozikdir.

Odamning tirik boshini tasvirlash jarayonida ko'pchilik o'quvchilar, shaklni detalli ishslash, rasmning badiiy ifodali chiqishida uning detallarini umumlashtira olishiga bog'liq. Shaklga detalli ishlov berish rasmning ifodali chiqishini oshiradi. Ishning ushbu bosqichda bosh shakli va uning detallariga aniqlik krita borib, bir yo'la tus berish masalasini hal qilish uchun ham asos tayyorlash kerak. Akademik rasmda, nafaqat, shaklning to'g'ri tasvirlanganligi, balki uning ifodali chiqqanligi ham qadrlanadi. Rasmdagi ifodali-lik tus berish vazifasini qanchalik to'g'ri hal etilganligiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Predmetning alohida yuzalari yoritilganligining o‘zgarishi ularning yorug‘lik manbayiga nisbatan kenglikdagi holatiga bog‘liq bo‘ladi. Tus yorug‘lik manbayining xarakteri (tabiiy — quyosh, oy nuri; sun’iy — elektr lampochkasi, sham) va yorug‘lik tushayotgan predmet rangi bilan o‘lchanadi.

Yorug‘lik (nur) jism yuzasiga tushar ekan, u tus kuchini belgilaydi. Yuzalarning yorug‘lik manbayiga nisbatan turganiga qarab tus xarakteristikasi ham o‘zgaradi. Yoshlar ko‘pchilik hollarda, ayniqsa, tirik odam boshini chizishdek murakkab vazifani bajarishda ko‘p chalkashadi. Ular bosh shakliga tus berayotganida yorug‘-soya gradatsiyasini, binobarin, hajmning yoritganlik darajasini ilg‘ab ololmaydi. Masalan, ular qora sochlarni tasvirlayotganlarida, bu sochlarni darhol bir tekis, bir xil rangga qoplab, qayerda soya, qayerda yarim soya va qayerda yorug‘ bo‘lishligini ko‘rsatishmaydi. Vaholanki, qora sochlarga tushgan yorug‘lik xuddi, aytaylik, burun uchiga tushgan yorug‘lik kabi bo‘lishi mumkin.

Juda ko‘p hollarda naturani uzoq vaqt davom etadigan jarayonda tasvirlash natijasida talabada his etish (qabul qilish) jo‘shqinligi susayadi, u naturadan passiv ravishda nusxa ko‘chirib, o‘zi chizayotgan rasmini «bo‘yab tashlashga» o‘tadi. Ushbu kamchilikning oldini olish uchun ma’lum bir bo‘lak ustida uzoq ishslash kerak emas, chunki qabul qilish (his etish) jo‘shqinligi yo‘qola borib, tasvir o‘quvchining hissiyotiga salbiy ta’sir eta boshlaydi. Undan ko‘ra, boshqa, yon-atrofdagi qismni chizishga o‘tish kerak. Avval qilingan ishga yana qaytilganda chala qolgan joylarni ko‘rish oson bo‘ladi.

Vazifani tugatish bosqichi eng qiyin va davomiydir. Bunda o‘quvchi model shakliga tus berishda bir yo‘la uning materiallik tomonini ham ochib tuslay olsa, rasmning ifodaliligi yanada ortadi. Masalan, agar u naturachi ko‘zining shakli va xarakterini to‘g‘ri tasvirlasa-yu, ko‘zlariga joziba bermasa, uning chizgan rasmi yetarli darajada ifodali chiqmaydi; u ko‘zlarni tasvirlar ekan, kiprik va teri, shuningdek, namlangan ko‘zlar jozibasi kabi omillarni to‘g‘ri ochib bersa, portretning ifodaliligi yanada ortadi. Ko‘zlar jozibasi deganda, shu narsani tushunish kerakki, ko‘z soqqasi doimo ko‘z yoshlari bilan namlangan bo‘ladi. Agar rassom ularni tasvirda ochib bera olmasa, u odam ko‘zining ishonchli va ifodali chiqishiga erisha olmaydi.

Shaklga tus berib va materiallikni ocha borib, sekin-asta soch, qoshlar tusi kuchaytiriladi. Rasmda materiallikni ocha borib, shaklning plastik xarakteristikasini aniqroq ifodalashga harakat qilish lozim. Oxirgi bosqichda qilingan ishga umumiy yakun yasaladi. Shu yerning o‘zida tasvirning holatini tez-tez tekshirib borish lozim. Qilingan ishga yakun yasash bosh nisbatlari, shakl xarakteri, hajm ifodasining ishonchliligi va tus berish nisbatlarining to‘g‘ri ekanligini tekshirishdan boshlanadi.

Eng avvalo, rasmning uyg‘unlashuvini tekshirish kerak. Shaklni detallash jarayonida siz rasmni surib yuborgan bo‘lishingiz, detal-lar o‘zaro bog‘lanishini yo‘qotgan, shaklga tus berish jarayonida anatomik tuzilishga putur yetgan bo‘lishi mumkin; ehtimol biror joyda unga yangidan chizgi berish, kontur bo‘yicha esa, ifodani bo‘rttiruvchi chiziq tortish kerak bo‘lar. Shuningdek, har bir detal shakli xarakterini tekshirib chiqish zarur, chunki ular, nafaqat, bosh shaklining umumiy strukturasini to‘g‘ri ifodalash uchun, balki odamning obrazli xarakteristikasini bo‘rttirib ko‘rsatish uchun kerak.

Shundan so‘ng tus berish vazifasining to‘g‘ri hal etilganligini tekshirish darkor. Bu o‘rinda naturada eng to‘q va eng yorug‘ joylarni belgilab chiqish, ularni yarim soyaga taqqoslagan holda tasvirni umumiy yaxlitlikka keltirish lozim. Detallarga ishlov berilish darajasiga alohida e’tibor qilish zarur. Tasviriy san‘at qonun-qoidalariga ko‘ra, uzoqdagi detallarga kamroq, yaqindagilarga esa, ko‘proq tus berilishi lozim.

Qilingan ishlarga yakun yasalayotganda, reflekslar yorug‘lik bilan bir xil tusda to‘lib qolmasligi, qattiq qoraytirib yuborilgan soyalar «darcha» hosil qilmasligi, uzoqdagi yorug‘lik va soya kontrastlari oldinga «chiqb» qolmasligini tekshirib olish zarur. Bunday xatoliklarni tezroq ilg‘ab olish uchun tasvirga ko‘proq va uzoqroqdan turib qarash kerak. Tirik bosh rasmi ustida ishlashning metodik ketma-ketligi haqidagi masalaga yakun yasab, shu narsani yodda saqlash kerakki, ishning har bir bosqichiga yetarli darajada vaqt ajratilishi lozim.

Tasvir qurishning metodik ketma-ketligini o‘zlashtirib olish — boshlovchi rassomga ishonch bilan, uzlusiz, har bir bosqichni alohilda ravishda qanday hal etilishini bilgan holda ish-lash imkoniyatini beradi. Rasm ustida ishslashning amaliy tajribasini egal-

lagan yosh rassom yakuniy natijani oldindan ko‘ra bilish ko‘nikmasiga ega bo‘la boshlaydi. Lekin oldindan ko‘ra bilish ko‘nikmasiga ba‘zilar o‘ylaydigandek, har kim o‘z holicha emas, balki pedagog yordamida, butun tasvir qurish jarayonini bosqichma-bosqich o‘zlash-tirish natijasidagina ega bo‘ladi hamda mustaqil ravishda ko‘plab amaliy mashqlar va usta rassomlarning ijodiy ishlarini tahlil etib, nusxalar olish orqali mumkin. 91-rasmda mashhur usta rassom V.Y. Savinskiyning «Keksa portreti»ni misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin.



91-rasm.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Katta shakl nima?
2. Analiz va sintez nima?
3. Pedagogik rasmning oddiy rasmdan farqi nimada?
4. Buyumda yorug‘likning tag simlanish qonuniyatlarini bayon eting.
5. Tabiiy va sun‘iy yorug‘lik nurlarining buyumga tushishi natijasida hosil bo‘lувчи soya-yorng‘lik munosabatlari to‘g‘risida ma’lumot bering.
6. Tus nima? Buyumdagи tus munosabatlari to‘g‘risida so‘zlab bering.
7. Buyumlarga shakl berish tartibi to‘g‘risida so‘zlab bering (kub, shar, silindr va boshq.).
8. Qalam, ko‘mir, sangina bilan ishslash texnikasini izohlang.
9. Odam boshi shakli tuzilishi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
10. Profil chizig‘i nima?
11. Odam boshi shakli bo‘laklarining nisbatlari to‘g‘risida tushuncha bering.
12. Odam bosh suyagi tuzilishi xususiyatlari qanday?

13. Odam boshi shaklini uslubiy izchillikda ishlash tartibi qanday?
14. Burun shakli tuzilishi qonuniyatlarini misol bilan bayon eting.
15. Ko‘z shakli tuzilishini rasmda chizib ko‘rsating.
16. Boshning asosiy muskullarini sanab o‘ting. Ular qanday shaklga ega?
17. Odam boshi tuzilishini sxema asosida chizib ko‘rsating (3/4 holatda, bosh ufq chizig‘idan yuqoridagi rakursda).
18. Ko‘zni kesib o‘tuvchi chiziq haqida ma’lumot bering. U qayerdan o‘tadi?


5-bob. GAVDA SKELETI TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

5.1. Gavda skeleti nima? Gavda suyaklari, bo‘g‘imlari, birlashmalari, harakatlari va ularning plastikasi

Inson skeletining qalamtasviri. Inson qomati rasmini chizish skelet va uning asosiy qismlari tuzilishini o‘rganish bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun skelet tuzilishi bo‘yicha dars mashg‘ulotlarini o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Skelet tirik odam (yoki anatomik model) pozasiga yaqin pozada, tik turgan holatda, har ikki qo‘li pastda turgan holatda va ikki oyog‘iga bir xil tayanib turgan hola-tida joylashtiriladi (92-rasm): 1—bosh suyagi; 2—bo‘yin umurtqalari; 3—ko‘krak qafasi; 4—yelka suyagi; 5—tos suyagi; 6—umurtqa pog‘onasi; 7—son suyagi; 8—tirsak suyagi; 9—bilak suyagi; 10—qo‘l panjalari suyagi; 11—katta boldir suyagi; 12—kichik boldir suyagi; 13—oyoq panjalari suyagi.

Skelet inson tanasining konstruktiv va dinamik ko‘rinishi bo‘lib, u harakatlanuvchi asos vazifasini o‘taydi. Odamning harakatlanishi, yurishi, yugurishi, mehnat qilishi, sport bilan shug‘ullanishi va h.k.lar ushbu konstruksiyasining tuzilishiga bog‘liq.

Suyaklarning birlashgan joyi (bo‘g‘im va birikmalar) o‘zaro harakati mushaklarga boshni burish, tana asosini egish va bukish, qo‘lni ko‘tarish va tushirish, kaftni mushtum holatiga



92-rasm.

keltirish hamda har bir barmoqni alohida harakatga keltirish imkonini beradi. Rasm chizish chog'ida o'quvchilar e'tibori tors (tana asosi), bosh va qo'l-oyoqlarni harakatga keltiruvchi bo'g'imlarning turli-tumanligiga qaratiladi. Harakat davomida bo'g'imlarning ahamiyatini amaliy jihatdan tirik odam misolida ko'rsatish mashg'ulotni yaxshi o'zlashtirilishiga turtki bo'ladi. Bu rassomlar uchun skelet va tirik inson tanasi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini yaxshiroq anglab yetish imkonini beradi.

Tasviriy san'atning barcha turlarida bo'lgani kabi, inson skeleti ham ma'lum ketma-ketlik asosida chizilishi kerak. Avvalo, qog'ozga tasvirning umumiyligi holati va joylashadigan o'rnini ko'rsatuvchi yengil shtrixlar chiziladi. Skelet balandligi vertikal bo'yicha o'mrov suyagidan (to'sh suyagi tutqichidan) tovongacha bo'lgan oraliq hisoblanadi va u belgilab qo'yiladi. Oyoqlar joylashuvchi yuzada gorizontal tekislikdagi oyoq o'rnini ko'rsatuvchi perspektiv to'g'ri chiziqlar chiziladi. So'ngra skelet balandligini oyoq suyaklarini birlashtiruvchi chiziq orqali ikkiga bo'linadi, o'mrov suyaklarini birlashgan joydan esa, ikki yelka suyagini birlashtiruvchi chiziq tortiladi.

Vertikal chiziqning yuqori uchidan pastga tomon butun tana balandligini hisobga olgan holda bosh balandligi aniqlanadi va shundan so'ng butun skeletoning balandligi kelib chiqadi. Son suyaklarining do'mboqlari o'rtasidagi oraliq masofa va o'mrov suyaklarini holati o'zaro va butun skeletonga nisbatan solishtirib aniqlanadi. Aniqlangan son suyaklarini chiziqlari uchidan pastga, oyoqning tizza bo'g'imlari tomon yo'nalgan to'g'ri chiziqlar o'tkaziladi. Tizza bo'g'imlaridan esa, tovongacha chiziq tortiladi.


Shundan so'ng skeletonning yuqori qismining shakllarini ishlashga o'tiladi. Son chizig'i asosida tos suyagi, uning balandligi va umumiyligi shakli (trapetsiya) aniqlanadi. Dumg'azadan (tos suyagining eng pastki qismida joylashuvchi qismidan) boshlanuvchi va bosh suyagigacha davom etuvchi umurtqa pog'onasi yo'nalishini ko'rsatuvchi chiziq chiziladi. Yuqorida aniqlangan bosh suyagi balandligi butun bosh suyagini chizishda asos bo'lib xizmat qiladi. Shundan so'ng, bosh suyagining burilish burchagini ko'rsatuvchi bo'yin suyagi chiziladi.

Ko'krak qafasi shakli va o'lchamlari umumiyligi belgilanadi —

umurtqa pog'onasi yuqori qismidan yelka suyaklari o'tuvchi to'sh suyagigacha. Rasmda orqa tarafdan ko'krak qafasi ustida yotuvchi kurak suyaklarining umumiyligi ko'rinishi yengil chiziqlarda belgilab olinadi. Shundan so'ng qo'l suyaklariga mos keluvchi sxema chiziqlari — yelka chiziqlari oxiridan kaftgacha, kaftdan kaft usti suyaklarigacha chiziq chiziladi.

Skelet chizishdagi ketma-ketlikni pedagog skeletdagi suyak va birikmalar asosida tushuntirib beradi. Bunda u quyidagi asosiy nisbat munosabatlarini eslatib o'tishi kerak, odatda, pastga tushirilgan qo'l son suyagining o'rtasigacha cho'ziladi, son suyagi uzunligi jihatidan boldir suyagi bilan deyarli bir xil, yelka va tirsak suyaklari ham bir-biriga teng deb olinishi mumkin. Bosh suyagining butun skeletga nisbati esa, 1:7 yoki 1:7,5 nisbatda bo'lishi mumkin.

Rasm chizishdagi ketma-ketlik va tizimlilik rassomda tashkiliylik hamda ixchamlilik xususiyatlarini shakllantirib, kelajakda insonning turli holatlari tasvirini chizishda san'at asarlari yaratishda hamda ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Skelet sxemasi chizilganidan keyin, suyak shakli va suyaklarning birlashish xarakterini aniqlashtiruvchi chiziqlar chiziladi.



93-rasm.



Asosiy suyaklarning o‘lchamini aniqlashda sxema va natura chiziqlari mo‘jal bo‘lib xizmat qiladi.

So‘nggi bosqichda skeletning shtrixli tasviri, yorug‘-soyalik tushishi natijasida uning hajmi ko‘rsatiladi. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilar skeletning sxematik shakllarini to‘g‘ridan, yon tomonidan va alohida bo‘laklarini qisqa tasvirlar orqali mustaqil bajarishlari maqsadga muvofiq (93, 94-rasmlar).

5.2. «Ekorshe» gips anatomik modeli rasmini chizish

94-rasm.

Ma’lumki, tasviriy san’atda, xususan, qalamtasvir bajarishda mashg‘ulotlar tizimi soddadan murakkabgacha tartibida tuzilishi kerak. Shuning uchun o‘quvchi birinchi bor naturadan kiyimdagи inson tasvirini chizishdan oldin uning gipsdan ishlangan namunasini tasvirlab, o‘z malakalarini oshirishi lozim. Bunda o‘quvchiga inson skeletini chizish davrida olgan bilim va malakalari qo‘l keladi. Shuningdek, u turli qiyinchiliklarga duch kelmasligi uchun naturadan insonning turli holatlarini tasavvur yoki xotiraga asoslanib, mashqlar bajarsa, ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin.

Insonning anatomik tuzilishini tirik, harakatdagi inson misolida o‘rganish mushkul bo‘lgani sababli mazkur vazifani bajarishda mashhur fransuz haykaltaroshi Jan Antuan Gudonning «Ekorshe» gips modelidan foydalanib amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Gipsdan ishlangan ushbu anatomik model o‘zida inson tanasining terisiz holatini aks ettiradi. Uni chizish orqali odam tanasining plastik asosi hisoblanuvchi muskullar tuzilishini o‘rganish imkonini beradi.

Model old tomoni bilan biroz balandlikka o‘rnataladi. Bunda jism yoritilganlik darajasiga e‘tibor beriladi va yorug‘lik yuqori-yon tomondan tushishi va hosil bo‘lgan soyada model shakli yaxshi anglashilishi kerak. Shuningdek, rassomning yon tarafiga uzoqroqqa skeletni xuddi shunday holatda joylashtirish bir-biri bilan bo‘g‘im va paylar orqali birikkan alohida suyaklardan tashkil topgan karkas modelni aniq tasavvur etish imkonini beradi. Skelet suyaklari inson tanasining plastik va nisbiy tuzilishini namoyon etadi. Chunki suyaklarning o‘lchami tana qismlari o‘lchami va nisbatlarini belgilab beradi. Ularning o‘zaro birlashgan joyi esa, tana harakatini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, suyaklar qattiq va ularning shakli o‘zgarmas, mushaklar esa, harakat davrida kichrayib yoki kattalashib turadi, bu esa, endi ijodga kirayotgan yosh rassomlarni chalg‘itishi mumkin.

Rasm chizuvchilar bir-birlaridan eng kamida bir-ikki anatomik model uzunligiga teng masofada joylashadi. Shunda model va uning markaziy chizig‘i barchaga ko‘rinadi. Markaziy chiziq juft (simmetrik) shakllarni ishslash chog‘ida mo‘ljal vazifasini o‘taydi.

Yosh rassomlar modelni yon tarafdan, markaz chizig‘i tos suyagi bilan aralashib ketgan ko‘rinishidan rasm chizmasligi kerak. Chunki bu yerda rassom uchun simmetrik juft shakllarni solishtirish imkonи bo‘lmaydi.

Anatomik model rasmini ishslashning boshlang‘ich bosqichi boshqa jismlar rasmini ishslashdan farq qilmaydi. Bunda jism sinchkovlik bilan tahlil qilinadi. Rassom modelni o‘rganadi va ko‘rish nuqtasini tanlaydi. Ijodkor tasvir vositalarini tayyorlab ishga kiri-shadi. Model berilgan bichimdagи qog‘ozga to‘liq sig‘ishi uchun, avvalambor, modelning eng yuqori va eng pastki nuqtalarini aniqlab olishi zarur. Rasm ishslash jarayonida tasvir qog‘ozning markazida joylashishi kerak.

Rasmni bir ko‘rish nuqtasidan chizish katta ahamiyatga ega, ammo jismning turli tomonlarini bilish va kuzatish kerak. Shuning uchun tajribali rassomlar aytganidek, jismni old tomonidan chizayotganda, uning yon tomonlari va orqa qismini ham tasavvur etish lozim.

Odam rasmini ishslash vaqtida doimo shuni yodda tutish kerakki, hajmli shakllar rasm chizishning asosi bo‘lib hisoblanadi, rasm chizish ketma-ketligi esa, umumiydan alohida qismlarga va qislardan boyitilgan umumiy tasvirga o‘tish tartibida amalga oshirili-


shi lozim. Naturadan rasm chizish tartibiga amal qilmaslik natijasida, ishlangan tasvir notabiyy ko‘rinish kasb etadi. Har bir ish o‘z boshlanishi, davom etishi va yakunlanishiga ega bo‘lganidek, rasm chizish jarayoni ham ushbu to‘rtta bosqich assosida amalga oshiriladi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, umumiyidan qismlarga, oddiyidan murakkabga o‘tish tartibi — rasm chizish jarayonidagi asosiy bosqichlari hisoblanadi. Ish boshlash avvalida rassom rasmning umumiyy ko‘rinishini belgilab oladi. Bu yerda u shaklning joylashuvi, harakati va xarakterini hisobga olishi lozim.

Rasm chizishda modelni u joylashgan gorizontal yuzaga nisbatan kenglikda, tik holatda to‘g‘ri joylashtirish katta ahamiyatga ega. Buning uchun, avvalambor, bo‘yin chuqurchasidan tos suyagi tomon cho‘zilgan va dum suyagi bilan yakunlangan markaziy o‘q chizig‘i holatini aniqlash zarur. Inson tanasi simmetrik va uning markaziy o‘q chizig‘i tors (tana asosi) harakatini aniq ko‘rsatib beradi.

Ko‘pincha yosh rassomlar tomonidan ishlangan tik holatdagi model yiqilayotgan ko‘rinish kasb etadi. Buning asosiy sababi markaziy og‘irlik chizig‘i bo‘ylab tushirilgan vertikal tasvirlanayotgan inson oyoqlariga yoki tana og‘irligi tushayotgan oyoqqa to‘g‘ri kelmaydi. Rassom tananing asosiy qismlari bir-biriga nisbatan qanday holatda joylashganini aniqlashi muhimdir (qaysi oyoqqa tana tiralgan, tos suyagi oyoqlarga nisbatan qanday holatda joylashgan va u qay darajada egilgan, bosh va qo‘llarning burilganligi va h.k. Model harakati rasmida to‘g‘ri ifodalanishi uchun esa, o‘quvchi uning harakatini va joylashuvini to‘g‘ri tahlil qilishi muhimdir.

Shakl holatini aniqlash uchun og‘irlik tushish markazi va uning yo‘nalishini aniqlash zarur. Og‘irlik tushish markaziga ko‘ra, tana qismlari shunday joylashishi kerakki, bunda tana muvozanatda yiqilmay turishi kerak. 95-rasmida inson tasvirini chizish vaqtida tayanch o‘q holatini to‘g‘ri belgilab olish sxematik tarzda ko‘rsatilgan. Mukammal tuzilgan odam tanasining og‘irlik tushish markazi bilan, tik turgan holatda og‘irlik tushish markazining o‘rtasida ancha farq bor.

Yosh rassomlar ishidagi asosiy kamchilik ko‘p hollarda quyidagi asosiy nisbatlarni aniqlash bilan bog‘liq bo‘ladi: bosh butun tana uzunligiga nisbatan haddan tashqari katta yoki kichik, oyoqlar qisqa, qo‘llar uzun va h.k. Model tasvirini to‘g‘ri ishslash uchun



95-rasm.

doimiy ravishda asosiy nisbatlarni e'tiborda tutish kerak. Buning uchun o'lchov vositasi sifatida, masalan, bosh balandligini olish mumkin.

«Ekorshe» gips modeli rasmini ishlashning dastlabki bosqichida rassom butun modelning umumiy ko'rinishini belgilab olishi lozim (96-rasm). Model qog'ozda belgilab olinganidan keyin, chizishni ko'rsatilgan ketma-ketlik bo'yicha quyidagi suyaklar birlashgan joyini topishdan boshlanadi. Buning uchun quydagilarni anglab olish kerak:

- modeldagи oyoqlarning holatini belgilash uchun tos va son suyaklari birlashgan joyni aniqlash;
- tizza bo'g'imi va qopqog'i holatini topish uchun son va boldir suyaklari birlashgan joyni aniqlash;
- ichki va tashqi tovon yuqorisidagi do'mboqlar holatini belgilash uchun boldir suyaklarining tovon bilan birlash-



96-rasm.

gan joyini aniqlash;

- ikki o‘mrov suyagining kurak va yelka suyaklari bilan birlashgan joyini aniqlash;
- tirsak bo‘g‘imi joylashuvini belgilash uchun yelka suyagining bilak va tirsak suyaklari bilan birlashgan joyini aniqlash;
- bilak va tirsak suyaklarining qo‘l kafti bilan birlashgan joyini aniqlash lozim.

Rasm chizishda ushbu joylar mo‘ljal vazifasini o‘taydi. Anatomik model rasmini chizishni oyoqdan ham boshlash mumkin. Oyoqni tosdan boshlab qismlarga bo‘lib chiziladi. Bunda qismlar juft-juft (ikki oyoqdagi mushaklarni bir-biri bilan solishtirgan holda) chiziladi.

Avvalambor, sonning tizzagacha bo‘lgan qismi, so‘ngra tizzadan boldirgacha bo‘lgan qism va eng oxirida tovon shakli aniqlanadi. Son shakli teri ostida joylashgan mushaklar tuzilishiga bevosita bog‘liq. Dastlab rasmida tos suyagidan pastga tushuvchi sonning to‘g‘ri mushagi yengil chizgilar bilan belgilab olinadi. Shundan so‘ng, sonning ustki qismini shakllantiruvchi ustki tashqi serbar mushagi va ichki keng mushak chiziladi. Ko‘rsatib o‘tilgan mushaklarning pastki qismi tizza qopqog‘i hisoblanadi.

Chizishda qulaylikka erishish uchun taranglashtiruvchi serbar mushakni hamda undan biroz yuqoriroqdagi o‘rtta dumba mushagini belgilab olish kerak. Sonning yuqori-ichki qismidan yaqinlashiruvchi uzun mushakni aniqlash lozim.

Boldir suyagi tuzilishiga o‘tish davomida, avvalambor, katta boldir suyagining qirrasi yo‘nalishini to‘g‘ri aniqlanadi va u tizza bo‘g‘imidan ichki tovon do‘mbog‘igacha belgilanadi. Shundan so‘ng, ichki va tashqi tovon holati va shakli aniqlanadi. Boldirning butun ustki yuzasi bo‘ylab, kichik boldir suyagining boshchasidan tortib kichik boldir mushaklarini belgilab chiqish kerak. Boldirning ichki tarafidan boldir mushakning lateral boshchasi va kambalasimon mushak belgilanadi. Shu yo‘l bilan rasmida boldirning old va yon tarafidagi yuzalari aniqlab olinadi.

Tovonning umumiy shaklini chizishda boldir va tovon suyaklarini birlashtiruvchi boldir-tovon bo‘g‘imini e’tiborga olish muhimdir. Boldir-tovon birikmasi birlashtiruvchi (sharnir) vazifasini o‘taydi. Uning ko‘ndalang o‘qi tovonning tovon usti suyagi bloki-

dan o‘tadi. Boldir suyaklarining pastki qismi tovonning oshiq va oshiqboschchasi qismi bilan ichki va tashqi tomondan birikib boldir-tovon bo‘g‘imini hosil qiladi. Rasmning umumiylashtirishini tushunib olishlari lozim. Bunda tovonning kaft suyagi va oyoq kaft usti suyagi yoy hosil qilib bir-biriga tiralishini ko‘rsatib berish kerak. Yoysimon prujinasimon xususiyatga ega bo‘lib, ular oyoqning ammortizatsiyasi bo‘lib hisoblanadi. Barmoq falangalari ham tovonning ba‘zi holatlarida og‘irlik tushish markazi bo‘lib xizmat qiladi.

Rassom tovon rasmini chizishni oyoqning tag qismi holati, tayanch qismlar va barmoqlarning shaklini aniqlashdan boshlashi kerak. Tovondagi oyoq-kaft suyagiga bosh barmoqning birlashgan qismi hamda bosh barmoqning shaklini yengil shtrixlar bilan belgilab olib, tovonning ichki yoysimon qismi va qolgan to‘rt barmoqning umumlashgan shakli aniqlanadi. Shuningdek, tashqi yoy shakli ham belgilab olinadi.

Tovon rasmining umumiylashtirishini chizish so‘ngida tovon payining holati va shakllarining orqa tomondan ko‘rinishi aniqlanadi, har bir barmoq shakli va tovonning yoysimon qismi (old va yon tomondan ko‘rinishi) alohida belgilab olinadi.

«Ekorshe» gips modeli oyog‘ini chizib bo‘linganidan so‘ng tananing tos qismi shakli va tana asosi (tors)ni aniqlashga kirishiladi. Bunda dastlab tos suyagining yonbosh suyagi holati va shakli aniqlanishi kerak. Tos rasmi ishlanganidan keyin yonbosh suyakdan boshlanuvchi qorinning o‘rta chizig‘idan mo‘ljal chiziq sisatida foydalanish mumkin. O‘rta chiziq juft shakllarni chizishda mo‘ljal vazifasini o‘taydi. Tana asosi (torsni) quyidagi ikki qismdan tashkil topgan, deb tasavvur qilishimiz mumkin:

- *pastki qism* — tosning yonbosh suyagi hamda jins va kindik oralig‘idan boshlanuvchi, yon tomondan qorin mushaklari va yuqorisida qovurg‘a yoyigacha bo‘lgan qism;

- *yuqori qism* — qovurg‘a yoyidan boshlanuvchi va ko‘krak qafasini hosil qilgan qism.

Ko‘krak qafasi rasmini chizish davomida, avvalambor, o‘mrov suyagi, to‘suyagi va yuqoridagi beshta qovurg‘a va ularning yuqori qismiga birikuvchi yelka suyagidan boshlanuvchi katta ko‘krak mushaklarining holati va umumiylashtirishini tushishini lozim. Katta ko‘krak mushaklari orasida to‘suyagi yuzasi va uning pastki uchini

(xanjarsimon o'siqni) belgilab qo'yish kerak. Shundan so'ng, o'ng qo'l yuqoriga ko'tarilganda ko'krak qafasining yon tarafida tish shaklini eslatuvchi va shuning uchun ham oldingi tishli mushaklar, deb nom olgan mushaklarning umumiy shakli aniqlandi. Bunda belning eng keng mushagining bir qismi ham ko'rindi. Ushbu mushakni ham rasmda belgilash zarur.

Qorinning tashqi egri muskullari shaklini aniqlash va chizish bilan rassom tana asosi (torsni) yon tomoni yuzasini chizishni tugallaydi. Tana asosi (tors)ning oldingi pastki qismi eng oxirgi o'rinda chiziladi. Bunda asosiy e'tibor shartli o'rtta chiziqqa mos keluvchi qorinning mushaklari yaxshi rivojlangan odamlarda yaqqol ko'zga tashlanuvchi qorinning to'g'ri muskullari va paylariga qaratiladi.

Rasmda ko'krak qafasining oldingi tomonidan tosning oldingi tomonigacha cho'zilgan qorinning to'g'ri muskullari holatini tasvirlab, ko'priksimon pay shakli xarakterini va kindikni belgilash kerak. Yelka kamari rasmini ishlashga kirishish oldidan yosh rassomlarga o'mrov suyagining ichki boshchasi to'sh-o'mrov bo'g'imi yordamida birikishi va o'mrov suyagining uch yo'nalish bo'yicha harakatlanishini tushuntirib berish zarur. Shundan so'ng, o'mrov suyagining ikkinchi uchi yelka kamari va ko'krak bilan birikishi ko'rsatib beriladi, yelka kamari va qo'lning harakatlanishiда muskullarning (deltasimon muskul, katta ko'krak muskul, trapetsiyasimon muskul va h.k.) ahamiyati haqida tushuncha beriladi.

Yarim chuqurchasi aniqlanadi va yelka kamarining tasviri just holda tasvirlanadi. Bosh rasmi umumiy chizgilarda harakat xarakterini mujassamlashtirgan holda yelka kamari va bo'yin holatiga moslab bajariladi.

Qo'llar tasvirini ishlashga o'tishdan oldin, yelka kengligini tos kengligi bilan solishtirish kerak. Qo'llarning umumiy shakli ilk chizgilarda belgilab olingan edi. Shaklni aniqlashtirishda alohida bo'laklar holda ishlanadi: dastlab yelka bo'g'imidan tirsak bo'g'imigacha, keyin tirsak bo'g'imidan bilak-kaft bo'g'imigacha, oxirida esa, kaft rasmi chiziladi. Butun tana rasmini ishlashda bo'lgani kabi qo'llarni ham just, parallel holatda ishlanadi. Bu juda ham qulay va foydalidir, chunki bunday holatlarda chap va o'ng qo'lning

turli ko‘rinishda bo‘lganida, shakldagi o‘zgarishlarni kuzatish im-koni tug‘iladi.

Deltasimon muskulning holati va shakli tekshirilganidan so‘ng, ushbu muskul yelkaning ikki boshli muskuli va uning tagidan chiquvchi yelka muskuli orasidan chiqadigan joy belgilab qo‘yiladi. Kurakdan boshlanuvchi yelkaning ikki boshli muskuli deltasimon muskul ostidan chiqadi va pastga yo‘naladi, tirsak chuqurchasida bilak suyagining yuqori qismiga birlashgan pay bilan birikadi. Yelka suyagidan tirsak suyagi boshchasigacha davom etgan yelka muskuli teri ostida qisman ikki boshli muskul oldidan o‘tadi. Ikki boshli muskulning ikki tomonida chuqurchalar mayjud va ular rassomga yelka va ikki boshli muskul chegaralarini aniq belgilash imkonini beradi. Qo‘lning yon yuzasi yelka suyagining ichki tomonidan yelka muskullari bilan chegaralanadi. Bilak yuzasining umumiy shakli bir guruh muskullarning tashqi ko‘rinishi asosida aniqlanadi: bular kaftni harakatlantiruvchi uzun va qisqa yelka-bilak muskullaridir.

Model rasmini chizish yakunlanganidan so‘ng, uni uzoqroq qo‘yib, uzoqlashtiriladi va tasvirni natura bilan tez-tez nazar tashlash yo‘li bilan solishtiriladi hamda yuqoridan pastga tomon nisbatlar aniqligi tekshirib chiqiladi. Model rasmini chizishda, avval yorug‘lik-soya munosabatlarini hisobga olgan holda shtrixlar yordamida umumiy chizgilar chiziladi. Model umumiy hajmga ega bo‘lishi uchun shakllarning bir yuzadan ikkinchi yuzaga o‘tishini shtrixlar bilan ajratib ko‘rsatish lozim. Shundan so‘ng modelning alohida qismlari tasvirini ishlashga va har bir detalni aniqlash-tirishga o‘tish mumkin.

Shaklni hosil qilish uchun faqatgina model tuzilishi tamoyillarini umumiy tarzda o‘rganish vazifasi qo‘yilgani uchun modelning mayda bo‘laklarini ishlashga unchalik hojat yo‘q. Masalan, quloq g‘ovagi, burun, barmoq bo‘g‘imlari va hokazolar chegaralangan vaqt davomida ishlanayotgan rasmda ifodalanmaydi.

Chiziqli-konstruktiv rasmlarda rassom modelning katta va kichik qismlarini umumiylashtirib bir shakl ko‘rinishida tasvirlay olishi, hamda shaklning konstruktiv tuzilishidan foydalanib, ushbu modelning tabiiy shaklini ko‘rsata olishi yetarlidir (97, 98,

99-rasmlar).

Shunday qilib, gipsdan ishlangan anatomik model rasmini chizish bosqichlarini ko'rsatib o'tamiz:

1. Model chizish avvalida yengil chiziqlar va shtrixlar bilan kompozitsiya jihatidan qurib, chiziqli konstruktiv asosida chiziladi.



97-rasm.



98-rasm.



99-rasm.

2. Chiziq shakl ajralib chiqqunicha bosqichma-bosqich doimiy ravishda qalinlashtirib boriladi.

3. Model shaklini simmetrik qilib chizish kerak, bunda juft shakllar va ularning perspektiv o'zgarishi solishtirib boriladi.

4. Modelga tez-tez qarab gohida rasmning tuzilishi, gohida esa, qismlari va umumiy shakli tekshirib boriladi.

5. Vazifani bajarishda rassomni chalg'ituvchi kichik detallar tasviriga rasm so'nggida, umumiy tasvir hosil qilingandan so'nggina

e'tibor berilishi kerak.

5.3. Tirik odam rasmini chizish

Tasviriy san'atda inson qiyofasini tasvirlash qadimdan ras-somlarni o'ziga jalb qilib kelgan. Tabiatda inson eng mukammal va serqirra obyekt hisoblanadi. Shuning uchun ham barcha badiiy o'quv dargohlarida inson qiyofasi, uning portretini tasvirlashga ko'p vaqt ajratiladi. Tirik modelni (yalang'och model tasvirini) chizish qiyin vazifa, uni bajarish uchun rassomdan doimiy mashg'ulotlar davomida egallangan malaka talab etiladi.

Tirik modeldan rasm chizishning mushkul tomoni shundaki, bunda model qimirlamasdan, bir xil holatda tura olmaydi, ya'ni chizish davomida u bir necha bor o'z holatini o'zgartiradi. Boshqa tomonдан tirik modelda kuzatiladigan suyaklar va mushaklarning yaqqol ajralib turishi, ularning tuzilishi, nisbati, vazifasi va harakat xarakterini oydinlashtirishga imkon yaratadi. Bundan tashqari, model o'z holatini o'zgartirganida, rassom tasavvuri va xotirasiga asoslanib, chizishni davom ettirishi kerak. Bunday ish uslubi juda muhim bo'lib, qalamlar va eskizlar chizishda uning ahamiyati kattadir.

Tirik inson modeli (yalang'och inson qiyofasi)ni chizish mashg'ulotlarini tashkil etish va undagi rasm chizish ketma-ketligi gipsdan ishlangan model tasvirini ishlash jarayoni bilan deyarli bir xil. Model taglik ustida taxminan 40 sm balandlikda erkin holatda, rassomga qarab, bir oyog'iغا tiralib — ushbu holatda chap oyog'iغا tiralib turishi kerak. Model holati Gudonning «Ekorshe»sini eslatadi. Bukilgan chap qo'l tana qismining orqa tarafida bo'lib, o'ng qo'l erkin holatda pastga osilib turibdi. Bu yerda chap oyoq og'irlilik markazidir. O'ng oyoq esa, chap oyoqqa nisbatan biroz oldinroqda joylashgan va erkin holatda turibdi.

Modelga yuqori-yon tarafdan kuchsiz yorug'lik tushishi kerak. Anatomik tuzilish bo'yicha to'liq tasavvur hosil qilish uchun, modeldan uzoqroq masofada odam skeleti yoki Gudonning «Ekorshe»sini joylashtirish tavsiya etiladi. Bundan asosiy maqsad, oldingi vazifada olingan bilim va malakalarini tirik odam rasmini chizishda taqqoslاب, nisbatlar hamda muskullar tizimini yanada aniqroq tasavvur etishdan iboratdir.

O‘quvchilar bir-birlaridan eng kamida model bo‘yiga bir barobar keladigan masofada, naturadan esa, eng kamida qomatning uch barobari darajasidagi masofada joylashishlari kerak. Bunday masofa ularga modelni boshdan oyog‘igacha perspektiv o‘zgarishlarda ko‘rish imkonini beradi. Rassom tasvirning joylashish o‘rni va o‘lchamlarini — rasm kompozitsiyasini belgilaydi. Model pozasi va harakatidan kelib chiqqan holda modelning umumiy holati va model massasi qalam bilan yengil chizib chiqiladi.

Turgan holatdagi model rasmini chizishni dastlab old tarafdan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday holatda rasm chizish tamoyillarini ochib berish ancha oson kechadi. Oyoq osti va ular orasidagi masofa turgan modelning tayanch maydoni hisoblanadi. Og‘irlik markazidan o‘tuvchi tik chiziq tayanch maydonidan o‘tganda ham model muvozanat holatida tik turgan, deb hisoblanadi. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, odam oyoqlari orasini kengroq ochsa, tayanch maydoni kattalashadi va mustahkam muvozanatga ega bo‘ladi.

Bir oyoqqa tirilib turganda, model holati og‘irlik markazi bo‘ylab tushirilgan tik tayanch oyoqning tovon qismidan yoki uning yonidan o‘tadi. Yalang‘och odam tasviri chizilganda model holati ana shunday bo‘lishi lozim.

Rasm chizishning dastlabki bosqichida harakat holati va asosiy nisbatlarni ko‘rsatgan holda butun modelni umumiy ko‘rinishini yordamchi chiziqlarda tasvirlash muhimdir. Tasviriy san’at qonun va qoidalaridan bizga ma’lumki, tabiatdagi barcha shakllar geometrik sirtlarga o‘xshash shakllar tarkibiga asoslanadi. Shuning uchun ham ushbu holatga misol tariqasida Dyurer tomonidan geometrik shakllarga asoslanib ishlangan rasmni keltirishimiz mumkin.

Bu yerda model harakati yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yelka kamari tosga nisbatan deyarli to‘g‘ri burchak bo‘yicha burilgan, bosh orqaga qayrilgan. Yanada oydinlik kiritish maqsadida A. Dyurer ko‘krak qafasini geometrik shakl asosida, perspektiv o‘zgarishlarni ko‘rsatib, sxematik tarzda tasvirlagan. Og‘irlik markazidan podium yuzasidagi kesishish nuqtasigacha tik chiziq chiziladi. Ushbu nuqtaga asoslanib, ikki tovonning o‘zaro joylashuvini izlash kerak. Har bir oyoq turgan joy tovon uzunligi darajasida belgilanadi. Katta

oshiq (sonning tos bilan birlashgan qismi)dan pastga, oyoq joylashigan joy markazi tomon tana tiralgan oyoqning umumiy yo‘nalishini ko‘rsatuvchi to‘g‘ri chiziq chiziladi; ikkinchi sonning katta oshig‘idan erkin turgan oyoqning avval tizzagacha bo‘lgan qismi, keyin esa, tovon markazigacha bo‘lgan qismi chiziq bilan belgilanadi.

Og‘irlik markazidan o‘tuvchi va rasmida belgilangan boshning yuqori qismigacha davom etuvchi tik chiziqning umumiy uzunligi model balandligini tashkil etadi. Tos erkin holatda turganida, og‘irlik markazidan tushirilgan vertikal yarim chuqurchasidan o‘tadi. Hosil bo‘lgan umumiy tik chiziqqa tananing quyidagi alohida qismlari chegaralarini ko‘rsatuvchi belgilar chiziladi: oyoq, ko‘krak va bosh o‘lchamini ko‘rsatuvchi belgilar. Bu yerda boshning o‘rtta chizig‘i mo‘ljal qilib olinadi va bosh holati oval shakl bilan belgilanadi; shu usul bilan boshning burilish darajasi va harakati aniqlanadi. Ishning bu bosqichida rasmning obrazli xarakteriga ta’sir qiluvchi modelning yuqori, o‘rta, pastki qismi nisbatlariga to‘xtalib, pedagog rassomlarga baland, o‘rta va past bo‘yli odamlarda boshning butun tana uzunligiga nisbati qanday bo‘lishini, shuningdek, erkak, ayol va yosh bola qomatlari nisbatlari o‘rtasidagi farqlarni tushuntirib berishi kerak.

Bosh balandligi va yarim chuqurchasining joylashuvi butun model balandligiga nisbatan belgilangandan so‘ng, yengil chiziqlar bilan o‘mrov suyaklari yo‘nalishi chiziladi. So‘ngra modelning yarim chuqurchasidan to‘s shuyagining xanjarsimon o‘sig‘i, undan kindik va rasmidagi asosiy o‘zgarmas nuqtalardan biri bo‘lgan tos suyagining boshlang‘ich qismi — yonbosh suyak tomon cho‘zilgan shartli o‘rta chiziq aniqlanadi.

Rasmga ko‘krak so‘rg‘ichlaridan o‘tuvchi gorizontal chiziq chiziladi; keyin tos suyaklarining qirralaridan chiziq o‘tkaziladi va shu yo‘l bilan tosning gorizontal chiziqqa nisbatan qiyalik darajasi aniqlanadi. Ikki oyoqqa tiralib turgan model holatida tos gorizontal holatda bo‘ladi. Tananing barcha og‘irligini bir oyoqqa o‘tkazilganida, tos og‘irlilik tushmagan oyoq tomonga egiladi. Tosning yuqori qismi chizig‘i yonbosh suyakning ko‘rinib turgan qirralariga asoslanib belgilanadi.

Keyin ikki son suyagi boshchalari o‘rtasidagi chiziq belgilanadi. Tana og‘irligini ko‘rsatib turgan sonning tos bilan birlashgan boshchasi aniq ko‘rinib turadi; ikkinchi oyoqning son boshchasing joylashish o‘rnii o‘zgarganligi tufayli, uning o‘rnida chuqurcha hosil bo‘ladi. Ikki son boshchalari o‘rtasidagi chiziqqaga parallel ravishda, rasmida shtrixlab qo‘yilgan tosning yuqori qismidan o‘tuvchi, chiziq belgilanadi. Tos chizig‘iga parallel ravishda ikki oyoqning tizza qopqoqlaridan o‘tuvchi chiziq chiziladi (son boshchasi va to‘piq o‘rtasida). Bunday usulda chizilgan belgilar tik chiziq bo‘yicha model nisbatlarini aniqlashga yordam beradi.

Modelning asosiy qismlari kengligi — tosdan tovongacha va tosdan boshning yuqori chegarasigacha bo‘lgan qismi shtrixlar yordamida oydinlashtiriladi. Ikki oyoqning yon tomonlari va tos, tors, yelka, qo‘l, bo‘yin va bosh ham shtrixlar bilan chizib chiqiladi.

Ishning keyingi bosqichida o‘chirg‘ich bilan yordamchi chiziqlar va tasvirlangan model ichidagi barcha belgilangan yordamchi chiziqlar o‘chiriladi, shundan so‘ng tasvirning o‘lchami va chegaralari natura bilan yana bir bor solishtiriladi. Buning uchun dastlab tasvir hajmini ko‘rsatib beruvchi asosiy soya va tus munosabatlari rasmida aks ettirilib, natijada nisbatlarni to‘g‘rilash va konturlarga shtrix bilan aniqlik kiritish imkonи paydo bo‘ladi. Bunda modelning tos va boshdan boshlab, oyoq va qo‘lgacha bo‘lgan qismlari ustida ish olib boriladi. Oyoq-qo‘lning — yelka, tirsak, tizzalarning bukilgan joylariga shtrixlar yordamida yorug‘-soya yordamida tus beriladi.

Qo‘l kaftlari va tovonlar birgalikda ishlanadi, model tasviri shtrixlar bilan ishlanadi va shakl hajmi yorug‘lik-soya munosabatlari asosida ko‘rsatiladi. O‘quv mashqni bajarish davomida qalamni botirib chizish mumkin emas, chunki xatolarni tuzatishda rasm qorayib ketadi va tasvir yaxlitligi buziladi. Yalang‘och model rasmini chizish bosqichlari va uning qismlarini umumlashtirish 100, 101, 102, 103, 104, 105-rasmlarda ko‘rsatilgan.

5.4. Oyoq rasmini chizish



100-rasm.



101-rasm.



102-rasm.



103-rasm.



104-rasm.



105-rasm.

Odamning gips anatomik modellari va tirik inson qiyofasini amaliy jihatdan o‘rganib chiqish hamda ularning tasvirini amaliy bajarish bilan bir qatorda, yosh rassomlar oyoqning tovon qismi va qo‘l kaftini chizishni o‘rganishlari kerak. Inson tana a’zolarining anatomik tuzilishini bilmay turib, ularni mahorat bilan chizib bo‘lmaydi. Qo‘lning kafti va oyoqning tovon qismini turli holatlarda chizish ko‘nikmasini egallash tasviriy san’at asoslarini o‘rganayotgan o‘quvchilar uchun katta ahamiyatga ega.


Usta rassomlarda bir naql borki, insonning portreti bilan qo‘l kaftlarini tasvirlash birdek qiyin hamda maroqli va o‘ziga xosdir. Qo‘l-oyoqni chizish ijodiy amaliyat uchun juda muhim, shuning uchun ularni anatomik bilimlarga asoslanib alohida o‘rganish tavsiya etiladi. O‘rganuvchilar uchun qo‘l-oyoqni chizish birmuncha qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin, ammo ularni erkin chiza olish yosh rassomdan ushbu yo‘nalishda professional mahoratga ega bo‘lishni talab etadi. Bunda oyoq tovoni va qo‘l kaftini chizishga mo‘ljallangan maxsus mashg‘ulotlarning o‘tkazilishi maqsadlidir.

Oyoq shaklini chizish mashg‘ulotlari quyidagicha o‘tkaziladi. Naturani auditoriya o‘rtasida joylashtirilishi uni turli tomonlardagi ko‘rinishini chizish imkonini beradi. Model yoniga uning oyoqlar

holatini takrorlovchi holatda oyoq skeleti joylashtiriladi. Shuningdek, yordamchi model sifatida tovonning gipsdan ishlangan namunali shakli joylashtirilishi kerak. Model shakli har tomonlama yaxshi ko‘rinishi uchun, u bir qancha yorug‘lik manbalari orqali yoritiladi. Qo‘l va oyoqning har biri bir necha ko‘rish nuqtasidan chiziladi.

Model shunday joylashtirilishi kerakki, bunda o‘quvchilar yaqin masofadan turib tasvirlanayotgan shaklni to‘liq ko‘rish imkoniga ega bo‘lishsin. Modelning yuqori-old tomoniga o‘rnatalgan chiroq umumiy hajmli massani ifodalash bilan birgalikda, muhim ahamiyatga ega bo‘lgan detallar, ya’ni yorug‘-soya va tuslarda ifodalanuvchi bo‘g‘imlar relyefini ham ko‘rsatib beradi. Bunda shaklning katta qismini to‘suvchi va tasvirni borligicha qabul qilishga to‘sqinlik qiluvchi soyalar bo‘lmaydi. Ushbu topshiriqni bajarishda asosiy e’tibor qo‘lning anatomik tuzilishiga qaratiladi. Topshiriqni bajarish jarayonida o‘quvchilar anatomik qo‘llanmalar va katta rassomlar asarlaridan foydalanishlari juda muhimdir (106-rasm).

Oyoqlar qo‘llar singari katta tasviriy ahamiyatga ega. Oyoqning tuzilishi va plastikasini aniqlab uning tuzilishi, ta’sirchanligi, odamning qadam tashlashi ma’lum miqdorda oyoq tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlari, nisbatlari aniqlanadi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, oyoq tuzilishi tananing eng muhim qismalaridan biri sifatida o‘rganilishi lozim. Tovonning o‘ziga xos tuzilishi butun tana tuzilishiga asoslanib, u turli burchaklar bo‘yicha



106-rasm.

harakatlanish imkonini yaratadi.

Oyoq tovoni tuzilishini o'rganish va ularni chizish bo'yicha amaliy bilimni o'zlashtirish jarayoni bosh suyagi tasvirini chizish malakasini egallashdagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi. Dastlabki bosqich skeletni turli burlishda anatomik qismlar bo'yicha chizishdan iborat (107-rasm).

Oyoqning tovon qismi — bu kenglikdagi hajmli shakl bo'lib, u murakkab tuzilishga ega. Tovan yurish, yugurish, sakrash va h.k.larda




107-rasm.

sakrash prujinasi vazifasini o'taydi. Tana tovonga bosim bergenida, u tekislashadi, ya'ni prujinasimon spiral qirqimiga o'xshash ko'rinishga ega bo'ladi. Bosim kamayganida yoy o'zining dastlabki shakliga qaytadi. Tovonning yoy qismi shakli paylar yordamida o'z holatini saqlab turadi. Tovonga birlashgan barmoqlar ham prujina singari amortizator vazifasini o'taydi (108-rasm). Skeletda tovoni katta suyakdan boshlab ko'rsatib va oyoq kafti, kaft usti suyaklari, barmoq falangalarini birlashtirib, tovonning turli harakatlar qil-



108-rasm.



109-rasm, a.



109-rasm, b.


ishini ta'minlovchi boldirning qo'zg'aluvchi pastki bo'g'im'i xususiyatiga e'tiborni qaratish lozim.

Naturadagi tovonning turli ko'rinish va burilishdagi chiziqli-konstruktiv tasviri tovon shaklini to'liq eslab qolishga ko'maklashadi. Tovon shaklining o'quv mashq vazifasi quyidagi bosqichlar asosida chiziladi (109-rasm, a, b).

5.5. Qo'l kaftini chizish

Topshiriqdan ko'zlangan maqsad qo'l kafti tuzilishini to'liq o'zlashtirishdan iborat. Mashhur usta rassom va nazariyotchi I.D. Preyslerning qo'l kaftlarini tasvirlashga oid namunasida kaftining tuzilishi, uning turli burilish va rakurslardagi holati ko'rsatilgan. Qo'l kafti murakkab shakllardan tuzilganligi, katta burchakda harakatlanishi bilan xarakterlanadi va shu sababli ham rasm chizishdagi eng murakkab obyektlardan biri bo'lib hisoblanadi. Rassomlarning fikricha, qo'l kafti qanday chizilganligiga qarab, rassomning ishiga baho berish mumkin. Kaftni, ayniqsa, naturadan foydalanmay, xotiradan chizish mushkul. Shuning uchun kaftning turli ko'rinishini naturadan uzoq vaqt davomiy chizishdan oldin o'quvchi uning turli holatlarini qalamchizgilar bajarish orqali asta-sekin chizib, uni xotirada saqlab qolishi lozim (110-rasm).

Qo'l haykaltaroshlik va rassomchilik asarlarining asosiy obyekti bo'lib, u tasvirlanayotgan modelning shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlarini ochib beradi. Yosh qizchaning qo'li keksa odamnikidan, mashshoqning qo'li esa, temirchi ustaniqidan farqlanadi. Tasviriy san'at asarida qo'l odamning jismoniy va ichki holatini ifodalash bilan birgalikda, harakatni ham anglatadi va uni yo'naltiradi. Shuning uchun barcha davr rassomlari qo'l tasviriga katta ahamiyat qaratishgan va uni chizish bo'yicha ko'p mashq qilib, bu borada katta tajriba to'plashgan.



110-rasm.

Qo'l kaftlarini chizishdan oldin uning anatomik xususiyatini o'rganish kerak (111-rasm). Shuningdek, naturadagi kaftning turli holat va rakurslardagi ko'rinishini chizish tavsya etiladi. Bularning bar-chasi qo'l kafti tuzilishi va plastik chiroyi o'ziga xosligini anglash imkonini beradi.

Kaft rasmini chizish ketma-ketligi boshqa har qanday hajmli jism tasvirini chizish jarayoniga mos keladi. Tasvirning qog'ozdagi joylashgan o'rni va masshtabi aniq langanidan so'ng, uning asosiy plastik harakati bilan umumiy massasi, shakli va quyidagi kaft belgilari belgilanadi: bilak suyagining kaft suyagi bilan birlashgan qisimidagi bo'g'im, kaft usti suyaklari, kaft suyaklari.



111-rasm.

Kaft plastikasini aniqroq ko'rsatish uchun barmoq falangalariga, alohida barmoq uzunligiga hamda bilak-kaft usti suyagi bo'g'imidiagi bilak va tirsak suyaklarining pastki uchiga e'tibor be-rish kerak, chunki ular rasmning muvaffaqiyatlari chiqishini ta'minlaydi (112-rasm). Rasmni plastika nuqtayi nazaridan to'g'ri chizish uchun bilak va barmoqlarni eguvchi va bukuvchi mushaklarning joylashuviga va o'lchamini, shuningdek, kaft suyagi boshchalaridan barmoq



112-rasm.

falangalariga o'tuvchi, barmoqlarni bukuvchi paylarni bilish muhimdir.

Kaft rasmi umumiydan qismlarga o'tish tamoyili bo'yicha chiziladi. Kaftning o'ziga xos xususiyatini, harakatini belgilab olib hamda alohida qismlar va umumiy shakl tuzilishini oydinlashtirib, kaftni tashkil etuvchi qismlar chizgilarli ishlanadi. Bu yerda qismlarga chalg'imasdan, rasmni umumiy ko'rinishda, yaxlitligicha chizish zarur. Qismlarni chizish davomida kaftning o'rta, biroz chuchurlashgan joyiga hamda jimiiloq va bosh barmoq tomonida muskullarni hosil qiladigan do'mboqqa e'tibor qaratish lozim.

Kaftning orqa tarafidagi yuza biroz bo'rtib chiqqan. Bu shakl birinchi va ikkinchi kaft suyaklari o'rtasidagi suyak o'rta mushagi ta'sirida hosil bo'lgan. Bosh barmoq ko'rsatkich barmoq bilan birlashganda, bu bo'rtma ko'zga yaqqol tashlanadi. Mashg'ulotlar

skelet suyaklari va tirik odamdagи mushaklar rasmlarini namoyish etish bilan davom ettiriladi.

5.6. Qisqa muddatli o‘quv va xomaki rasmlar chizish

Xomaki rasm, odatda, qisqa, ba’zan esa, juda qisqa va o‘ta cheklangan vaqt davomida, ko‘p hollarda rasm chizuvchining o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holatlarda bajariladigan predmet dunyosining umumlashtirilgan to‘liqsiz tasviridir. Bunda ishni tezlashtirish maqsadida eng kam grafik vositalardan foydalaniлади.

Murakkab shaklni faqat uning asosiy, mayda ikir-chikirlarsiz tipik, o‘ziga xos alomatlari aniq va ifodali tarzda hal etiladigan predmet dunyosining realistik tasvirini umumlashtirilgan, deb hisoblamoq kerak. Shuning uchun ham xomaki rasm ko‘p hollarda «yaxlit, ko‘zga ko‘rinib turgan predmetning qism, bo‘lakchalarsiz tasviri bilan belgilanadi».

Xomaki rasmlar akademik vazifani boshlashdan avval o‘quv rasmini kompozitsiya jihatidan joylashtirishda har doim ham naturaning umumlashtirilgan tasviridan, ya’ni aslini olganda, xomaki rasmdan foydalaniлади. Shuning uchun o‘quv muassasalarida pedagoglar akademik rasmni boshlashdan avval o‘quv-chilarga naturani turli nuqtalardan turib qalamchizgilar bajarishni va shundan so‘ng, kerakli joyni tanlab olgandan so‘ng asosiy ishga kirishishni maslahat berishadi. Chunki xomaki rasm muvaffaqiyat bilan topilganda, naturaning butun massasi joylanishi davomli o‘quv rasmining asosi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Chizgi — xomaki rasmga nisbatan ancha to‘liq hisoblanadi. Lekin ba’zi hollarda u davomli o‘quv rasmiga qaraganda, ancha qisqa vaqt oralig‘ida naturadan bajariladigan predmet dunyosining mukammal bo‘lmagan tasviri hamdir. Chizgi ustida ishslash vaqtini, odatda, rasm chizuvchining o‘zi belgilaydiki, bu ushbu rasm mazmuni, shuningdek, uning keyinchalik amalga oshadigan maqsadiga qo‘yadigan talablariga bog‘liq.

Naturadagi chiziladigan chizgi xuddi xomaki rasmning detallar bilan boyitilishi kabitidir. Naturaning qay holda yuzaga chiqarilishiga qarab, chizgi xomaki rasm bilan davomli rasm o‘rtasidagi oraliq bir vosita bo‘lib qoladi. Boshqacha so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, naturadan chizilgan xomaki rasm ishida o‘sha naturadan davom

ettirilgan ish sekin-asta chizgiga aylanishi mumkinki, bunda rasm ikir-chikirlariga batafsilroq to'xtaladi.

Xomaki rasm bilan chizgi o'rtasidagi farq u yoki bu rasmni chizish uchun sarflanadigan vaqtidan emas, balki asosan ish usulining o'zidan ham iboratdir. Chizgi boshidan oxirigacha naturadan chizish orqali bajariladi. Xomaki esa, nafaqat, naturadan, balki xotiradan, tasavvurdan, idrokdan, shuningdek, barcha usullarni ham qo'llab chizilishi mumkin. Xomaki rasmlar ijrosining aynan shu xildagi usullari keyinchalik, nafaqat, umuman rasm chizishga o'rgatish, balki yuqorida aytib o'tilgan bo'lajak rassom uchun zarur bo'lган sifatlar yig'indisini tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Xomaki rasm va chizgilarga o'rgatishda natura sifatida xuddi davomli rasm chizishda qo'llaniladigan shaklan yaqin bo'lган (yoki mazmunan shu kabi) obyektlardan foydalaniadi:

- 1) «o'lik» (tirik bo'lman) natura, (natyurmort);
- 2) o'simliklar;
- 3) hayvonlar;
- 4) inson.

Ta'lim uslubiyatini qisqa muddatli rasmlarda qurish uchun, ya'ni o'quv mashg'ulotlari izchilligi va mazmuni hamda ularni hal qilish usullarini belgilab olish uchun har xil xomaki rasmlar ijrosining o'ziga xos xususiyatlarini tushunib yetish kerak va birinchi navbatda, qisqa muddatli rasmlar ijrosi bilan (xomaki va chizgilar) davomli rasmlar ijrosi usullarida o'rtasidagi farq nimadan iborat ekanligini bilib olish zarur.

Xomaki rasmlar va ularni bajarish usullari. Idrok etishning «umumiylidkan — xususiylikka va xususiylikdan — umumiylikka» tasvirlash usuli ta'lrim jarayonida bosqichlar bo'yicha davomli o'quv rasmini bajarishda o'z tasdig'ini topadi.

Tasvirlanayotgan predmet shaklini umumlashtirilishining so'ngi yakuniy bosqichi — qog'ozga tushirilgan narsani yaxlit birlikka yig'ish va birlashtirishdan butun rasm bo'ylab aniqlik kiritish va nur soya nisbatlarini bitta yaxlitlikka keltirish, ya'ni tasvirlanayotgan shakl va ana shu shakl turgan kenglikni tutashtirishdan iboratdir.

Naturadan uning o'ziga xos xususiyatlari bilan qisqa xomaki rasm chizib olish, asosan, tez ko'rish va idrok qila bilish qobiliya-

tlarini o'stirish uchun mo'ljallanadi. Kuzatish, idrok qilish va xomaki rasmni ijro etishlar ko'p hollarda bir vaqtning o'zida sodir bo'ladi. Shuning uchun xomaki rasm ustida ishlashning yakuniy bosqichi sifatida umumlashtirish haqida alohida to'xtalishga to'g'ri kelmaydi.

Xomaki rasmlar chizishda foydalilaniladigan usullarni farqlash xomakilarning olti turini belgilab olish imkonini beradi. Xomaki rasmlar va ularning turlari quyidagilardan iborat:

- naturani kuzatgan holda undan boshidan oxirigacha bevosita ijro etiladigan xomaki rasmlar;
- kombinatsiya usuli bilan (dastlab naturadan kuzatib, keyinchalik naturasiz — xotira bo'yicha) ijro etiladigan xomaki rasmlar;
- faqat xotiradan bajariladigan, ya'ni kuzatishdan keyin biror vaqt o'tgandan so'ng, ongda ko'rish qobiliyati mustahkamlanganidan keyin chiziladigan xomaki rasmlar;
- insonning avval ongida qabul qilingan ba'zi predmetlar, tirik obyektlar va atrof-borliq hodisalar haqidagi tasavvurlarni jonlantirish qobiliyati bilan bog'liq tasavvurlar bo'yicha ishlanadigan xomaki rasmlar;
- kompleks usul bilan, ya'ni yuqorida ko'rsatib o'tilgan hamma ish usullarini, jumladan, tasavvur bo'yicha usullarini qo'llagan holda bajariladigan xomaki rasmlar;
- xayolga keltirish bo'yicha — biror-bir ijodiy fikr yoki badiiy obraz, mavzu, sujet va hokazo predmet va hodisalar haqida o'z tasavvurlarini jonlantirib tiklash asosida dastlabki umumlashgan tasvirning xomaki rasmlarini chizish.

Xomaki rasmlarning ikkinchi, uchinchi va beshinchi turlari bitta umumiyl alomatlar bilan birlashadi, chunonchi: xomaki rasm chizish bilan bir vaqtida sodir bo'ladigan yoki xomaki rasm chizishdan sal oldin bo'ladigan naturani ancha yuzaki va tez kuzatish bilan yuzaga keladigan majburiy alomat bilan. Agar bunda ijro vaqt cheklanmasa, u holda bunday naturadan chiziladigan xomaki rasm chizgiga aylanib qolishi mumkin. Bu shart-sharoitlardan bittasi — naturani kuzatish va xomaki rasm ijrosi uchun vaqtning cheklanganligi yoki cheklanmaganligidir. Bu o'z navbatida naturaning qo'zg'almasligi yoki qo'zg'alish darajasi (harakat tezligiga)ga bog'liq bo'ladi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, xomaki rasm chizish usuliga, eng avvalo, ikki omil ta'sir qiladi: vaqt va naturaning holati.

Bu o‘zaro bir-biriga bog‘liq omillardan tashqari ijrochi va uning ishslash qobiliyatiga (binobarin, xomaki rasmdagi tasvir xarakteri va sifatiga) shuningdek, tashqi obyektiv shart-sharoitlar ham ta’sir qiladiki, ularga rasm chizuvchi moslashishi kerak bo‘ladi (sinf, xona yoki ko‘cha, ishlab chiqarish yoki transport, jamoa joyi, sport maydonchasi, yo‘lka, sayilgoh va h.k.lar).

Naturadan kuzatish bo‘yicha xomaki rasm chizish faqat bitta shart bilan, ya’ni natura umuman qo‘zg‘almas, harakatsiz turgandagina boshidan oxirigacha bajarilishi mumkin. Bunday qiyofa natura, eng avvalo, so‘zsiz jonsiz predmet (masalan, san’at, haykaltaroshlik asarlari, me’morchilik inshootlari, bezaklar, sabzavot, meva, gul, daraxtlar, ba’zi manzara turlari, shuningdek, maxsus qiyofa uchun turgan model (inson ham) bo‘lishi mumkin.

Xomaki rasmning maqsadi naturani to‘liqsiz umumlashtirilgan ko‘rinishini aks ettirishdan iborat bo‘lgani uchun rassom nisbatan ancha bamaylixotir ishlaydi. Agar maqsad amalga oshgan bo‘lsa-yu, natura hali qimirlamay turgan bo‘lsa, u holda xomakilikdan chizgiga (lavhaga) o‘tish mumkin. Bunda hatto qog‘oz chetiga qo‘srimcha, naturaning ba’zi bo‘laklarini ancha batafsilroq chizgilarini ham chiqarsa bo‘ladi (albatta, bunga zarurat tug‘ilsa). Bunday holatda vaqt omili ish xarakteriga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Agar naturaning qo‘zg‘almasligi shartli va tasodif bo‘lsa, ba’zi hollarda u vaqtinchalik bo‘lsa, ya’ni natura istalgan paytda, rasm chizuvchi uchun noma'lum bir soniyada o‘z holatini, yuz qiyofasini, imo-ishorasini o‘zgartirib qolsa va hatto nuqtayi nazardan umuman yo‘qolib qolsa, u holda naturadan xomaki rasm chizishda ish xarakteri jiddiy tarzda o‘zgaradi. Bunday holat tasodiflariga quyidagilarni keltirish mumkin: saylghoh o‘rindig‘ida o‘tirgan kishi o‘rnidan turib ketsa yoxud jimgina yotgan it birdaniga akillay boshlasa, ushbu holat xomaki rasmini chizayotganda sodir bo‘lishi mumkin.

Peyzaj xomaki rasmi (yoki chizgi)ni chizayotganda, ob-havo yoki yoritilish holati o‘zgarmasligiga ishonch hosil qilish kerak emas. Chunki birdan shamol turib qolishi, tekis suv yuzasini to‘lqinlar, osmonni to‘satdan qora bulutlar qoplashi mumkin.

Tabiatda tirik natura rassom ustaxonasi yoki sinfdagi o‘quv ishi kabi bir maromda turmaydi. U o‘z hayotida davom etadi va uning

tabiiy, vaqtincha qo‘zg‘almay turishi darhol, ba’zida esa, kutilmaganda aks holat kasb etib qolishi mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, aynan tirik modelning bunday qo‘zg‘almas shartlari, ya’ni tinch, bamaylixotir qiyofa rassomning kuzatuvchan ko‘zlar uchun eng qimmatlidir. Aksincha, bir xil holatda maxsus turgan tirik model doimo o‘z ifodaliligini yo‘qotadi, chunki har qanday holatda ham sun’iylik mavjud bo‘ladi. Buning ustiga sizga qarab turgan siymo ham oxir-oqibat charchaydi, bu esa, uning qiyofasiga ta’sir etmasdan qolmaydi.

Shuning uchun ham xomaki rasmida qo‘zg‘almas tirik modelni muhrlab qo‘yish uchun rassom doimo shay turishi lozim. Ishlash uchun mayjud vaqt davomida kuzatish va xomaki rasmni bajarishda har bir daqiqa, hatto har bir soniyadan unumli foydalanib qolish zarur bo‘ladi. Shuning uchun usta rassomlar xomaki rasmlarni ishlashda «qisqa», «juda tez», «bir nigohda», «yashin tezligida», «bir zumda» tasvirlash kabi so‘zlarni ishlatishlari ham bejiz emas. Xomaki rasm chizishning muayyan maqsadi — kuzatish natijasini bir zumda qog‘ozda aks ettirish.

Sinfdagagi mashg‘ulotlarda, ayniqsa, xomaki rasm chizishga o‘rgatilayotgan dastlabki paytlarda o‘quvchilar kuzatishga ham, rasm ijrosi uchun ham doimo yetarli vaqtga ega bo‘ladilar. Lekin sinfdan tashqari paytda xomaki rasm ustida ishlash, ya’ni bir vaqtning o‘zida ham kuzatish, ham chizish paytida (hatto muhim turgan natura ustida ishlanayotganda ham) to‘satdan uzilib qolishi mumkin. Ba’zan rassom tezroq o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishishi, bir varaqqa naturaning tipik hamda xarakterli xususiyatlarni darhol aks ettira qolishga harakat qiladi. Kuzatish vaqtijro vaqtiga to‘g‘ri kelib qoladi. Ana shunday holatda naturani ko‘rish idroki bilan, ijro etish keskinlashadi. Ya’ni e’tiborni chalg‘itmay turib mayda, ikkinchi darajali ikir-chikirlarga berilmay, darhol predmetning eng asosiy zarur tomonlarini ilg‘ab olishga, eng oddiy vositalardan minimal darajada foydalanishga harakat qilinadi.

Eng avvalo, bir nechta ishonchli chizgilar (yoki tus beruvchi dog‘lar) bilan bo‘lajak tasvirning o‘rni va o‘lchamini — uning «abrasi»ni belgilab olish zarur. Ana shunga qarab asosiy qismlari, konstruksiya va harakatlarini hisobga olgan holda naturaning butun massasini tushirib olish kerak. Agar natura o‘z qo‘zg‘almas holatini saqlab turgan bo‘lsa, darhol belgilangan fikrlarni detallashtirishga

kirishmoq, eng asosiy, xarakterli xususiyatlarni tezroq ilg‘ab olmoq zarur.

Kombinatsiyalashgan (dastlab naturadan, keyinchalik xotira bo‘yicha) xomaki rasmlar chizish. Natura harakatga kela boshlashi, o‘z holatini o‘zgartira borishi bilan va rassom ko‘zidan iz qolishi boshlanishi bilan ana shu xomaki rasmni nihoyasiga yetkazish uchun xotiradan ko‘rish qobiliyatini ishga solishga to‘g‘ri keladi.

Naturadan boshlanib, so‘ngra uning ishtirokisiz xotirada tugallangan xomaki rasm «Kombinatsiyalashgan» hisoblanadi. Kuzatish vaqtining qisqarishi endi xomaki rasm ustida ishslashni ham murakkablashtiradi va xotiraga zo‘r berishni talab qiladi. Bunday holatlar amaliyotda juda ko‘p uchraydi.

Xotiradan chiziladigan xomaki rasm chizish. Uzluksiz, doimiy harakatda bo‘layotgan natura holatini bir zumda aks ettirish ancha mushkul. Bunday paytda hammasini birdan nazardan qochirmay ilg‘ab olish va darhol, hech kechiktirmay xotirangizga muhrlanganni qog‘ozga tushirish zarur. Ana shunda xotiraga muhrlangan ko‘rinish o‘z «yangilagini» yo‘qotmaydi. Bunga misol qilib, oldingizdan tez yugurib o‘tayotgan yoki to‘sqliar osha sakrab yugurayotgan sportchini ko‘rishimiz mumkin. Bunday vazifani uddalash amalda mumkin. Buning uchun o‘ta tez, bir nigohda harakatdagi ifodani ilg‘ab olish kerak bo‘ladi (masalan, yugurib borayotgan sportching gavdasi, oyoqlari, bosh va qo‘llari harakati). Lekin bu o‘rinda xomaki bajarilgan chiziqlarni bir yerga to‘plash, ya’ni har tomonlama jamlashni unutmaslik kerak.

Ko‘rish qobiliyati kuchli bo‘lganda, juda qisqa, ba’zan esa, bir soniyada xotiraga muhrlanadigan detallarni ham umumlashtirib yuzaga chiqarish mumkin. Ana shu tarzda ijro etilgan xomaki rasm xuddi qog‘ozga muhrlangan xotira kabi bo‘ladi. Bundan keyingi uning vazifasi — ko‘rilgan narsa haqida eslatishdan bo‘lak narsa emas. Bunday xomaki rasmlarga tuzatish va qo‘srimchalar kiritish faqat boyagi sportchining harakati takrorlangandagina (deyarli bir xil harakat), yana xotiraga olish yo‘li bilan bajariladi.

Faqat ko‘rib, xotirada saqlash qobiliyatiga tayangan holda xomaki rasm ustida ishslash zarurati tashqi shart-sharoitlarni kuzatish imkonini beradigan vaziyatlarda tug‘iladi. Masalan, shahar transportida qarshingizda o‘tirgan yo‘lovchining boshi o‘ylab qo‘ygan kartina personajiga o‘xshaydi va anchadan beri qidirib yurgan obyektingiz

chizib qoladi. Uni naturadan chizishning iloji yo‘q, chunki u o‘z nigohini olib qochishi, boshini burishi yoki qiyofasini o‘zgartirishi, shuningdek, transportdagi vaziyat to‘g‘ridan to‘g‘ri naturadan chizish imkonini bermasligi mumkin va h.k.

Siz o‘z oldingizga qo‘ygan vazifani bajarish uchun boshqa yo‘lni tanlashga to‘g‘ri keladi. Buning uchun ko‘rish qobiliyatini ishga solasiz: naturani sezdirmay kuzatasiz, o‘rganasiz, o‘ziga xos xususiyatlarni (ayniqsa, undagi ajralib turadigan xarakterli belgilarni) eslab qolishga harakat qilasiz. Yo‘lovchi o‘z bekatida tushib ketdi. Shunda darhol, hech ham kechiktirmay cho‘ntak albomni olib (aks holda, xotirangizdan ko‘tarilib ketishi mumkin) o‘sha yo‘lovchi holatini qanday eslab qolgan bo‘lsangiz, shundayligicha xomaki rasmini chizib olasiz.

Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Lekin rassom ko‘rish xotirasini rivojlantirishi uchun harakatdagi odam, ayniqsa, o‘z xarakteri va harakatlanishi tezligi har xil bo‘lgan bir guruh odamlarga qarab, xomaki rasmlar chizishni talab etadi (masalan, basketbol, futbol, xokkey kabi sport o‘yinlari vaqtida, hayvonot bog‘idagi jonivorlarga qarab, xomaki rasmlar chizish foydadan xoli emas).

Shuni nazarda tutish kerakki, kuzatish natijasida esda qoladigan obrazning sifatiga, uning barqarorligiga ko‘plab sabab va vaziyatlar ta’sir qiladi (idrok qilishning takrorlanishi, kuzatish faolligi va tezligi, shuningdek, zarurat tug‘ilganda ko‘rilgan narsani eslab qolish qat’iyligi). Ayniqsa, qisman biror holatda (yoki sxematik ko‘rinishda) naturadan qog‘ozga tushirilgan chizgini diqqat bilan kuzatgan va o‘rganilgan narsa xotirada yaxshi saqlanib qoladi. Ko‘rko‘rona, hech qanday tahlilsiz, faqat ko‘chirib qo‘ya qolining narsa, odatda, xotirada uzoq saqlanmaydi.

Tasavvur qilib xomaki rasm ishlash. Tasavvurda xomaki rasm chizish naturani bevosita kuzatish bilan bog‘liq emas. U avval idrok qilingan, predmet olami va ongda muhrlanib qolgan hodisalar asosida ijro etiladi. Idrokka (qabul qilishga) nisbatan tasavvur yanada umumiylar xarakterga ega. Ularda tafsilot kamroq bo‘ladi va faqat predmet-hodisalarning asosiy xususiyatlarini aks ettiradi. Shuning uchun ham tasavvurda chizilgan xomaki rasm «o‘zidan chiqarib» iborasiga yaqin va o‘zining mantiqiyligi bilan bevosita naturaga qarab chizilgan xomaki rasmdan farq qiladi.

Tasavvurda rasm chizayotgan kishi uni qamrab turgan vaqt va natura holati kabi omillardan xoli bo‘ladi. U bamaylixotir, butun diqqat-e’tiborini xomaki rasmga qaratib ishlashi, zarur ifoda va tasvirning ishonchligiga erishgan holda faoliyat ko‘rsatishi mumkin.

Eng oddiy vazifa — polda turgan oddiy stul rasmini tasavvurda chizish uchun u ana shu stulning shakli, uning konstruksiyasi va asosiy o‘lcham nisbatlarini eslay olishi lozim. Xo‘sh, qayerdadir, yuqorida va pastki nuqtayi nazardan ko‘rinadigan xuddi ana shu stul qanday ko‘rinishga ega bo‘ladi? Predmet shaklining qurilishi qancha murakkab bo‘lsa, ma’lumki, uni «o‘zidan chiqarib» tasavvurda chizish ham shunchalik qiyin kechadi.

Rasm chizuvchi ongi (tasavvuri)da predmetning kenglikdagi obrazini tiklash vazifasi turadi. Bunday tiklash jarayoni, nafaqat, predmet shakli haqidagi tasavvurni, balki uning qurilishi, nisbatlari, harakat yo‘nalishi va tezligi kabi boshqa kenglikdagi nisbatlarini ham o‘z ichiga oladi. Masalan, agar odam qaddi-qomati kabi murakkab tirik shaklining naturasiz, o‘zidan chiqarib xomaki rasmini (aytaylik, bo‘lajak kartina eskizi uchun) umumlashgan holda chizadigan bo‘lsak, buning ustiga bu tasavvurdagi naturamiz tez harakatda, burilishda yoki boshqa holatda (aytaylik, cho‘qqidan tezlikda tushib kelayotgan chang‘ichi) bo‘lsa, vazifa ancha murakkablashadi.

Xomaki rasm ijrosidagi oldin xotirada tasvir obrazini, uning qurilishini tasavvur qilish, umuman, ushbu shakl ma’lum nuqtayi nazardan qog‘ozga qanday o‘lchamni egallashini ko‘z oldimizga keltirishimiz kerak bo‘ladi. Faqat shundan keyingina, odamning plastik anatomiyasini haqidagi bilimlarni xotiraga olib, «o‘zimizdan chiqarib» bir varaq qog‘ozga belgilab olgandan keyingina, buning ustiga gavda, bosh, oyoq-qo‘llar nisbati, ularning o‘lchamlarini, harakat paytida qisqarish proporsiyalarini, yoritilish holatini hisobga organ holda chizishni boshlash mumkin.

Ma’lumki, inson qaddi-qomatining «o‘zidan chiqarib» xomaki rasmini chizish faqat tananing qurilishi haqidagi bilimlar yetarli bo‘lgan taqdirdagina yaxshi amalga oshishi mumkin. Bunday bilim va ko‘nikma esa, faqat inson tanasini doimiy kuzatish hamda natura, tasavvur va xotiradan qisqa chizgilar chizish, shuningdek, yalon-g‘och va kiyimdagи modellardan muntazam ravishda foydalanish bilangina erishish mumkin. Shuningdek, inson tanasining bosh,

qo‘l, oyoq kafti suyaklari kabi murakkab qismlaridan qilingan mashqlar ham yaxshi natijalar beradi.

Har qanday holatdagi va tez harakatlanayotgan inson tanasini «o‘zidan chiqarib» (naturasiz) erkin va ifodali tasvirlay bilish faqat insonning plastik anatomiyasini, birinchi navbatda, skelet qurilishi va skelet mexanizmi harakatlarini yaxshi bilish natijasida «naturadan» va «xotiradan» qilingan xomaki rasmlarda mashq va yanada ko‘proq mashq oqibatida yuzaga keladi.

Tassavurda qilingan o‘quv xomaki rasmlar insonning har xil holatlarda, ya’ni harakatsiz va harakatlanayotgan holatlarini tasvirlash malakalarining to‘ldirilishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xomaki rasmlarni tasavvurda bajarishga o‘rgatishga davomli o‘quv vazifalaridagi o‘tilgan mavzularning o‘zlashtirilishini tekshirib ko‘rish uchun yordamchi mashqlarga ko‘p o‘rin ajratiladi. Bunday tasavvur bo‘yicha xomaki rasmlar chizishning tekshiruv mashqlari o‘quvchilarda «o‘zidan chiqarib» ishonch bilan chizishda qobiliyatni rivojlantirishga ko‘mak beradi. Ayniqsa, bu hol maqsad qilib qo‘ylgan yangi qirralar tobora murakkablashib borganda, yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Tasviriy san’atning hamma tur va janrlarida tasavvurda xomaki rasm chizishning asosiy vazifasi — badiiy obraz yaratish ishida turtki bo‘ladigan ko‘mak, yordam ko‘rsatishdir. Naturasiz ishlana-digan xomaki rasmlar (ya’ni, «o‘zidan chiqarib») murakkab ijodiy fikrni yuzaga chiqarish uchun eng qulay texnik vosita hisoblanadi. Shuning uchun ham tasviriy san’atga o‘rgatishda tasavvurda xomaki rasmlar chizish borasida o‘quv-dala amaliyotining ahamiyati kattadir.

Kompleks xomaki rasmlar (barcha usullarni qo‘llagan holda)

Eng so‘nggi va eng murakkab xomaki rasmlar turi, bu — kompleks usulda bajariladigan, ya’ni yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan usullarni hammasidan qisman foydalangan holda (naturadan, kombinatsiyalashgan yoki dastlab naturadan, keyin xotiradan, shuningdek, faqat xotiradan va tasavvurdan) ijro etiladigan xomaki rasmlar.

Kompleks usulni qo‘llash zarurati, asosan, ko‘pgina bir vaqtning o‘zida harakatlanayotgan obyektlardan xomaki rasm chizish-

da paydo bo‘ladi. Binobarin, bir guruh odamlar, ayniqsa, xomaki rasmida guruhni tashkil etadigan odamlarning o‘zaro joylashuvini xomaki rasmida qidirish va o‘z o‘rniga qo‘yishda bu usulga murojaat etiladi.

Kompleks xomaki rasm chizishga o‘rgatish rasm darslarida o‘tkaziladi. Lekin amaliyotda u «Kompozitsiya» o‘quv bosqichida ko‘proq qo‘llaniladi. Shuning uchun ham bu xomaki rasmlarni shartli ravishda «Kompozitsion», deb atash ham mumkin. O‘z ijro usuliga qarab, ular u yoki bu holatda naturani kuzatish bilan bog‘liqdir. Shuning uchun ularni xayolan ijro etiladigan badiiy obrazning kompozitsion yechimi — xomaki eskizlar bilan chal-kashtirish kerak emas.

Xayolan xomaki rasmlar chizish

Xayolan xomaki rasmlar chizish — bu juda umumlashgan xomaki rasm — eskiz bo‘lib, unda badiiy tasavvurning muayyan grafik natijasi sifatida paydo bo‘ladigan badiiy obraz gavdalanadi.

Rassom xayoloti obyektiv borliqdagi predmet va hodisalar haqidagi olingan tasavvurlari va undagi idrok etish zaxirasiga asoslangandir. Rassom o‘z xohishiga qarab, bu tasavvurlarni qayta va qayta shakllantirib, ularni kombinatsiyalab, ular o‘rtasida bog‘lanish yasab yoki ularni bir-biriga zid qo‘yib, badiiy obrazning bir butunligiga, maksimal darajada ifodaliligiga erishadi.

Tasavvurlarning o‘zi yetarli darajada umumlashgan bo‘lganligi sababli ham xayolot kuchi bilan qayta ishlangan xotirotlar idrok etish obyektidan ancha uzoqlashadi, lekin shu bilan birga u o‘zining realistik tasvir uchun zarur bo‘lgan alomatlarini saqlab qoladi. Tasavvur qiling, bir-biri bilan yagona harakat yoki biror oddiy sujetda ifodalangan mazmun bilan bog‘liq ikki kishini «o‘zidan chiqarib» (tasavvurda) tasvirlashdek oddiy vazifa ham tasavvur qilish, xayolotga berilishni talab etadi.

Mazmunning ma’no va mohiyatiga chuqur ta’sir qiladigan, ya’ni tasvir ifodasiga ta’sir qiladigan ikki shaklning o‘zaro joylashushi va ichki bog‘lanishi kabi juda ko‘plab har xil variantlar tug‘ilishi mumkin. Eng yaxshi variantni qidirib topishda, ularni o‘zaro bir-biri bilan taqqoslash zarur bo‘ladi.

Rassom o‘zi o‘ylab qo‘ygan ijodiy fikri uchun muayyan yorqin

javob olishi kerak bo'lsa, xomaki rasmning asosiy alomatlari — uning umumiylashgani, mantiqiy jihatdan to'g'riligi kabilar katta ahamiyat kasb etib qoladiki, ular tashqaridan qaraganda go'yo tugalsizdek ko'rindi. Vaholanki, aynan ana shu tugalsizlik badiiy tasavvurning keyingi faoliyatiga ko'proq turki bo'ladi, ijodkorni ko'proq ifodalilikka undaydi.

Tugallanmagan xomaki rasm topilgan yechimga dastlabki fikrga muvofiq tez va yaqqol ishonch hosil qilish, unchalik qiyinchiliksiz yaxshilash tomonga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish imkonini beradi. Bunda kiritiladigan o'zgartirishlarni avvalgi variantlaridagi bilan solishtirish uchun aynan ana shu xomaki rasmga kiritish ham mumkin bo'ladi. Nihoyasiga yetkazilgan rasmdagi biror qismni texnik jihatdan o'zgartirish, qo'l yoki oyoqni biroz bo'lsa-da surish, tana yoki boshni biror tomonga burish, tana harakatini kuchaytirish anchagini qiyinchilik tug'dirishi ma'lum.

Qalamda yengligma ishlangan xomaki rasmida esa, bu ish unchallk mushkullik tug'dirmaydi. Chunki bunda avval belgilab qo'yilgan narsani o'chirish yoki yo'q qilish zarurati tug'ilmaydi. Oddiygina solishtirish bilan badiiy fikrning yangi, yanada ifodaliroq variantini topish imkonini beradi. Xomaki rasm-eskizni muddatidan oldinroq tugatib qo'yish keyingi ishga xalaqit beradi, tasavvurni toraytiradi.

5.7. Chizgilar bajarish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar

Davomli va uzoq muddatli rasm chizish bilan bir vaqtida tirik odam boshidan muntazam ravishda xomaki rasm va chizgilar qilish zarur. Bunday xomaki rasmlar, nafaqat, odam boshini tasvirlashda olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, balki tasvirda real hayotni tasvirlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ham zarur.

Realist-rassom insonni harakatdagi, ya'ni uning barcha go'zalligini tasvirlay olishi kerak. Davomli rasm ustida ishlash talabani yordamchi chiziqlar, o'q chizig'i, konstruktiv asoslar yordamida tasvirni diqqat bilan va metodik bosqichlarda tasvir qurishga majbur etadi. O'quvchi davomli o'quv rasmida asosiy e'tiborini yuzada realistik tasvir ko'rishning qonuniylatlari va qoidalariga qaratadi. Binobarin, u o'quv-akademik rasmida bu ishni pedagog yordamida, uning uzluksiz kuzatuvida amalga oshiradi. O'quv va ijodiy rasm o'rtasidagi farqni sezalib, ular turli yo'nalishga ega ekanlik-

larini ko'rsatib o'tish lozim. O'quv rasm bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish uchun yaratiladi. Ijodiy rasmda esa, aksincha, olingan bilim va ko'nikmalardan badiiy obraz yaratish uchun foydalaniladi. Shuningdek, avval olingan bilim va malakalar asosida yangilik yaratadi.

Xomaki rasm ham olingan bilim va malakalar asosida yaratilib, rasmda endi o'quvchidan tasvir qurish izchilligi, yordamchi chiziqlarni qo'llash kabilar talab etilmaydi. Xomaki rasmlar haqida gapirilganda, ularning vazifalari, maqsad va yo'naliшlarini to'g'ri aniqlab olish kerak. Ko'pincha «xomaki» tushunchasini rasm ustida ishlashning birinchi bosqichi, shaklning chiziqli-konstruktiv qurilishi bilan aralashtirib yuboriladi. Bu, albatta, to'g'ri emas.

Xomaki rasm ma'lum vaqt oralig'ida kuzatilayotgan natura haqida to'liq tasavvur berishni maqsad qilib qo'yadi. Xomaki rasmlar har xil davomiylilik va har xil ishlanishda bo'lishi mumkin: ish shart-sharoitlari va rassomning o'z oldiga qo'ygan vazifalariga qarab yarim soatli, bir soatli, o'n minutli va hokazo.

Xomaki rasm — bu naturadan tezgina chizgi qilib olishdir. U o'quvchini tez fikrlash, tasvirlashning eng ishonchli va mantiqiy vositalarini qidirib topishga o'rgatadi, kuzatuvchanligini rivojlantiradi. Xomaki rasm, rasm chizuvchi diqqatini uncha mohiyati bo'lмагan narsalardan chetlab, assiy narsaga qaratadi. Xomaki rasm o'quvchida mustaqil ishga bo'lgan tayyorgarlik darajasini namoyon etadi.

Xomaki rasmlar talaba tasviriy savodxonligi qonuniyatlarini oson va tez qo'llay bilishga o'rgatishi lozim. O'tmishdagi ustoz rassomlarning xomaki rasm namunalari o'ziga xosligi, naturaning eng xarakterli xususiyatlarini ajratib ko'rsatilganligi bilan tomoshabinni o'ziga tortadi.

Naturadan o'quv-akademik rasm chizish vazifalarida xomaki rasmlar ma'lum o'quv-ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarni ko'zlaydi. Avval o'tilgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash va boshlovchi rassomni mustaqil ishlashga tayyorlashdan iborat. Xomaki rasm chizish — bu tez fikrlash, tez tahlil qilish demakdir. Xomaki rasm — bu avval olingan bilimlarni hisobga olgan holda natura bilan buyum haqidagi mantiqiy fikrlashdir. Rasm chizuvchi xomaki rasm chizish davomida ushbu natura haqida, uning shakl qurilishi

konstruktiv tuzilishi, anatomik xususiyatlari va hokazolar haqidagi butun bilimlari zaxirasidan foydalanadi.

Dala amaliyoti davrida o'quv mashg'ulotlarining eng ko'p mahsuldorligiga talabalar aynan xomaki rasmlar chizishda erishadi. Bunda ular ham naturani o'rganish ham tasvirlashning butun texnik vositalaridan foydalana bilish tomonlarini namoyon etadi. Shuning uchun ham xomaki rasmlar agar rasm chizuvchi natura haqida ma'lum ma'lumotlarga ega bo'lganidagina foydalidir. Ma'lum vazifalar aniq yo'naltirilgan maqsad bo'lmasdan, xomaki rasmlar chizaverish o'quvchini ijoddan bezdirib qo'yishi mumkin.

Ko'p yillik amaliyot shuni ko'rsatdiki, ma'lum bir tizimsiz, uslubiy prinsiplarsiz, bu ish maqsadsiz bo'lishi mumkin. Xomaki rasm chizishga o'rgatish ham o'quv vazifalarini asta-sekin murakkablashtirish ma'lum bir uslubiy bosqichlikni taqozo etadi. Dastlab o'quvchilar uchun ancha yengil, o'quv vazifalari berilishi maqsadga muvofiq.

Qisqa xomaki rasm va chizgilarda asosiy e'tiborni xarakterni ochishga, kishining obrazli xarakteristikasini ko'rsatishga qaratiladi. Eng asosiysi davomli rasm va xomaki rasmga bo'lgan yondashishni to'g'ri tushunishdir. Davomli o'quv rasmida biz akademik rasmning asosiy qoidalari — bosh shakli qurilishining konstruktiv tuzilish anatomik qonuniyatlarini o'zlashtiramiz; xomaki rasm chizishda esa, insonning emotsional holatini — tipajini ilg'ab olish talab etiladi.

Xomaki rasm ustida muntazam ishslash rasm chizish san'atini tezroq egallab olish imkonini beradi. Biron rassom yo'qliki, u o'zi bilan xomaki rasmlar uchun maxsus albom ko'tarib yurmag'an bo'lsa. O'tmishning mashhur rassomlari o'zlarining kundalik ishlariga juda katta e'tibor berishadi. Mashhur rassomlar doimo shuni ta'kidlashganki, rassom biron kunni ham behuda o'tkazmay, garchi u bu maqsad uchun hech narsa bo'lmasa ham, biron-bir narsaning rasmini chizishga undaganlar, chunki u shogirdga keyinchalik juda katta foyda keltiradi. Hayotda biz bir-biriga aynan o'xhash odamni uchratmaymiz. Rassomning vazifasi ham individual xususiyatlarni ilg'ab olish, ushbu odam uchun o'zgacha bir xususiyatni topa bilishdan iboratdir. Shuning uchun ham ko'proq kuzating, ko'proq naturadan rasm chizing, muntazam ravishda xomaki chizgilar qiling.


Tasvirda inson yuzining hayotiy ta'sirchanligini bera olish realist rassom uchun o'ta muhimdir. Hozirgi kunning eng dolzarb vazifasi mohir pedagogni tarbiyalash ekan, inson tanasi, bosh shakli va atrofdagi barcha shakllarning rasmini chizishga o'rgatish tizimida xomaki rasmlar chizish ishiga jiddiy e'tibor berish lozim. Xomaki rasmlar va qisqa chizgilar boshlovchi rassomni ijobjiy faoliyatga uzlusiz bog'lab qo'yadi. Ular o'quvchini mustaqillikka va o'quv mashq tasviriy vazifalarni hal etishga o'rgatadi.

Tirik odam rasmini chizish rassom uchun yaxshi maktab hisoblanadi. Tirik inson yuz harakatidagi shakl boyligi va ifodaliligi rassomga ushbu odamga xos bo'lgan eng xarakterli xususiyatlarini ilg'ab olish, yosh rassomga badiiy obraz yaratish uchun dadil qadam tashlash imkonini beradi. Muvaffaqiyat bilan hal etilgan o'quv vazifalar rasm chizish san'ati bilan qiziqishga, keyinchalik esa, tasviriy san'atni mukammal egallahsha bo'lgan intilishlarga foyda bo'ladi.

Quyidagi 113—125-rasmlarda qisqa muddatli xomaki rasmlar va chizmalar bajarish bo'yicha namunaviy ishlar ko'rsatilgan.



113-rasm.



114-rasm.



115-rasm.



116-rasm.



117-rasm.



118-rasm.



119-rasm.



120-rasm.



121-rasm.




122-rasm.



123-rasm.



124-rasm.



125-rasm.



NAZORAT SAVOLLARI

1. Tayanch nuqtasi va muvozanat to‘g‘risida so‘zlab bering.
2. Odamning harakat holatini izohlang.
3. Inson skeleti to‘g‘risida ma’lumot bering. Uning tasvirini uslubiy bosqichlarda chizish usullarini so‘zlab, amaliy ko‘rsating.
4. Qalamchizgi va xomaki rasm nima? Ular to‘g‘risida ma’lumot bering.
5. «Shaklning konstruktiv asosi», deganda nimani tushunasiz?
6. Odamning plastik anatomiyasi, deganda nimani tushunasiz? Psixologik portret nima? Mimika muskullari to‘g‘risida ma’lumot bering.
7. Katta shakl nima?
8. Inson qomatini tasvirlashda analiz va sintez yo‘li bilan tasvir bajarish, deganda nimani tushunasiz?
9. Pedagogik rasmning oddiy rasmdan farqi nimada?
10. Buyumda yorug‘likning taqsimlanish qonuniyatlarini bayon eting.
11. Tabiiy va sun‘iy yorug‘lik nurlarining buyumga tushishi natijasida hosil bo‘luvchi soya-yorug‘lik munosabatlari to‘g‘risida ma’lumot bering.
12. Qalam, ko‘mir, sangina bilan ishlash texnikalari to‘g‘risida gapirib bering.
13. Odam qomatining tuzilishini sxema asosida chizib ko‘rsating.
14. Tayanch nuqtasi, tayanch o‘qi va insonning muvozanati to‘g‘risida ma’lumot bering.
15. Odamning harakat holati to‘g‘risida so‘zlab, sxematik rasmlar chizib ko‘rsating.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *B. Azimova.* Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. T., «O‘qituvchi», 1984.
2. *N. Ten.* Gips modellarining rasmi. T., «O‘qituvchi», 1994.
3. *B. Boymetov, M. Tolipov.* Maktabda tasviriy san’at to‘garagi. T., «Fan», 1995.
4. *B. Boymetov, S. Abdurasulov.* Chizmatasvir. T., G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2003.
5. *B. Boymetov.* Qalamtasvir. T., G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.

MUNDARIJA

Kirish	3
--------------	---

1-bob. QALAMTASVIR — TASVIRIY SAN'ATNING ASOSI SIFATIDA

1.1 Tasviriy san'at haqida dastlabki ma'lumotlar	8
1.2. Qalamtasvir asoslari va uning maqsad-vazifalari	9
1.3. Borliqni idrok etish.....	12
1.4. Tasviriy san'atning asosiy qonun-qoidalari	17
1.5. Tasviriy san'at texnologiyalari: materiallar, jihozlar va ularni rasm chizishda qo'llash	31

2-bob. TASVIR VOSITALARI VA RASM CHIZISH USULLARI

2.1. Rasmdagi shakl, hajm va tus munosabatlari	39
2.2. Chiziq va shtrixlar, ularning tasvirlar bajarishdagi ahamiyati	43
2.3. Tasviriy san'atda buyum shakllarining o'zaro nisbatlari	47
2.4. Tasviriy san'atda yorug'-soya munosabatlari	48

3-bob. ALOHIDA GEOMETRIK SHAKLLAR VA JISMLARNI ASLIGA QARAB TASVIRLASH

3.1. Umumiy metodik tavsiyalar	55
3.2. Geometrik shakllarni o'ziga qarab tasvirlash	58
3.3. Mato rasmini chizish	71
3.4. Ikki, uch geometrik shakllardan tashkil etilgan natyurmortning qalamtasviri	73
3.5. Panjara geometrik gips naqsh rozetkasini tasvirlash	77
3.6. Uy-ro'zg'or buyumlari hamda gips milliy naqsh rozetkasining qalamtasviri	80
3.7. Dorika kapiteli, shar va prizma rasmini chizish	84

**4-bob. INSON QOMATINING QALAMTASVIRI.
PLASTIK ANATOMIYANING TASVIRIY
SAN'ATDAGI AHAMIYATI**

4.1. Tana, qo'l va oyoq skeleti	89
4.2. Tana a'zolarining nisbatlari	93
4.3. Boshning plastik anatomiyasi	104
4.4. Gudonning «Ekorshe» anatomik bosh-modeli rasmini chizish	107
4.5. Gips modellarga qarab, bosh tasvirini chizish	115
4.6. Tirik odam boshi rasmini chizish	130

5-bob. GAVDA SKELETI TO'G'RISIDA MA'LUMOT

5.1. Gavda skeleti nima? Gavda suyaklari, bo'g'imlari, birlashmalari, harakatlari va ularning plastikasi	139
5.2. «Ekorshe» gips anatomik modeli rasmini chizish	142
5.3. Tirik odam rasmini chizish	151
5.4. Oyoq rasmini chizish	156
5.5. Qo'l kaftini chizish	160
5.6. Qisqa muddatli o'quv va xomaki rasmlar chizish	163
5.7. Chizgilar bajarish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar	173

Foydalanilgan adabiyotlar	188
---------------------------------	-----

BOTIR BOYMETOV

QALAMTASVIR

*Pedagogika yo‘nalishidagi kasb-hunar kollejlari uchun
o‘quv qo‘llanma*

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2007

Muharrir *I. Usmonov*
Rassom *R. Chig‘atoyev*
Texnik muharrir *F. Samadov*
Musahihih *F. Temirxo‘jayeva*

2007-yil 16-aprelda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60x90^{1/16}.
«Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog‘i 12,0.

Nashr tabog‘i 11,0. 3859 nusxa. Buyurtma №
Bahosi shartnomaga asosida.

«ILM ZIYO» nashriyot uyi. Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
Shartnomalar № 106—2006.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining G‘afur G‘ulom
nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Toshkent, U. Yusupov ko‘chasi, 86-uy.

B81 Boymetov B. Qalamtasvir. Pedagogika yo‘nalishidagi kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. T.: — «ILM ZIYO», 2007. — 192 b.